

83.3(543)

H 76

HAMIDJON HOMIDIY,
ODILJON NOSIROV,
MAHMUDJON MA'MUROV

O'ZBEK
ADABIYOTI



FF000005709

5Y3)
76

37543)
76

gulbahoz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

HAMIDJON HOMIDIY, ODILJON NOSIROV,
MAHMUDJON MA'MUROV



O'ZBEK ADABIYOTI

(Ma'lumotnoma)

* 105

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TeshDO'TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

TOSHKENT - 2004

Homidiy H. va boshq.

O'zbek adabiyoti (Ma'lumotnoma): Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma (Mualliflar: H. Homidiy, O. Nosirov, M. Ma'murov.—T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2003.—104 b.

Sarlavhada: O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.



~~010483/~~
54



SO‘Z BOSHI

Qo‘lingizdagi mo‘jaz qo‘llanma yaqin ikki mingyillik o‘zbek adabiyoti tarixi haqida asosan akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quvchilari hamda oliy o‘quv yurtiga kirishga tayyorgarlik ko‘rayotgan yigit-qizlarga muxtasar ma‘lumot berishga mo‘ljallangan. Shuning uchun ham litsey va kollej o‘quvchilari uchun tuzilgan adabiyot dasturlarida o‘rganilishi ko‘zda tutilgan adabiy hodisalar, adiblar hayoti va ijodi bayoniga ko‘proq e‘tibor qaratilgan.

Biroq o‘quvchilar hamda oliy o‘quv yurtlari talabalarining ham shunday ma‘lumotnomaga ehtiyojlari bor ekanligini hisobga olib, maktab rejasiga kirmagan, ammo o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ma‘lum hissa qo‘shgan so‘z san’ati vakillari hayoti va ijodi bayoniga ham qo‘llanmada yetarli o‘rin ajratildi.

Shuningdek, ushbu ma‘lumotnomada boshqa darslik yoki shu xildagi qo‘llanmalarda kam e‘tibor berilgan Husayniy, So‘fi Oллоhуor, Amiriy, Feruz, Fazliy singari ijodkorlarning hayoti sanasi va asarlari xususida ham fikr yuritildi. Ushbu ma‘lumotnomani tuzishda hamkasblarning tadqiqotlaridan hamda professor S. Mirvaliyevning «O‘zbek adiblari» kitobidan qisman bahramand bo‘ldik.

Qo‘llanma Respublika ta‘lim markazi xamda Namangan Davlat universitetining ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

I B O B. ENG QADIMGI ADABIY YODGORLIKLAR. ERAMIZGACHA VII ASRNING OXIRI VA VI ASR BOSHLARI

Sharq xalqlarining yozma adabiyoti, she'riyatining ilk namunasi, zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» yaratildi. Unda Ahuramazdo (Hurmuz), Angro Manyu (Ahriman), Mitra, Ardivisura Anahito, Kayumars, Yima (Jamshid), Varaxrana (Bahrom), Vertragna, Osha va boshqa mifologik obrazlar mavjud. Kitobda ko'pxudolikka qarshi Yakka Tangri g'oyasi targ'ib etilgan. «Avesto» ajdodlarimizning kamida 30 asrlik tafakkuri tarixidan ma'lumot beradigan yagona manbadir.

Eramizgacha V asr. Grek tarixchisi Gerodot (484—425-yillar)ning «Tarix» kitobi orqali O'rta Osiyo xalqlarining To'maris haqidagi eposi syujeti yetib kelgan.

Eramizgacha IV asr. Grek tarixchisi Xares Mitilenskiyning kitobi orqali Zariadr va Odatida haqidagi sevgi va qahramonlik qissasi syujeti yetib kelgan.

Eramizgacha II asr. Grek tarixchisi Poliennning «Harbiy hiylalar» kitobi orqali Shiroq haqidagi qahramonlik eposi mazmuni etib kelgan.

Eramizgacha I asr. Sitsiliyalik tarixchi Diadorning «Kutubxona» asari orqali Zarina va Striangiya haqidagi afsonaning qisqacha bayoni yetib kelgan.

Eramizning V—VII asrlari. Urxun-Enasoy yodgorliklari yaratilgan.

Ular qabr toshlariga o'yib yozilgan bo'lib, To'n'yuko'k, Uyuk-arxon, Kul-tegin, Bilqa-Qoon haqidagi hikoyalardan iborat. Bitik she'r bilan yozilgan.

II B O B. VIII—XII ASRLAR ADABIYOTI

VIII asrning ikkinchi yarmi va IX asr boshlari. Abu-Ja'far Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy yashab ijod etdi. U buyuk astronom, matematik va geograf edi. Undan «Zij» astronomik risolasi, «Hind raqamlari hisob-kitobi», «Tenglama va qarshilantirish hisobi», «Yerning shakli haqidagi kitob» singari asarlar qolgan.

IX asrning 70-yillari va X asr. Abu Nasr Forobiy yashab ijod etgan. U falsafa, mantiq, astronomiya, matematika, tibbiyot, musiqa ilmlari bilan shug'ullandi. «Sharq Arastusi», «Muallimi soniy» unvonlarini olgan. «Falsafa manbalari», «Aql haqida risola», «Falsafani o'rganishga qadar nimalarni bilish kerak?», «Substansiya», «Davlat haqida risola», «Fazilatli shahar aholisining fikr-qarashlari ibtidosi haqida kitob» singari asarlar yaratgan.

1975-yil. Jahon jamoatchiligi Forobiyning 1100 yilligini nishonladi.

980-yil. Abu Ali Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ildi. Go'dakligida oila Buxoroga ko'chdi. Ibn Sino shu joyda bilim olgan. 18 yoshidayoq tabib sifatida shuhrat orttiradi. U Xorazm, Abevard, Jurjon, Mozandaron, Ray, Qazvin, Hamadon, Isfahon shaharlarida quvg'inda yashadi va ishladi.

Ibn Sino tibbiyot, falsafa, mantiq, fizika, fors-tojik va arab tilida badiiy ijod bilan shug'ullandi. Undan «Al-Qonun fit-tibb» (Tibbiyot qonuni), «Donishnoma», «Musiqa haqida risola», «Arab tili», «She'r to'g'risida kitob», «Mantiq haqida manzuma» kabi ilmiy hamda «Qasidalar va she'rlar», «Hay' ibn Yaqzon», «Salomon va Ibsol», «Qushlar risolasi», «Yusuf qissasi» singari badiiy asarlar qolgan.

1037-yil. Hamadon shahrida vafot etdi.

1952-yil 18-avgust. Jahon jamoatchiligi Ibn Sinoning 1000-yilligini nishonladi.

Ibn Sino haqida:

— pyesalar, roman, qissa, kinofilm yaratildi.

Ibn Sino nomida:

— o'quv yurtlari, kutubxonalar, xo'jalik, ko'chalar bor.

973-yil 4-sentabr. Xorazmning Kat shahri yaqinida Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy tug'ildi. Beruniy astronomiya,

geologiya, farmakologiya, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va she'riyat bilan shug'ullangan.

Beruniy 150 tacha asar yaratgan. Ular orasida «O'tmish ajdodlardan qolgan yodgorliklar», «Astronomiya kaliti», «Ma'sud jadvali», «Hindiston», «Saydana» singarilari mashhurdir. Unsuriyning «Shodbahr va Aynulhay», «Xingbut va Surxbut» dostonlarini arab tiliga tarjima qilgan.

1048-yil. Beruniy vafot etdi.

1973-yil. Jahon jamoatchiligi Beruniyning 1000 yilligini nishonladi.

Beruniy haqida:

— Uyg'unning pyesasi bor.

Beruniy nomida:

- Respublika Davlat mukofoti;
- Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti;
- Toshkent texnika universiteti;
- Toshkentda ko'cha va maydon;
- Namanganda sohil;
- Maktablar, kutubxonalar, jamoa xo'jaligi bor.

MAHMUD KOSHG'ARIY

(XI asr)

XI asr. U hozirgi Koshg'arning O'pol mavzesida tug'ilgan. Taniqli sayyoh va tilshunos, folklorshunos olim. Bir necha yil O'pol madrasasida mudarrislik qilgan. U «Turkiy tillarning sintaksisi» va «Devonu lug'otit-turk» nomli asarlar yozgan. Biroq bulardan birinchisi hozirgacha topilgan emas. Olim 1126-yili 97 yoshda O'polda vafot etgan.

1073-yil. «Devonu lug'otit-turk» («Turkiy so'zlar devoni») kitobi yozib bitkazildi. Asar turkiy tillar tarixini o'rganish bilan birga eng qadimgi she'riyatimizni bilishda yagona manba hisoblanadi.

1960—1964-yillar. «Devonu lug'otit-turk» asari S. Mutallibov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, Toshkentda bosib chiqarildi.

YUSUF XOS HOJIB

(XI asr)

Taxminan 1019—1020-yillar. Atoqli shoir, donishmand va davlat arbobi Yusuf Xos Hojib Balasog'unda tug'ildi. Uning

yoshligi, qayerlarda o'qigani to'g'risida ma'lumotlar etib kelmagan. Vafot etgan yili ham noma'lum.

1069—70-yillar. Uning «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'lovchi bilim») nomli she'riy didaktik asari Koshg'arda yaratildi. Hozirgacha bu kitobning faqat uchta qo'lyozmasi yetib kelgan. Bular «Vena» (yoki «Hitot»), «Qohira» va «Namangan» nusxalari deb yuritiladi.

1913-yil. «Namangan» nusxasi topilgan. U namanganlik Muhammadhoji Eshon Lolarish shaxsiy kutubxonasidan olingan. Hozir bu qo'lyozma Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida saqlanadi.

1071-yil. Koshg'ar xoni Tavg'och Bug'raxon shoirga Xos Hوجبlik (eshik og'asi) lavozimini beradi.

1928-yil. Kitobning ayrim parchalari bizda birinchi marta professor Fitrat tomonidan e'lon qilindi.

1971-yil. «Qutadg'u bilig»ning to'la matni alohida kitob holida Toshkentda e'lon qilindi. Q. Karimov hamda B. To'xliyevlar u haqda tadqiqotlar yaratdilar.

AHMAD YUGNAKIY

(XII asr oxiri — XIII asr boshlari)

XII asr oxiri va XIII asr boshlari. Iste'dodli shoir va donishmand murabbiy Ahmad Yugnakiy yashab ijod etdi.

1480-yil 30 yanvar. Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar kaliti») asari ko'chirilgan. Bizgacha shu va boshqa nusxalari etib kelgan. Kotibi — istambullik Abdurazzoq Baxshi bo'lib, asar qadimgi uyg'ur yozuvida bitilgan. Arab yozuvida izohlari bor.

1951-yil. Arat Rahmatiy tomonidan Istanbulda birinchi marta «Hibat ul-haqoyiq» nashr qilindi.

1971-yil. Kitob O'zbekistonda birinchi marta to'laligacha Qozoqboy Mahmudov tomonidan nashr etildi. U haqda Qozoqboy Mahmudov va G. Xo'janovalar tadqiqot yaratganlar.

AHMAD YASSAVIY

(XII asr)

XII asr. O'zbek falsafiy she'riyatining buyuk namoyandasi. Sharqning ulug' faylasufi, sufiy shoir Ahmad Yassaviy yashab ijod qildi. U hozirgi Qozog'istonning Turkiston muzofotiga qarashli

Sayram shahrida tug'ilgan. U Samarqand, Buxoro shaharlarida ta'lim olgan. Undan umri davomida yozgan «Hikmatlar» deb atalgan majmuasi qolgan. Bu kitob o'tmishda juda ko'p marta bosilgan.

1166-yil. Ahmad Yassaviy vafot etdi.

XV asr. «Hikmatlar»ning eng qadimiy qo'lyozmasi ko'chirilgan.

XIX asr. «Devoni hikmat»ning bosma nusxalari paydo bo'ldi.

1991-yil. «Devoni hikmat» bizning davrimizda birinchi marta to'laligicha bosmadan chiqdi. Uni Ibrohim Haqqulov nashrga tayyorlagan.

III BOB. XIII—XIV ASRLAR ADABIYOTI

XIII asr oxiri. Mo'g'ullar istilosining dahshatli oqibatlariga haqida qo'shiqlar va «Guldursun» nomli afsona yaratildi.

1233-yil. Qul Ali nomli shoir tomonidan turkiy tilda «Qissasi Yusuf» dostoni yozildi. Keyinchalik bu syujet o'zbek va boshqa turkiy xalqlar adabiyotida keng tarqaldi.

NOSIRIDDIN BURHONIDDIN O'G'LI RABG'UZIY

(XIII asrning oxiri — XIV asrning boshi)

XIII asrning oxiri va XIV asrning boshi. Xorazmning Raboti o'g'uz mavzesida qadimgi o'zbek nasrining ilk vakili Rabg'uziy tug'ildi va o'sha yerda yashab ijod qildi. Umr bo'yi qozilik qildi.

1311-yil. Rabg'uziyning bizgacha yetib kelgan yagona asari «Qissai Rabg'uziy» (yoki «Qissasul-anbiyo») yozildi. Kitob qisman nazm aralash qissa va hikoyatlardan iborat.

XV asr. Kitobning bizgacha yetib kelgan eng qadimiy qo'lyozmasi ko'chirildi. Hozir bu qo'lyozma Londonda saqlanadi.

XVI asr. Kitobning shu asrda ko'chirilgan nusxasi Sankt-Peterburg Davlat kutubxonasida saqlanadi.

1992-yil. Bizning davrimizda kitob birinchi marta to'laligicha 2 jildda Toshkentda nashr qilindi.

PAHLAVON MAHMUD

(XIII asrning oxiri — XIV asrning boshlari)

XIII asrning oxiri va XIV asrning boshlari Xorazmda ulug' mutafakkir va shoir Pahlavon Mahmud yashab ijod qildi. Uning ikkinchi taxallusi Qitoliy edi.

1247-yil. Shoir Xiva yaqinida tug'ildi.

1326-yil. Pahlavon Mahmud vafot etdi.

Undan bizga ko'plab ruboiylar, «Qanzul haqoyiq» risolasi qolgan. Uning ruboiylari forsiy tilida yaratilgan bo'lib, shakli va mazmuni jihatidan ulug' Xayyom ruboiylarini eslatadi. Shoir ruboiylari bizning davrimizda birinchi daf'a 1963-yilda, so'ngra esa ko'p marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. U haqda T. Jalolov hamda J. Mahmudovlar tadqiqot yaratgan.

BADRIDDIN CHOCHIY

(1285—1345)

1285-yil. Toshkent (qadimgi Choch) shahrida tug'ildi.

1332—1333-yillar. Makka va Madina shaharlarini ziyorat qildi. Qaytishda Hindistonni tomosha qilish niyatida dengiz yo'li orqali u yerga keladi va To'g'luq Muhammad saroyida xizmat qilib qoladi.

1343—1344-yillar. Forsiy tilda g'azal, qasida va ruboiylardan iborat devon tuzadi. Keyinchalik «Badri Chochiy qasidalar sharhi» kitobi yaratilgan. Bundan tashqari ko'pgina olimlar bergan ma'lumotlarga qaraganda, Chochiy to'g'luqiylar sulolasi saltanatdorligi haqida 35 ming baytdan iborat «Shohnoma» yaratgan.

1345-yil. Chochiy vafot etdi.

Chochiy hayoti va ijodi hozircha yetarli darajada o'rganilgan emas va asarlari o'zbek tilida nashr qilinmagan. Shoir devoni domla Anisiy tomonidan o'zbek tiliga 1967-yili amalga oshirilgan tarjima qo'lyozma holicha qolib ketgan.

XORAZMIY

(XIII—XIV asr)

XIII asr oxiri yoki XIV asrning boshi. Ismi noma'lum, ammo tuxallusiga qaraganda, xorazmlik bo'lgan shoir Xorazmiy yashab ijod etdi.

1320-yildan keyin. Ancha vaqt chet ellarda sayohat qilgan.

1353-yil. Oltin O'rda zadagonlaridan Muhammad Xo'jabek huzuriga keladi.

Shuyilning qish faslida uning iltimosiga ko'ra, «Muhab-batnoma» nomli lirik kitobini yaratdi. Bu asar o'zbek adabiyoti tarixidagi noma janrida yozilgan birinchi liro-epik asardir. Ammo

uning tarkibida g'azal, hasbihol, masnaviy, fard singari janrlardagi she'rlar ham bor.

Bundan tashqari, Xorazmiyning bir g'azali ham yetib kelgan. Demak, shoir boshqa ko'p asarlar ham yozgan bo'lsa kerak. Ammo ular hozircha topilgani yo'q.

«Muhabbatnoma» ta'sirida Xo'jandiy «Latofatnoma», Amiriy «Dahnoma» (1429-yil) va Saidahmad ibn Mironshoh «Taashshuqnomaga» degan asarlar yozishdi.

1959-yil. «Muhabbatnoma» bizning davrimizda birinchi marta Toshkentda nashr etildi. Shu yili Moskvada ham bosib chiqarildi. U haqda S. Qosimov tadqiqot yaratgan.

QUTB

(XIV asr)

XIV asr. Iqtidorli shoir va tarjimon Qutb Xorazmda tug'ildi. Tug'ilgan va vafot etgan yillari aniq emas.

1340-yil. Oltin O'rdaning poytaxti Saroy shahriga boradi. Bu yerda u ulug' ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141—1209-yillar) tomonidan yaratilgan «Xisrav va Shirin» (1180-y) dostonini o'zbek tiliga erkin tarjima qiladi. Ayrim olimlar asar 1330—1335-yillari tarjima qilingan, deb hisoblaydilar.

Tarjima Oltin O'rda shahzodasi Tinibekka bag'ishlangan.

1914-yil. «Xisrav va Shirin» ning 1383—1384-yillarda Misrning Iskandariya shahrida Berkafaqih ibni Qondud ibn Edgu Qipchoqiy tomonidan ko'chirilgan yagona nusxasi topildi. Bu nusxa hozir Parij milliy kutubxonasida saqlanadi. Tarjimadan parchalar bizning davrimizda turli to'plamlarda e'lon qilingan.

1973-yil. Tarjima to'laligicha «Xorazm yodnomalari» to'plamida Toshkentda bosib chiqarildi. Uni E. Fozilov nashrga hozirlagan.

SAYFI SAROYI

(1326—1398)

1326-yil. Hozirgi Xorazm viloyatining Sariqamish qishlog'ida tug'ilgan. Keyin Oltin O'rdaning Saroy shahriga kelgan va shu yerda yashab ijod qilgan. Keyinchalik Misrga borib, umrining oxirigacha shu yerda muqim yashagan.

1390—1391-yillar. Ulug' fors-tojik shoiri Sa'diy (1184—1292-

yillar)ning «Guliston» (1254-yil) asarini «Gulistoni bit-turkiy» nomida turkchaga tarjima qildi.

1394-yil. «Suhayl va Guldursun» dostonini yozdi.

1396-yil. Sayfi Saroyi vafot etdi.

1398-yil. Misrda Abdul ibn Qodir degan kishi Oltin O'rdada yashab ijod etgan bir guruh turkiyzabon shoirlar she'rlarini ko'chirib kitob qildi. Bular orasida Sayfi Saroyining asarlari ham bor. Bu qo'lyozma Farg'ona viloyatidagi O'zbekiston tumanida yashovchi Kamolxon Sultonovning shaxsiy kutubxonasidan topilgan. Hozir Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida saqlanadi.

1968-yil. Shoiming «She'rlar. Guliston» nomli kitobi Toshkentda nashr qilindi. U haqda Nasrullo Davron tadqiqot yaratgan.

IV B O B. XV ASRNING BIRINCHI YARMIDAGI ADABIYOT

DURBEK

(XIV—XV asr)

XIV asr oxiri va XV asr boshlari. «Yusuf va Zulayho» nomli sevgi haqidagi dostonning muallifi Durbek yashab ijod etdi.

1409-yil. «Yusuf va Zulayho» dostoni yozildi. Asar Balx qamali kunlarida bitilgan.

1959-yil. Doston birinchi marta to'raligicha Toshkentda bosildi.

1987-yil. Doston sujjeti asosida shoir H. Sa'dulla «Yusuf va Zulayho» nomli musiqali drama yaratdi. «Yusuf va Zulayho» muallifi xususidagi bahs yakunlanmaganicha qolib ketdi.

HAYDAR XORAZMIY

(XIV—XV asr)

XIV asrning oxiri va XV asr boshlari. Ikki tilli shoir, ko'plab lirik she'rlar va «Maxzanul-asror» nomli doston muallifi Haydar Xorazmiy yashab ijod etdi.

1409—1414-yillar. «Maxzanul-asror» dostoni yozildi. Doston sujjeti Nizomiy Ganjaviyning shu nomda atalgan dostoni (1170-yil) dan olingan. Ammo tarjima emas, balki original asar bo'lib,

639 baytdan iborat. Keyingi tadqiqotlar natijasida asarning «Gulshan ul-asror» deb nomlanishi aniqlandi.

1508-1509-yillar. «Gulshan ul-asror» ning ilk nusxasi Hirotida ko'chirildi. Bu nusxa hozir Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

1858-yil. Doston Qozonda birinchi marta nashr qilindi. Davrimizda uning ayrim parchalari turli to'plam va xrestomatiyalarda bosildi, xolos. Keyingi tadqiqotlar «Gul va Navro'z» dostoni ham Haydar Xorazmiy qalamiga mansub ekanligini tasdiqladi.

ATOIY

(XV asrning birinchi yarmi)

XV asrning birinchi yarmi. Balx shahrida tug'ilgan. Ismi ma'lum emas. Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo'lib, yetuk lirik shoir edi. Qancha yil umr ko'rganligi ma'lum emas. Hirotida o'qib, zamonasining nihoyatda bilimdon kishisi bo'lib yetishgan. Ma'lum muddat Mirzo Ulug'bek saroyida xizmat qilgan.

Undan ko'plab lirik she'rlardan iborat devon meros qolgan. Shoir devonining yagona nomukammal qo'lyozmasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanmoqda. Unda 260 ta g'azal bor.

1994-yil. Bizning davrimizda Atoiy devoni to'la holda birinchi marta Toshkentda chop etildi. Bundan tashqari, uning she'rlari turli to'plamlarda ko'p marta nashr qilingan.

SAKKOKIY

(XV asr)

XV asr. O'zbek adabiyoti tarixidagi qasidachilikning asoschisi va yirik g'azalgo'y Sakkokiy Samarqandda yashab ijod qildi. Taxallusiga qaraganda, u hunarmand (pichoqchi) oilasidan bo'lsa kerak.

XV asrning 40-yillari. Sakkokiy Mirzo Ulug'bek (1409—1449-yillar) saroyida xizmat qilgan. Ulug'bek fojiasidan (1449) oldinroq vafot etgan bo'lsa kerak. Undan bizgacha qator g'azallar va 11 ta qasida meros qolgan.

XVI asr. Shoirning Britaniya muzeyida saqlanayotgan qimmatbaho qo'lyozmasi ko'chirilgan.

1937-yil. Toshkentda Shoislom kotib bizga noma'lum bo'lib kelayotgan qandaydir manbadan shoir devonini ko'chirgan. Bu nusxa O'zFAning Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Sakkoki qasidalari Ulug'bek, Xalil Sulton, Xoja Muhammad Porso va Arslon Xoja Tarxon singari tarixiy shaxslarga bag'ishlangan. Bizning davrimizda uning asarlari ko'plab to'plamlarda va alohida kitob holida nashr qilingan.

HOFIZ XORAZMIY

(XIII—XIV asr)

Abdurahim Xorazmiy XIII asrning oxiri XIV asrning birinchi choragida yashab ijod etgan o'zbek shoiridir. U Xorazmda tug'ilib, umrining oxirgi yillarini temuriyzodalardan Ibrohim Sulton saroyida o'tkazgan.

70-yillargacha Hofizning merosi ma'lum emasdi. Mashhur olim, filologiya fanlari doktori, professor Hamid Sulaymonov Hindistonning Haydarobod shahridan shoirming devonini topib nashr ettirdi (1981). Ma'lum bo'lishicha, Hofiz Xorazmiy zamondoshi Hofiz Sheroziyga ergashib lirik turning to'qqiz janrida asarlar yozgan, qasida, marsiyalar bitgan. 18 ming misradan iborat bu she'rlarida Hofiz Xorazmiy dunyoviy hamda ilohiy muhabbatni o'ziga xos soz va ovozda kuylagan. Shoir merosi hali atroflicha tahlil qilinmagan.

LUTFIY

(1366—1465)

1366-yil. Hirot shahri yaqinidagi Dehikanor degan joyda, Navoiy ta'rifi bilan aytganda, «O'z zamonining molikul-kalomi» buyuk lirik shoir Lutfiy tavvalud topdi. Uning ismi noma'lum.

Turli janrlarda o'zbek va tojik tillarida lirik she'rlar yaratdi.

1425-yil. Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» nomli tarix kitobini o'zbek tilida she'r bilan yozib chiqdi. Bu kitob haqida Alisher Navoiy ma'lumot bergan. Tarjima hanuzgacha topilgan emas.

1465-yil. Lutfiy Hirotida vafot etdi. Uning qabri Dehikanor xiyobonidadir.

Lutfiy she'rlar devonining ko'plab nusxalari chet el kutubxonalarini, muzeylari va O'zbekistonda mavjud.

1966-yil. Lutfiy devoni Toshkentda to'la holda nashr etildi. U haqda S. Erkinov hamda E. Ahmadxo'jayevlar tadqiqot yaratgan.

V B O B. XV ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI ASR ADABIYOTI

HUSAYNIY

(1438—1506)

1438-yil. Husayniy—Husayn Boyqaro Hirot da zadagon oilada dunyoga keladi. Otasi G'iyosiddin Mansur Mirzo ham, onasi Feruza begim ham Amir Temur avlodidan bo'lgan.

1445—51-yillar. Husayn Boyqaro maktab va madrasalarda tahsil ko'radi.

1452-yil. Husayn Boyqaro Xuroson hokimi Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga o'tadi.

1457—1468-yillar. Husayn Marv, Jom va Mohan viloyatlari hokimi Sanjar Mirzo huzurida bo'ladi.

1469-yil. Mart oyida Abusayid Mirzo vafotidan so'ng Hirot ni egallaydi. Xuroson davlatini 38-yil qattiqqo'llik bilan boshqaradi.

1506-yil. Husayn Boyqaro yurak xastaligidan vafot etadi. Uning 13 ta qizi, 14 o'g'li bo'lgan.

«Husayniy» taxallusi bilan g'azallar bitgan. Navoiy haqida ilmiy risola yozgan.

Husayniy zamonida Hirot shahri adabiyot, ilm-fan o'chog'iga, chinakam madaniy qurilishlar markaziga aylanadi.

ALISHER NAVOIY

(1441—1501)

1441-yil 9-fevral O'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi va quyoshi, adabiy tilimizni kamolotga yetkazgan Amir Nizomiddin Alisher ibn G'iyosiddin Navoiy Hirot shahrida temuriylar xonadoni amirlaridan bo'lmish G'iyosiddin Kichkina oilasida tavallud topdi.

1445-yil. Maktabga bora boshladi. Maktabda u bo'lajak podsho Husayn Boyqaro bilan birga o'qidi va u bilan umrbod do'stlashdi.

1447-yil. Ota-onasi bilan Iroqqa ko'chdi. Yo'lda XV asrning buyuk tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashdi va uning duosiga musharraf bo'ldi.

1449-yil. Oila Taftdan Hirotga qaytib keladi va Alisher yana o'qishni davom ettiradi.

1452—1457-yillar. Otasi Abulqosim Bobur saroyida xizmat qiladi. Uni podsho Sabzavor shahriga hokim qilib jo'natadi.

1456-yil. Alisher Mashhadga o'qishga ketadi.

1457-yil. Abulqosim Bobur vafot etadi. Abusaid Mirzo Hirot taxtini egallaydi. Alisherni saroyga ishga oladi.

1459-yil. Navoiy Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Bu tanishuv buyuk do'stlikka aylanadi va umrbod davom etadi. Navoiyning Husayn bilan do'stligidan cho'chigan Abusaid shoirni Samarqandga jo'natadi.

1467—1469-yillar. Navoiy Samarqandda o'qidi. Bu yerda u mashhur olim Fazlulloh Abullays va boshqa yetuk donishmandlar qo'lida ta'lim oldi. Zamonasining juda ko'p olimlari, shoirlar, musiqachilar, me'morlari va san'atning boshqa turlari vakillari bilan tanishadi.

1469-yilning boshi. Hirot taxtini Husayn Boyqaro egalladi.

1469-yilning apreli. Husayn Boyqaro taklifiga binoan Navoiy Hirotga qaytdi. Uni podsho muhrdor etib tayinladi.

1472-yil. Navoiy amir (vazir) etib tayinlandi. Navoiy vazirlikdan iste'fo berdi. Endi u davlat ishlaridan yiroqda astoydil badiiy ijod bilan shug'ullana boshladi.

1483—1485-yillar Navoiy quyidagi dostonlarni o'z ichiga olgan buyuk «Xamsa» asarini yaratdi:

«Hayratul-abror» — 1483-yil;

«Farhod va Shirin» — 1484-yil;

«Layli va Majnun» — 1484-yil;

«Sab'ai sayyor» — 1485-yil;

«Saddi Iskandariy» — 1485-yil.

1487-yil. Husayn Navoiyni Astrobod shahriga hokim qilib tayinladi.

1489-yil. Shoir Astrobodda ikki yil ishlagach, Hirotga qaytdi.

1492-yil. Jomiy vafot etdi.

1488—1501-yillar. Bu yillar davomida Navoiy quyidagi asarlarni yaratdi:

1. «Tarixi muluki Ajam» —1488-yil.
2. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher»—1490-yil.
3. «Risolai muammo»—1491-yil.
4. «Majolis un-nafois»—1491—93-yillar.
5. «Xamsat ul-mutahayyirin» —1492—94-yillar.
6. «Munshaot» —1492-yil.
7. «Mezon ul-avzon» —1492-yil.
8. «Holoti Pahlavon Muhammad»—1496-yil.
9. «Nasoyim ul-muhabbat»—1496-yil.
10. «Xazoyin ul-maoniy»—1491—1499-yillar.
11. «G‘aroyib us-sig‘ar».
12. «Navodir ush-shabob».
13. «Badoyi ul-vasat».
14. «Favoyid ul-kibor».
15. «Devoni Foni»—1491—1498-yillar.
16. «Lison ut-tayr»—1498—1499-yillar.
17. «Muhokamat ul-lug‘atayn»—1498—1499-yillar.
18. «Mahbub ul-qulub»—1500-yil.

Bulardan tashqari, quyidagi diniy-axloqiy asarlarni ham yozgan:

1. «Nazm ul-javohir»—1485-yil.
2. «Tarixi anbiyo va hukamo»—1488-yil.
3. «Siroj ul-muslimin»—1488-yil.

1501-yil 3-yanvar. Buyuk Navoiy dunyoni tark etdi. Husayn Boyqaro buyrug‘iga ko‘ra, butun mamlakatda motam e‘lon qilindi. Ko‘plab shoirlar Navoiy vafoti munosabati bilan marsiyalar, tarixlar yaratdilar. Dafn egasi, deb Husayn Boyqaro e‘lon qilindi. Shuning uchun barcha o‘z ta‘ziasini Husaynga izhor qildi. Hamma marosimlarga podsho bosh bo‘ldi.

1941-yil. O‘zbekiston hukumatining qaroriga binoan, Navoiyning 500-yillik yubileyi o‘tkazilishi kerak edi. Biroq Ikkinchi jahon urushi boshlanib qolgani uchun yubiley urushdan keyinga qoldirildi. Bu qarordan bexabar qolgan sankt-peterburglik olimlar qurshov sharoitida Navoiy yubileyini nishonladilar.

1948-yil. Jahonda ulug‘ shoirning 500 yillik yubileyi nishonlandi.

1968-yil. Navoiyning 525 yilligi nishonlandi. Har yili 9-fevral Navoiy kuni, deb e‘lon qilingan. Shu kuni oliy o‘quv yurtlari, Navoiy nomidagi Til va Adabiyot ilmiy tadqiqot instituti, Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi va boshqa joylarda Navoiyga

bag'ishlangan ilmiy-nazariy konferensiyalar, adabiy kechalar o'tkaziladi. Vaqtli matbuotda, radio va televideniya Navoiyga bag'ishlangan chiqishlar, eshittirish va ko'rsatuvlar uyushtiriladi.

Navoiy nomida:

Respublika milliy kutubxonasi;

O'zbekiston Davlat adabiyot muzeyi;

Respublika milliy bog'i;

Respublika Opera va balet teatri;

Samarqand Davlat Universiteti;

Ko'plab ko'chalar, maktablar, jamoa xo'jaliklari, dam olish bog'lari, kutubxonalar, oliy o'quv yurtlarida stipendiyalar.

Navoiy haqida yaratilgan muhim badiiy asarlar:

Oybek. «Navoiy» romani.

Oybek. «Guli va Navoiy» dostoni.

Oybek. «Alisherning yoshligi» qissasi.

Uyg'un va Izzat Sulton. «Alisher Navoiy» pyesasi.

Uyg'un va Izzat Sulton. «Alisher Navoiy» filmi.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483—1530)

1483-yil 14-fevral. Taniqli davlat arbobi, iqtidorli lashkarboshi, ajoyib lirik shoir va adabiyot nazariyotchisi, o'z davrining buyuk tarixchisi va nasr ustasi Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon shahrida temuriy zoda podsho Umarshayx Mirzo oilasida dunyoga keldi.


1494-yilning iyuni. Fojiali halok bo'lgan otasining o'rniga 12 yoshli Bobur taxtga o'tirdi. Shu kundan boshlaboq, u o'z ulug' bobosi Amir Temurning buyuk davlatini qayta tiklash va mustahkamlashni maqsad qilib qo'ydi.

1497-yil noyabr. Bobosi Temurning poytaxti bo'lgan Samarqandga hujum qiladi va uni egallaydi. Ammo yuz kundan so'ng Andijonni qo'ldan chiqarmaslik uchun bu yerni tashlab ketishga majbur bo'ladi.

1498-yil fevral. O'zini Andijon hokimi, deb e'lon qilgan Uzun Hasan Boburni shaharga kiritmaydi. Bobur madad izlab tog'asi Sulton Mahmud oldiga — Toshkentga keladi.

1501 — 1502-yillar. Tog'asi yordamida Andijonni egallaydi.

1503-yil. Andijonni Shayboniy zabt etadi.



1504-yil. 300 nafarga yaqin yigiti bilan Bobur Kobul ulusiga jo'naydi. Tez orada o'sha yerga podsho bo'ladi.

1505-yil. Onasi Qutlug' Nigorxonim vafot etadi.

1512-yil. Bobur Samarqandga hujum qilib, uni egallaydi.

1513-yil. Shayboniy sulolasidan bo'lgan Ubaydullo Sulton va Muhammad Temur Sulton Samarqandga qarshi yurish boshladilar. Bu urushda Bobur yengildi va Samarqandni tashlab, Hisorga qochdi. Shundan so'ng u bobosi yurtini egallash va davlatini tiklash umididan voz kechdi. Endi Bobur afg'on yerida ilm-fan, madaniyat, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga, mamlakat osoyishtaligiga katta e'tibor qildi. Ayni zamonda afg'on mulkidagi davlatni janub va Hindiston hisobiga kengaytirish rejalarini tuza boshladi.

1519-yil. Bobur o'z lirik she'rlarini to'plab, Kobulda birinchi devonini tartib berdi. «Parij devoni» nomi bilan mashhurdir.

1519—1525-yillar. Hindistondagi o'zaro kelishmovchiliklardan foydalanib Bobur 5 marta yurish qildi va oxiri Hindistonni batamom bo'ysindirdi.

1526-yil 27-aprel. Bobur Hindistonning hokimi mutlaqi, deb e'lon qilindi va hamma joyda uning podsholigi tan olindi. U Agra shahrini o'ziga poytaxt qildi. Mamlakatda tinchlik o'rnatib, obodonchilikka, madaniyat rivojiga katta e'tibor berdi.

1528—1529-yillar. Bobur Hindistonda ikkinchi she'rlar devonini tuzdi — «Hind devoni» Hindistonda saqlanmoqda.

1530-yil 26-dekabr. Bobur Agrada vafot etdi.

1533-yil. Bobur vasiyatiga ko'ra, uning xoki Kobulga ko'chirildi va uning o'zi barpo qilgan bog'da qurilgan maqbaraga dafn qilindi. Hozir ham Bobur qabri o'sha joyda.

Ijodiy merosi:

Lirik she'rlar yozdi.

Kundalik daftar yuritib, ular asosida mashhur «Boburnoma» nomli memuar asarni yaratdi. Unda 1499—1529-yillar voqealari tasvirlangan.

«Xatti Boburiy» deb atalgan alifbeni yaratgan (1503—1504-yil).

Aruz nazariyasi haqida «Mufassal» risolasi (taxm. 1525-y) ni yozdi.

Bulardan tashqari «Musiqiy ilmi», «Mubayyin», «Volidiya» kabi musiqa, huquq va falsafaga doir asarlar yozgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomida:
Namangan shahridagi madaniyat va istirohat bog'i;
Namanganda shoh ko'cha;
To'raqo'rg'onda kinoteatr;
Uychida Bobur nomida jamoa xo'jaligi;
Andijonda kutubxona va ko'cha;
Toshkentda Bobur bog'i va ko'cha;
Respublikamizda maktab, o'quv yurtlari, xo'jaliklar,
kutubxonalar, stipendiyalar mavjud.

MUHAMMAD SOLIH

(1455—1534)

1455-yil. Adabiyotimizning ulkan namoyandasi Muhammad Solih Xorazmda tug'ildi. Otasi Nur Saidbek temuriylar saroyidagi nufuzli kishilardan edi. Keyinchalik ancha vaqt hokimlik qilgan.

1476-yil. Hirotga keladi va Abdurahmon Jomiy xonadonida yashab, madrasada tahsil ko'radi. She'r ilmini u Jomiydan o'rganadi.

1479-yil. Husayn Boyqaro Xorazmni bosib olib, Nur Saidbekni asir qiladi va Hirotga keltirib, zindonga tashlaydi. Biroq Jomiyning iltimosiga ko'ra, uni ozod etib, Marvga hokim etib tayinlaydi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, Nur Saidbek Boyqaro buyrug'i bilan qatl qilinadi.

1499-yil. Muhammad Solih Mullo Abdurahim degan amaldorning maslahati bilan temuriylar saroyini tark etadi va Shayboniyxon huzuriga keladi.

1500-yil. Shayboniyxon uni Buxoroning vaqtincha hokimi etib tayinladi.

1505-yilning oxiri. Shayboniyxon shoirmi Ashxobod yaqinidagi Niso shahri hokim qilib tayinlaydi. Bu yerda u 1511-yilgacha turadi.

1511—1534-yillar. Muhammad Solih Buxoroda yashadi va shu yerda vafot etdi.

Adabiy merosi:

Lirik she'rlar yaratdi. Biroq devon tuzmagani uchunmi yoki boshqa sababdanmi, ular bizgacha yaxlit holda yetib kelmagan. Uning she'rlaridan parcha va namunalarni o'sha davrlarda yaratilgan turli-tuman tazkiralari, tarixiy asarlar va bayozlarda uchratish mumkin.

1506—1507-yillar. Shayboniyxon olib borgan urushlar haqida «Shayboniyнома» tarixiy dostonini yaratdi. Vosifiyning «Badoye' ul-vaqoye'» asarida shoirning bir turkiycha ruboiysi keltirilgan.

1510-yil. «Shayboniyнома» Qosim Ali nomli xattot tomonidan ko'chirilgan. Bu qo'lyozma hozir Vena shahrida saqlanadi.

1961-yil. O'zbekistonda birinchi marta «Shayboniyнома» to'laligicha nashr qilindi.

MAJLISIIY

(XV—XVI asr)

XV asr oxiri va XVI asr o'rtalari. Majlisiiy Xorazmda tug'ildi. Ismi ma'lum emas. O'qish uchun Buxoroga keldi. Undan bizgacha yozilgan yili noma'lum bo'lgan «Qissai Sayfulmuluk» nomli doston qolgan. Bu asar ishqiy sarguzasht qissa bo'lib, ilm-adab ahli orasida keng shuhrat tutgan. Fors va qozoq tillarida nasriy «Sayfulmuluk qissasi» mavjud.

1959-yil. Doston birinchi marta to'laligicha nashr etildi.

U haqda B. Namedov risola bitgan.

XOJA

(1480—1566)

1480-yil. Asli ismi Ibodullo Sayyid Podshoxoja binni Abdulvahhob xoja bo'lib, Xoja taxallusi bilan badiiy asarlar yaratgan taniqli o'zbek shoiri va adibi tavallud topgan. Hozircha uning tug'ilgan joyi haqida aniq ma'lumot yo'q. Uning ota-bobolari mansabdor shaxslar, aka-ukalari zamonasida ancha taniqli shoirlar bo'lishgan. Xojaning o'zi ancha vaqt Balx shahrida yashagan, o'qigan va ishlagan.

Xoja Balxda sadr (soliq ishlar noziri), keyinchalik shayxul-islomlik vazifalarini bajargan.

Xoja she'rlar yozgan. U ikki tilda — o'zbek va tojik tillarida asarlar yaratgan. Ma'lumotlarga qaraganda, u o'zbek va tojik tillarida devonlar tuzgan. Ammo ular bizgacha etib kelmagan.

1538—1539-yillar. Xoja tomonidan «Gulzor» va «Miftoh ul-adl» («Adolat kaliti») nomli asarlar yaratildi. Bu asarlarda buyuk Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlariga o'xshash didaktik (pand-nasihati) g'oyalari ifodalangan.

1538-yil. «Mahzan ul-asror» nomli dostoni yozilgan.

1566-yil. Xoja vafot etdi.

1962-yil. Xojaning «Gulzor» va «Miftoh ul-adl» asarlari O'zbekistonda birinchi marta e'lon qilindi.

1975-yil. Xojaning shu vaqtga qadar noma'lum bo'lib kelayotgan «Gulshan ul-asror» nomli dostoning qo'lyozmasi topildi. Ma'lum bo'lishicha, bu asar buyuk Nizomiyning «Maxzan ul-asror» dostoniga tatabbu' (javob) tariqasida yozilgan ekan. U haqda M. Mirzaahmedovanning risolasi mavjud.

VI B O B. XVII—XVIII ASRLAR ADABIYOTI

ABULG'OZIY BAHODIRXON

(1603—1664)

1603-yil 23-avgust. Taniqli davlat arbobi, iqtidorli tarixchi, Xiva xoni Abdulg'ozii tug'ildi.

1661-yil. Uning «Shajarai tarokima» («Turkmanlar shajarasi») asari yozildi.

1664-yil. «Shajarai turk» («Turk (o'zbek) shajarasi») asari yozildi.

1664-yil aprel. Abulg'ozii Bahodirxon vafot etdi.

1992-yil. «Shajarai turk» O'zbekistonda birinchi marta to'la holda bosildi. «Shajarai tarokima» rus tiliga tarjima qilingan. U haqda X. Xudoynazarov risola yozgan.

BOBORAHIM MASHRAB

(1640—1711)

1640-yil. Boborahim Valibobo o'g'li Mashrab Namangan shahrida bo'zchi oilasida tug'ildi.

1647-yil. Namangandagi Mulla Bozor Oxund madrasasiga o'qishga berildi.

Hozir bu madrasa buzilib ketgan. Madrasa hovlisida Mulla Bozor Oxundning qabri hozirgacha saqlanib qolgan. Madrasa hozirgi Oxunboboyev ko'chasi bilan Beruniy sohili kesishgan joyda bo'lgan.

1665-yil. Mashrab Koshg'arga — Ofoq Xoja huzuriga o'qishga ketadi.

1673-yil. Ofoq Xoja tomonidan qattiq jismoniy jazolanadi va uning dargohidan quviladi. Mashrab onasining oldiga Namanganga qaytib keladi.

1711-yil. Shu yilga qadar Mashrab O'rtasiyo, Kavkaz, Eron, Afg'oniston kabi o'lkalarni kezdi. Nihoyat, Balxga kelganda, ulamolarning fatvosi bilan Balx hokimi Mahmud Qatag'on shoimi dorga osib qatl qiladi. Mashrabning qabri Qunduzda.

Mashrab lirik she'rlar bitgan. Uning lirikasi o'zbek tilidagi falsafiy she'riyatning eng bokira namunalari. Bundan tashqari, Mashrab, «Mabdai nur» (Nurning boshlanishi) nomli lirik-falsafiy kitob ham yaratgan. Uzoq yillar bu asar Mashrabniki emas, degan fikr hukmron edi. Biroq bu masala hozir uzil-kesil hal qilingan. Mashrab o'z she'riyatida «Mashrab» taxallusidan tashqari «Rind», «Umam» va boshqa taxalluslarni ham ishlatgan.

Taxminan 1720—1721-yillar. «Devonai Mashrab» deb atalgan manoqib (biografik asar) yaratilgan. Uning muallifi Pirmast Setoriy deb taxmin qilinadi. Mashrabning lirik merosi, asosan, mana shu asar orqali bizga yetib kelgan. Biroq boshqa turli kitoblarda ham shoirning ayrim she'rlari uchrab turadi. Bizning davrimizda, xususan, 50-yillarning oxiridan boshlab shoirning turli katta-kichik to'plamlari e'lon qilindi.

1991-yil. Mashrab yubileyi munosabati bilan uning «Mehribonim qaydasan?» nomli to'plami bosib chiqarildi. Bu to'plam shu vaqtgacha e'lon qilingan barcha to'plamlarga qaraganda to'laroq va mukammalroq hisoblanadi.

1992-yil. Butun O'zbekistonda Mashrabning 350 yillik yubileyi keng nishonlandi. Yubiley tantanalari Namanganda barpo qilingan Mashrab nomidagi yangi bog'da boshlanib, Toshkentda ulkan tantana bilan yakunlandi.

Mashrab nomida:

Namangan shahrida kinoteatr;

Respublikadagi ikkinchi milliy bog' — Namanganda;

Namangan viloyat kitobsevarlar jamiyati va Namangan universiteti qoshidagi Tillar va eski o'zbek yozuvini o'rganish fakulteti ta'sis etgan mukofot;

Uning nomida maktablar, kutubxonalar, ko'chalar mavjud.

Hamid G'ulom shoir haqida «Mashrab» hamda «Isyon» romanlarini yozishgan. Shuhratning «Mashrab» qissasi tugallanmay qolgan.

TURDI (FAROG'IIY)

(XVII asr)

XVII asr. Taniqli o'zbek shoiri, iste'dodli hajvchi Turdi Buxoro yoki uning atroflarida tug'ildi. Tug'ilgan yili aniq emas.

1680-yil. Buxoro taxtiga Subhonqulixon o'tirdi. Turdi amaldorlikdan bo'shatildi va oddiy fuqarolardek umr kechira boshladi. Shu munosabat bilan u oddiy mehnatkashlarning qanday og'ir kun kechirayotganini yaxshi anglaydi va adolatsiz hukmdorlarni fosh etuvchi asarlar yoza boshladi.

1681-yil. Turdining mashhur «Subhonqulixon va uning amir amaldorlari haqida hajv» asari yozildi.

XVII asrning oxiri. Shoir umrining oxirigacha darbadarlikda yurdi. Toshkent, Xo'jand, Kishtut va O'rmetan kabi joylarni kezib, g'ariblikda olamdan o'tgan. Vafoti yili va qabri aniq emas. Turdining to'la devoni yoki asarlari to'plami topilgan emas.

Bizning davrimizda uning she'rlari turli to'plamlarda va alohida kitob holida bir necha marta bosilgan.

SO'FI OLLOHYOR

(1620—1720)

So'fi Ollohyor 1620-yili Samarqand yaqinidagi Minglar qishlog'ida ziyoli Olloquli xonadonida dunyoga kelgan. U boshlang'ich ta'limni mahalla masjidi huzuridagi maktabda olgach, Buxoroga borib jo'ybor shayxlari qo'lida tarbiyalanadi, oila quradi. Bir oz vaqt Buxoro bojxonasida ishlagan shoir uni tark etib, o'n ikki yil davomida Shayx Habibullo huzurida so'fizm ta'limotini o'rganadi.

Shundan so'ng, So'fi Ollohyor mashhur shoir, karomatgo'y shaxs sifatida shuhrat orttiradi. U ko'plab she'rlar, «Maslak ul-mutaqqin», «Najot ul-tolibin», «Siroj ul-ojizin», «Murod ul-orifin» singari ma'naviy risolalar yozadi. U 1720-yili Vaxshivorda vafot etgan.

So'fi Ollohyor islomiy ahkomlarga asoslanib, farz va sunnatlarni, komil inson g'oyasini badiiy adabiyot orqali g'oyatda mohirona targ'ib eta bilgan, so'fizm she'riyatini o'zbekona usulda xalqqa yanada yaqinlashtirgan, ommabop qilib yaratgan san'atkordir.

U haqda I. Suvonqulov tadqiqot yaratgan.

FAZLIY NAMANGONIY

(XVIII asr oxiri — 1822)

XVIII asr oxiri. Abdulkarim Fazliy Namangan shahrida tugʻilgan. Shu yerdagi madrasalardan birida oʻqigan. Soʻng Toʻraqoʻrgʻonda rasmiy vazifalarda ishlagan.

1810-yildan keyin. Fazliy shuhratli shoir darajasiga koʻtarilgan vaqtida Qoʻqon xoni Amir Umarxon uni poytaxtga oldirib ketadi. Bu yerda Fazliy tez orada «saromadi sheʼr» darajasiga koʻtarildi. Umarxon unga «malikush-shuaro» unvonini beradi.

1821-yildan oldin. Amir Umarxonning olib borgan urushlari va faoliyati haqida «Zafarnoma» degan tarixiy-sheʼriy asar yozgan. Biroq bu kitob emas.

1821-yil. Umarxon topshirigʻi bilan bir guruh ijodkorlar Fazliy rahbarligida «Majmuai shoiron» («Shoirlar toʻplami») deb atalgan qimmatbaho tazkirani yaratdi. Unda Qoʻqon xonligi hududida yashab ijod etayotgan 64 shoir haqida maʼlumotlar hamda ular asarlaridan namunalar berilgan. Bu tazkira, asosan, oʻzbek tilida, qisman tojik tilida yozilgan boʻlib, u oʻzbek adabiyotshunosligida yagona sheʼriy usulda yozilgan tazkiradir. Uning nodir qoʻlyozmasi OʻzFAning Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida saqlanadi. Bu kitob XIX asrning boshlarida Qoʻqon adabiy muhiti haqida eng ishonchli va moʻtabar maʼlumotlar beruvchi ilmiy koʻzgidir. Unda Gulxaniy, Maxmur, Hoziq, Gʻoziy, Akmal, Fazliy, Nodir — Uzlat va boshqa shoirlar haqida gʻoyat qimmatli maʼlumotlar bor. Afsuski, 1917-yilga qadar juda koʻp marta chop etilgan bu asar bizning davrimizda nashr etilmay kelayotir.

1822-yil. Umarxon vafot etdi. Shundan soʻng Fazliy Namanganga qaytdi va umrining oxirigacha shu joyda yashadi. Uning qachon vafot etgani maʼlum emas. Hozir Namanganda uning avlodlari hayot.

Fazliy ijodi:

Lirik sheʼrlar, qasidalar yozgan, uning devon tuzgani haqida maʼlumotlar boʻlsa-da, devoni hozirgacha topilgan emas. Baʼzi sheʼrlari «Majmuai shoiron» orqali etib kelgan. Shoʻrolar davrida Fazliy va uning ijodiga boʻlgan munosabat salbiy edi. Endi uning hayoti va ijodi bilan qiziqish boshlandi. Fazliy ijodini chuqur tadqiq qilish navbatdagi muhim vazifalardandir.

NODIR — UZLAT

(XVIII asr — XIX asr o'rtalari)

XVIII asrning 50-yillari. Muhammad Sharif Kosonsoyda tug'ildi. U Uzlat (Uzlatiy), Nodir (Nodiriy), Mahjur (Mahjuriy), Sharif (Sharifiy) taxalluslari bilan asar yozgan. Ammo Nodir va Uzlat taxalluslari mashhurroq. Fazliyning «Majmuai shoiron» asarida berilgan ma'lumotlariga ko'ra, 1821-yilda Nodir 70 yoshlarda bo'lgan.

1810-yil. Nodir Kosonsoyda yashagan va kotiblik qilgan.

1821—1822-yillar. Umarxon talabi bilan Qo'qonga kelgan va bu yerda yashab, ijod qilgan. Ayni zamonda Umarxon topshirig'iga ko'ra, saroy kutubxonasi uchun ko'plab kitoblarni ko'chirgan.

1822-yildan keyin. Kosonsoyga qaytib kelgan. Bu yerda Umarxon she'rlari to'plab devon holiga keltirgan. Undan bir necha nusxa ko'chirgan.

1848-yil. Shu yilda Nodir hayot edi. Shundan keyingi yillarda vafot etgan bo'lsa kerak.

Nodirning ijodiy merosi:

U ko'plab g'azallar, mustahzodlar, musammanlar, tarjibandlar, tarkibbandlar, ruboiylar yaratgan. O'zbek va tojik tillarida jami 13 ming misradan ziyod she'riy meros qoldirgan.

Taxminan 1822—1826-yillar. Nodiraga bag'ishlangan «Haft gulshan» dostonini yozdi. Asar Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostoniga o'xshash shaklda yozilgan. Dostonda yettita mustaqil she'riy qissa keltirilgan.

1910-yil. «Haft gulshan» Toshkentda bosildi va keng shuhrat tutdi.

1961-yil. «Haft gulshan» Toshkentda kirill yozuvida to'la nashr etildi.

1962-yil. Kosonsoyda Uzlatning o'z qo'li bilan ko'chirgan devoni topildi. Bu devon hozir Qo'qondagi G'afur G'ulom nomidagi adabiyot muzeyida saqlanadi.

MAXMUR

(XVIII asrning oxiri — XIX asr boshi)

XVIII asrning oxiri va XIX asr boshi. Taniqli o'zbek hajvchi shoiri Maxmur mashhur mudarris va xattot mulla Sher

Muhammad Akmal oilasida Qo‘qon shahrida tug‘ildi. Uning asli ismi Mahmud bo‘lib, Maxmur uning taxallusidir.

Maxmur Qo‘qondagi Madrasai Mirda o‘qigan. Yoshligidan adabiy muhitda tarbiyalangan. Kichkinaligidan she‘r ayta boshlagan.

Umr bo‘yi qashshoqlik iskanjasida yashagan, Hapalak qishlog‘ida dehqonchilik qilgan. Tojik va o‘zbek tillarida kuchli hajviy asarlar yozgan. Shu boisdan zamondosh zodagonlar uni juda yomon ko‘rishar va xorlik iskanjasiga muftalo qilishgan edi.

1844-yil. Maxmur vafot etdi. Uning qabri noma‘lum.

Maxmurning ijodiy merosi:

1950-yil. Uning 69 asarini o‘z ichiga olgan qo‘lyozma devoni topildi. Unda shoirning 3417 misra turli janrlarda yozilgan asarlari bo‘lib, hozir bu devon Toshkentda O‘zFANing Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida saqlanadi.

1951-yil. Maxmurning «Tanlangan asarlar»i Toshkentda nashr qilindi.

1956-yil. Aziz Qayumovning «Maxmur» nomli kitobi bosilib chiqdi. Unda shoiming bir qancha topilgan yangi she‘rlari ham e‘lon qilindi.

GULXANIY

(XVIII–XIX asr)

XVIII asrning oxirgi choragi. Atoqli hajvchi shoir, o‘zbek masalchiligining yirik vakili Muhammad Sharif Gulxaniy tog‘li Darvozda tug‘ildi. Ammo ayrim olimlar shoir Qo‘qonda tug‘ilgan, deb hisoblaydilar.

XIX asrning boshi. Gulxaniy Qo‘qonda o‘qiydi. Ayni vaqt o‘zining she‘rlari va askiyalari bilan shuhrat tobd. Shuning uchun bu baquvvat yigitni Qo‘qon amiri Olimxon navkarlikka oladi. Garchi shoir xon navkari bo‘lib xizmat qilsa-da, juda og‘ir iqtisodiy ahvolda yashadi. O‘zining mashhur «Hazratim, ochlikdan o‘ldim, yegali non ber menga», deb boshlanuvchi she‘rini shu-yillarda yozgan.

1810-yil. Qo‘qon taxtiga amir Umarxon o‘tirdi. Gulxaniy endi uning navkari vazifasida xizmat qila boshladi. Amir Olimxon va Amir Umarxon zamonlarida Gulxaniy bir qancha harbiy yurishlarda ishtirok etdi, biroq uning jasorati amirlar tomonidan yetarli darajada qadrlanmadi.

1822-yil. Amir Umarxon topshirig'iga binoan shoir o'zining mashhur «Zarbulmasal» nomli asarini yaratdi.

XIX asrning 40-yillari boshi. Gulxaniy vafot etdi. Uning o'limi to'g'risida har xil ma'lumotlar bor. Ba'zilar Qo'qonda vafot etgan deyдилar. Boshqa olimlar esa mana bunday ma'lumotni beradilar: Umarxonning o'g'li Muhammad Alixon taxtga o'tirgach, oradan bir necha vaqt o'tgach, shoirni hozirgi Namangan viloyatidagi Yangiqo'rg'on qishlog'iga hokim qilib jo'natadi. Ammo xonning yashirin topshirig'iga ko'ra, Jo'ja qishlog'ida uni tutib, kechasi Sirdaryoga cho'ktirib yuboradilar. Shuning uchun hozirgacha uning qabri topilgan emas.

Gulxaniyning ijodiy merosi:

Gulxaniy va Jur'at taxalluslari bilan lirik she'rlar va qasidalar yaratgan. Uning asarlari o'zbek va tojik tillarida yozilgan. Biroq alohida devon holida bizga yetib kelgan emas. Uning she'rlari shoir yashagan davrda va undan keyin yozilgan turli to'plamlarda mavjud.

1951-yil. Toshkentda uning «Zarbulmasal» va g'azallar degan kitobi nashr qilindi.

1980-yil. «Zarbulmasal»ning ilmiy-tanqidiy matn xarakteridagi nashri yaratildi.

UVAYSIY

(XVIII—XIX asr)

1779—1780-yillar. Taniqli o'zbek lirik shoirasi Jahon Otin Uvaysiy Marg'ilon shahrining Childuxtaron mahallasida dunyoga keldi. Uning otasi Qalandar, onasi Chinnibibi va akasi Oxunjon Hofiz o'z davrining ma'rifatli kishilaridan bo'lib, Uvaysiyning tarbiyasida katta rol o'ynashgan.

XIX asrning 90-yillari oxiri. Shoiraning Marg'ilonlik Hojixon ismli kishiga turmushga beradilar. Uvaysiy Quyoshxon ismli qiz va Muhammadxon ismli o'g'il ko'rgach, oradan biroz vaqt o'tgach, Hojixon vafot etadi va shoira tul qoladi.

1800—1809-yillar. Uvaysiy shoira sifatida shuhrat orttiradi. O'sha vaqtlarda Marg'ilonda yashayotgan Umarxonning rafiqasi shoira Nodira Uvaysiyini devonga olib keladi va bu ikki katta shoira o'rtasida umrbod do'stlik rishtalari bog'lanadi.

1810-yil. Nodira Qo'qonga ko'chib kelgandan keyin Uvaysiyini maxsus yorliq bilan Marg'ilondan chaqirtirib oladi va unga alohida

hovli-joy olib berib, doimiy rahnamolik qiladi. Uvaysiy saroyda Nodira bilan birgalikda umrguzaronlik qiladi.

1822-yildan soʻng. Uvaysiy boshiga ketma-ket tashvishlar tushadi: uning Xokiy taxallusi bilan sheʼrlar yozgan qizi bevaqt vafot etadi, oʻgʻli Muhammadxon Umarxon oʻrniga taxtga oʻtirgan Muhammadalixon tomonidan Koshgʻarga urushga joʻnatiladi.

1840-yil. Muhammadalixonning tazyiqi va farzandlaridan ayriliq shoirani tez qaritdi. Shuning uchun Nodiradan ruxsat olib, oʻz ona shahri Margʻilonga koʻchib ketadi va shu yerda qashshoqlikda umr kechiradi.

1842-yildan keyin. Olimlarning taxminiga koʻra, Uvaysiy 65 yoshlarida vafot etgan.

Uvaysiyning ijodiy merosi:

Tasavvuf falsafasi gʻoyalarini ifodalovchi va dunyoviy masalalarga bagʻishlangan lirik sheʼrlar yozdi. Shoira sheʼrlarining oʻz ichiga olgan bir qoʻlyozma devon OʻzFAning Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida saqlanadi. Unda Uvaysiyning lirik sheʼrlari hamda «Shahzoda Hasan» va tugallanmay qolgan «Voqeai Muhammadalixon» nomli tarixiy dostoni mavjud.

1959-yil. Toshkentda Uvaysiy «Devon»i bosildi.

1963-yil. Toshkentda shoiraning oldingi kitobiga kirmay qolgan va yangi topilgan sheʼrlaridan iborat ikkinchi «Devon»i nashr qilindi.

Uvaysiy nomida Margʻilon, Qoʻqon, Toshkent, Namangan, Andijon va boshqa joylarda koʻcha, maktab bor.

AMIR UMARXON (AMIRIY)

(1787—1822)

1787-yil. Davlat arbobi, ilm-fan, madaniyat homiysi, zabardast soʻz ustasi, lirik shoir Amir Umarxon — Amiriy Qoʻqon shahrida zodagon oilasida tugʻildi. Dastlab xususiy muallimda, soʻng madrasada tahsil koʻrdi. Biroz muddat akasi Olimxon saroyida xizmat qiladi.

1810-yil. Fargʻona hokimi qilib tayinlanadi, Olimxon fitna natijasida oʻldirilgach, Qoʻqonga xon boʻladi.

1822-yil. Toʻsatdan kasal boʻlib vafot etadi.

Amiriy oʻzbek va tojik tillarida lirik sheʼrlar yozdi. Rafiqasi Nodiraga ustozlik qildi. U lirik turning barcha janrlarida asarlar

yozdi, Jomiy, Navoiy, Bedil gʻazallariga muxammaslar bitdi. Amiriy oʻz sheʼrlarini toʻplab devon tuzgan. Shoir devoni 1882—1917-yillar orasida Istanbul va Toshkentda toʻla hoida oʻn ikki marta chop etilgan. Bizning zamonimizda 1972-yil M. Qodirova oʻzbekcha sheʼrlarini chop ettirgandi. Ammo totalitar tuzum zugʻumida «saroy shoiri», «behayolikni targʻib etgan» tamgʻalari tufayli tarqatilishi man etilgan. Oʻzbekiston mustaqillikni qoʻlga kiritgandan soʻng Amiriy asarlari qoʻllanma hamda majmualardan munosib oʻrin egalladi.

NODIRA

(1792—1842)

1792-yil. Taniqli oʻzbek shoirasi, davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi Nodira Andijon shahar hokimi Rahmonqulibiy oilasida tugʻildi. Uning ismi Mohlaroyim boʻlib, u oʻzbek va tojik tillarida yozgan asarlarida Nodira, Maknuna va Komila taxalluslarini qoʻllagan. Yoshligidan ilm-fan, turli tillar va husnixat bilan shugʻullangan, xususan sheʼriyat uni oʻziga maftun qilgan. U Xoʻjandiy, Jomiy, Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy, Bedil kabi Sharqning buyuk shoirlari ijodini sevib oʻrgandi. Oʻzi ham sheʼrlar yoza boshladi va tez orada shoira sifatida shuhrat tutdi.

Nodira isteʼdodli shoira boʻlishdan tashqari, bagʻoyat goʻzal, latif tarbiyasi va yuksak didli qiz boʻlib yetishgan edi. Uning taʼrifini eshitgan, oʻsha vaqtlarda Margʻilonda hokimlik qilib turgan, oʻzi iqtidorli shoir boʻlgan Umarxon unga gʻoyibona oshiq boʻlib qoladi va akasi Qoʻqon xoni Olimxon yordamida unga odam qoʻyadi.

1808-yil. Nodira va Umarxonning nikoh toʻylari boʻladi. Nodira Margʻilonga koʻchadi. Oʻsha yili Nodira shoira Uvaysiy bilan tanishadi, uni devonga olib keladi.

1810-yil. Olimxon oʻlimidan soʻng taxtni egallagan Umarxon Qoʻqonga koʻchadi. Nodira u bilan ketadi.

1822-yil. Nodiraning suyukli hamdami Umarxon vafot etadi. Endi mamlakatni boshqarish, el-yurtga rahnomalik, oʻlkaning xavfsizligi va boshqalar Nodira zimmasiga tushadi.

1842-yil. Qoʻqonga bostirib kirgan Buxoro amiri Nasrulloxon Nodirani, uning farzandlari va nabiralari bilan birgalikda vahshiyona qatl qiladi.

Nodiraning ijodiy merosi:

Nodira o'zbek va tojik tillarida lirik she'rlar bitdi. O'zFAning Sharqshunoslik instituti hamda Navoiy nomidagi adabiyot muzeyida shoiraning ikki mo'tabar qo'lyozmasi saqlanadi. Namangan shahrida istiqomat qilgan va Nodimga nabira bo'lgan Musallamxonning shaxsiy kutubxonasidan topilgan devoni ancha to'liq va mukammaldir.

Shuningdek, O'zFA Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida shoiraning Maknuna taxallusi bilan yozgan tojikcha she'rlar devoni ham saqlanadi.

1971-yil. Bizning davrimizda shoiraning ikki jildli to'la devoni Toshkentda e'lon qilindi.

1980-yil. Shoiraning tojik tilida yozgan she'rlari Dushanbeda ikki jildli qilib nashr etildi.

Nodira haqidagi badiiy asarlar:

Nodir — Uzlat Kosoniy. «Haft gulshan» dostoni.

G'afur G'ulom. «Sochi qirqilgan Momo» ocherki.

Hoshimjon Razzoqov. «Nodira» pyesasi.

Turob To'la. «Nodira» pyesasi.

Turob To'la. «Nodira» badiiy filmi.

Nodira nomida Qo'qon, Toshkent, Andijonda ko'cha, maktab, kutubxona, Namanganda kutubxona, ko'cha, maktab mavjud.

MUNIS XORAZMIY

(1778—1829)

1778-yil. Xorazm adabiy muhitining eng peshqadam shoirlaridan biri Shermuhammad Munis Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida saroyning bosh mirobi Avazbiy oilasida tug'ildi. Bolaligi Qiyot va Xivada o'tdi. Avval maktabda, so'ng madrasada o'qidi. Yoshligidan she'riyatga mehr qo'ydi. Sharq mumtoz shoirlarining asarlarini chuqur o'rgandi.

1800-yil. Otasi vafot etdi. O'sha yili Xorazm xoni Avazbiy Munisni farmonnavislik (xon farmonlarini qog'ozga tushiruvchi — kotiblik) vazifasiga tayinladi.

1806-yil. Muhammad Rahim I xon bo'lgach, otasi o'rniga shoirni miroblik lavozimiga ishga tayin qildi.

1825-yil. Xorazm taxtiga Olloqulixon o'tirdi. Munis uning saroyida ham miroblik vazifasini bajardi.

1829-yil. Xonning Xurosonga qilgan yurishida ishtirok etdi. Qaytishda vabo kasaliga yo'liqib, yo'lda vafot qildi. Uni Xorazmga olib kelib, dafn etishdi.

Munisning ijodiy merosi:

1804—1805-yillar. Shoir o'zining birinchi devonini tuzdi.

1813—1814-yillar. Birinchi devonga keyingi yozgan she'rlarini qo'shib, ikkinchi devonini tuzdi. Unga «Munis ul-ushshoq» deb nom qo'ydi. Bu devonda shoirning turli janrlarda yaratgan 8500 baytga yaqin she'ri mavjud.

1803-yil. «Savodi ta'lim» asari yozildi.

1803-yil. «Firdavs ul-iqbol» nomli tarixiy asarning 1813-yilgacha bo'lgan qismini yozdi.

1957-yil. Munisning «Tanlangan asarlar»i bizning davrimizda birinchi marta alohida kitob holida Toshkentda bosildi.

1988-yil. «Munis ul-ushshoq» devoni Toshkentda to'la holda nashr etildi.

Munis nomida Xorazmda, Toshkentda maktablar, ko'chalar, kutubxona bor.

OGAHY

(1809—1874)

1809-yil. Taniqli o'zbek shoiri, tarixchi, tarjimoni va jamoat arbobi Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida tug'ildi.

1811-yil. Otasi Erniyozbek vafot etdi. Uni tog'asi, mashhur shoir Munis o'z tarbiyasiga oldi.

Bo'lajak shoir Munisning nazorati ostida maktab va madrasada juda yaxshi o'qidi. U yoshligidan badiiy adabiyotga havas qo'ydi. Jomiy, Navoiy kabi Sharq mutafakkirlarining asarlarini qunt bilan o'rgandi. Ko'plab tarixiy asarlar bilan tanishdi.

1829-yil. Tog'asi Munis vafotidan so'ng miroblik mansabi Ogahiyga topshirildi.

1840-yil. Otdan yiqilib, oyog'i shikastlandi, biroq qiynalib bo'lsa-da, ancha yil xizmatini davom ettirdi.

Tog'asi Munis boshlagan «Firdavs ul-iqbol» nomli tarixiy asarni yozib bitirdi.

1857-yil. Oyog'i batamom ishdan chiqib, shol bo'lib qolgani uchun iste'foga chiqdi va uyda faqat ijodiy va ilmiy ishlar bilan shug'ullandi.

1874-yil. Ogahiy vafot etdi. Uning qabri Xivada.

Ogahiyning ijodiy merosi:

Ogahiy lirik she'rlar yaratdi. Uning she'rlari «Ta'viz ul-oshiqon» nomli devonga to'plangan. Devon shoir umrining oxirgi yillarida tuzilgan.

1832-yil. «Ta'viz ul-oshiqon» devoni Xivada birinchi marta bosildi. 21 ta asarni forsiy tildan tarjima qildi.

1905-yil. Mazkur devon Xivada ikkinchi marta nashr etildi.

1958-yil. Ogahiyning «Tanlangan asarlar»i davrimizda birinchi marta Toshkentda nashr etildi.

1960-yil. Kitob ikkinchi marta bosib chiqarildi.

1971-yil. Ogahiy asarlarining 6 jildlik nashri boshlanadi va 1973-yilda tugallandi.

1992-yil. Taniqli Amerikalik olim Yuriy Pregel tomonidan nashrga tayyorlangan Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan «Firdavs ul-iqbol» nomli tarixiy asar to'laligicha arab yozuvida Gollandiyaning Leyden shahrida bosib chiqarildi.

Ogahiy tarjimalari:

1. Mirxondning «Ravzat us-safo» asarining II qismidan oxirigacha. Kitobning I qismini Munis tarjima qilgan edi.

2. «Nodirnoma».

3. «Zubdat ul-hikoyat».

4. «Miftah ul-tolibin».

5. «Axloqi muhsini».

6. «Vosifiy».

7. Kaykovus. «Nasihatnoma».

8. Jomiy. «Salamonu Absol».

9. Sa'diy. «Guliston».

10. Jomiy. «Bahoriston».

11. Sa'diy. «Bo'ston».

12. «Daloyili hayrat».

13. «Tazkirai Muqimxoniy».

14. «Tabaqoti Akbarshohiy».
15. Nizomiy. «Haft paykar».
16. Xusrav Dehlaviy. «Hasht bihisht».
17. Jomiy «Yusuf va Zulayho».
18. Hiloliy. «Shohu gado».

Ogahiy yaratgan tarixiy asarlar:

1844-yil. «Riyoziy ud-davla».

1845-46-yil. «Zubdat ut-tavorix».

1856-yil. «Jomeul-voqeoti Sultoniy».

1865-yil. «Gulshani davlat».

1873-yil. «Iqboli Feruziy» (ikkinchi nomi «Shohid ul-iqbol»).

Ogahiy nomida Urganch shahrida musiqali teatr, Xorazm viloyatida, shuningdek, respublikamizning boshqa joylarida xo'jaliklar, maktablar, kutubxonalar, dam olish maskanlari, ko'chalar mavjud. U haqda R. Majidiy, S. Dolimov hamda N. Komilovlarning tadqiqotlari bor.

MUHAMMAD RAHIMXON II (FERUZ)

(1844—1910)

1844-yil. Navro'zi olam kunida Xiva xoni Muhammad Rahimxon xonadonida tug'iladi. Xususiyl muallim va madrasada o'qidi.

1863-yil. Otasi vafot etgach, Xiva taxtiga o'tiradi.

1910-yil. Og'ir kasallikdan so'ng vafot etadi.

Umr bo'yi ilm-fan, adabiyot, madaniyl hayotga homiylilik qiladi, Feruz taxallusi bilan g'azallar yozadi. Oz bitadi, ammo soz asarlar yaratadi. Feruz hukmronligi davrida Xiva xonligi hududida yuzlab masjid, madrasa, xonaqoh, maktablar quriladi. Shahar va qishloqlar obodonlashtiriladi. Uning topshirig'i bilan Munis, Ogahiy, Bayoniy va boshqalar bir necha jilddan iborat Xorazm tarixini yaratadilar, o'nlab shoh kitoblarni arab va forsiyl tildan o'zbek tiliga nazm hamda nasrda tarjima qilinadi. Feruz farmoyishi bilan 1872-yili Xivada bosmaxona tashkil qilinib, kitob chop etish yo'lga qo'yiladi; tasviriy san'at, musiqa rivojiga alohida e'tibor beriladi. Xorazm maqomlari notaga yozib olinib boshlanadi. Uning davrida juda ko'p olim, shoir, san'atkorlar, hunar egalari shaharlarga to'planib, davlat homiyligiga olinadi; badiiy ijod

ravnaqiga alohida ahamiyat beriladi; maxsus Xorazm miniatyura maktabi vujudga keladi; Rossiya, Kavkaz va Turkiyadan turli nashrlar keltirila boshlanadi. Ahmadjon Tabibiy, keyin esa Laffasiylar Xorazm vohasi shoirlari haqida maxsus tazkiralari yozadilar.

Feruz devoni Xiva hamda Toshkentda toshbosma usulida chop etilgan. Bizning zamonamizda ham alohida kitob holdida nashr qilingan. U haqda N.Jumayev «Feruz» (1994) nomli risola yozgan. Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti 1991-yilda Feruzning «Elga shohu ishqqa qul» kitobini nashr etgan.

VII B O B. XIX ASRNING IKKINCHI YARMI OʻZBEK ADABIYOTI

KOMIL XORAZMIY

(1825—1899)

1825-yil. Komil taxallusi bilan sheʼrlar yozgan taniqli shoir, musiqashunos, tarixchi va maʼrifatparvar Niyozmuhammad Xiva shahrida tugʻildi. Uning otasi Abdulla Oxund madrasada mudarris edi.

1832-yil. Maktabga oʻqishga kirdi.

1844—45-yillar. Xiva xoni Sayid Muhammadxon saroyida xattot vazifasida ishladi.

1865-yil. Xiva taxtiga Muhammad Rahimxon II oʻtirgach, Komil mirzaboshi etib tayinlandi.

1873-yil. Xorazm xonligi Rossiya vassaliga aylandi. Rus sharqshunosi Kun bilan Komil ilmiy hamkorlik qiladi.

1883-yil. Birinchi marta Moskva va Sankt-Peterburgga elchi sifatida keladi.

1891-yil. Toshkentga keladi va bu yerda Laxtin bosmaxonasi bilan tanishadi.

1895—97-yillar. Yana Toshkentga keladi. Bu safar u Toshkent haqida «Dar bayoni taʼrifi va tavsifi Toshkand» («Toshkent taʼrifi va tavsifi bayonida») asarini yozadi. Bu asar «Qasidai navroʻz» nomi bilan ham mashhur. Qasida «Turkiston viloyati gazetida» bosilgan.

1899-yil. Komil Xivada vafot etdi, uning qabri oʻsha yerda.

Komil Xorazmiyning ijodiy merosi;

Lirik she'rlar, qasidalar va manzumalar yozgan.

1865-yil. Komil Mahmud Firoqiyning «Mahbub ul-qulub», Faxriddin Ali Safiyning «Latoyif ut-tavoyif» asarini fors tilidan o'zbekchaga tarjima qildi.

1880—81-yillar. Komilning 204 sahifali she'rlar devoni Xivada nashr etildi. U 1773 baytdan iborat.

1909-yil. Shoirning ikkinchi kitobi — «Devoni mavlono Komil Maa tavorixi shohonai Xorazm» bosildi.

1961-yil. Toshkentda uning «Tanlangan asarlar»i chop etildi.

MUHAMMAD AMINXO'JA MUQIMIY

(1850—1903)

1850-yil. Qo'qon shahrida buyuk demokrat shoir, o'zbek hajviyotining yirik vakili, ajoyib lirik shoir Muqimiy tug'ildi. Uning otasi Mirzaxo'ja 1835—36-yillarda Toshkentdan ko'chib kelgan bo'lib, onasi Bibioysha xo'jandlik edi.

1857-yil. Mahalliy maktabga o'qishga kiradi.

1865-yil. Muqimiy Nodira bino qilgan «Mohlaroyim» madrasasida o'qiy boshlaydi.

1872—73-yillar. O'qishni davom ettirish uchun Buxoroga ketadi va u yerdagi madrasalardan birida ta'lim oladi.

1876-yil. O'qishni tugatib, Qo'qonga qaytib keladi.

1877-yil. Muqimiy uylanadi, ayni zamonda yer tuzilishi mahkamasiga kotiblik vazifasiga ishga kiradi.

1878-yil. Sirdaryodagi Oqjar paromida pattachi bo'lib ishlaydi.

1879-yil. Qo'qonga qaytib keladi. Oilasi buzilganligi uchun uy-joyni xotiniga qoldirib, o'zi madrasa hujrasiga ko'chib o'tadi va umrining oxirigacha shu joyda yashaydi.

1887—88-yillar. Toshkentga sayohatga boradi. Bu yerda Almaiy, Nodim, Namangoniy singari ilg'or shoirlar bilan tanishadi.

1889-yil. Namanganga Nodimnikiga keladi. Tevarak-atrofidagi qishloqlarda, jumladan, Uychi, Koroskon, Sulton Said mozorini ziyorat qiladi. Vodiy bo'ylab sayohatga chiqadi.

1892-yil. Toshkentga ikkinchi marta keladi.

1893-yil. Toshkentga uchinchi marta keladi.

1903-yil 25-may. Muqimiy Qo‘qon shahrida vafot etadi. U shahardagi Shayxon qabristoniga dafn etilgan.

Muqimiyning ijodiy merosi:

Lirik va hajviy asarlar yozgan.

1910-yil. Shoirning «Devoni Muqimiy Maa hajviyoti» kitobchasi Toshkentda e‘lon qilindi.

1912-yil. Toshkentda Muqimiy devoni ikkinchi marta chop etildi.

1938-yil. Sho‘rolar davrida birinchi marta shoirning «Muqimiy bayozi» nomli to‘plami bosildi.

1950-yildan boshlab shoir asarlari juda ko‘p marta bosildi. Uning she‘rlari ko‘pgina tillarga tarjima qilingan.

Muqimiy haqida Sobir Abdulla «Muqimiy» musiqali dramasini, Sobir Abdulla «Mavlono Muqimiy» romanini yozgan.

Muqimiy nomida Toshkentda musiqali teatr, Qo‘qonda madaniyat va istirohat bog‘i, o‘quv yurtlari, maktablar, kutubxonalar, jamoa xo‘jaliklari, ko‘chalar mavjud.

ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O‘G‘LI FURQAT

(1858—1909)

1858-yil. Atoqli o‘zbek shoiri va ma‘rifatparvari Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat Qo‘qon shahrida tug‘ildi.

1865-yil. Mahalladagi boshlang‘ich maktabga o‘qishga bordi.

1870-yil. Qo‘qon madrasalaridan biriga o‘qishga kirdi.

1875-yil. Ruslarning Qo‘qonni bosib olishi munosabati bilan madrasalar yopilib qolgani uchun o‘qishni tashladi va mustaqil bilim olish bilan shug‘ullandi.

1878-yil. Yangi Marg‘ilon (hozirgi Farg‘ona) shahriga keldi va bu yerda bir necha yil savdo ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldi, birinchi marta gazeta bilan tanishdi.

80-yillarning boshlari. Qo‘qonga qaytdi va bu yerda ulkan shoirlar Muqimiy, Zavqiy va boshqalar bilan tanishdi. Sharqda keng tarqalgan syujetlardan foydalanib, «Hammomi xayol», «Nuh manzar» kabi asarlarni yaratdi. Shu yillar o‘zining she‘rlarini jamlab, birinchi qo‘lyozma devonini tuzdi.

1889-yil. Bu vaqtlarda Marg‘ilonda bo‘lgan shoir sayohat qilish maqsadida Toshkentga jo‘naydi. U Qo‘qon orqali Xo‘jandga keladi

va bu yerdagi madrasalardan birida bir necha vaqt turib, ilm o'rganadi, adabiyot ahli bilan tanishadi.

1889-yil iyun. Toshkentga keldi va bu yerda 1891-yilgacha yashadi. Bu yillar ichida u do'stlarining yordamida Ko'kaldosh madrasasidan hujra olib yashadi. Toshkentdagi yillar Furqat ijodining eng sermahsul, g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksakka ko'tarilgan davri bo'ldi. U bu yerda matbaa, gimnaziya, turli ko'rgazmalar, teatr, gazeta tahririyati va boshqa joylarda bo'ladi. Toshkentning ilg'or fikrli ziyolilari bilan tanishdi. Nikolay Ostroumov boshchiligida chiqayotgan «Turkiston viloyati gazetisi»da tarjimon bo'lib ishladi.

Shoirning mashhur «Ilm xosiyati», «Gimnaziya», «Vistavka xususida», «Akt majlisi xususida», «Nag'ma bazmi xususida», «Suvorov haqida» singari asarlari shu yillarida yozilib, «Turkiston viloyati gazetisi»da e'lon qilingan.

1891-yil may. Bizga noma'lum sabablarga ko'ra u chet el sayohati bahonasida Toshkentni tark etadi.

1891-yilning kuzi va qishi. Furqat Turkiyaning Istanbul shahrida yashadi.

1892-yilning bahori. Arabistonning Makka va Madina shaharlarida bo'lib, muqaddas joylarni ziyorat qildi.

1892-yilning yozi. Misr, Bolgariya va Yunonistonda bo'ldi.

1892-yilning kuzi. Furqat Arabistonga qaytdi va oradan biroz vaqt o'tgach, dengiz orqali Hindistonga jo'nadi.

1893-yilning boshlari. Afg'oniston, Tibet orqali Xitoyga o'tib, Yorkent shahriga keldi va shu yerda turg'un bo'lib qoldi. Bu yerda u Yonaxon ismli ayolga uylandi va undan Nozimjon, Hakimjon, Nodirjon ismli o'g'illar ko'rdi. Bu yerda turgan Furqat vatan bilan aloqasini uzmas va do'stlari, «Turkiston viloyati gazetisi» bilan xat yozishib turdi. Ilmiy, ijodiy ishlar bilan bir qatorda tibbiyot va astronomiya bilan ham shug'ullandi.

1909-yil. Zokirjon Furqat vatandan yiroqda intizorlik torta-torta armon bilan vafot etdi.

Furqatning ijodiy merosi:

Lirik she'rlar yozish bilan shug'ullandi. Sharq shoirlari o'z lirik she'rlarining qachon yozilganligini ko'rsatishni odat qilmaganlar. Shuning uchun Furqatning ham lirik asarlarini qachon yozilganligini aniqlash qiyin.

Ma'rifatparvarlik ruhidagi asarlarining ko'pchiligi Toshkentda yaratilgan. Keyinchalik shoir bunday asarlar yozishni yana davom ettirdi.

1890-yil. «Vistavka xususida» she'ri.

«Suvorov haqida» dostoni.

1891-yil. «Sarguzashtnoma» nomli avtobiografik asari «Turkiston viloyati gazetida» e'lon qilindi.

1893-yil. «Yunon mulkida bir afsona» dostoni yoziladi.

Furqatning yozilgan yillari aniq bo'lmagan asarlari:

1. «To'y tavsifi».

2. «Gap ta'rifida».

3. «Aza tavsifi».

4. «Ilmi ash'orning avzoni».

Olimlar bu asarlar XIX asrning 80-yillarida yozilgan bo'lsa kerak, deb hisoblaydilar. Birinchi, ikkinchi va uchinchi asarlarining sarlavhalariga qarab hukm chiqariladigan bo'lsa, ular o'zbeklarning odatlari va rasmu rusumlari to'g'risidagi etnografik asarlardir.

Furqat haqida kinofilm, musiqali drama yaratilgan. S.Abdullaning «Mavlono Muqimiy» romanida shoirning obrazi aks etgan.

Furqat nomida ko'plab maktablar, ko'chalar, kutubxonalar, dam olish maskanlari, xo'jalik va boshqalar bor.

ZAVQIY

(1853—1921)

1853-yil. Ubaydulla Usta o'g'li Zavqiy Qo'qon shahrining Shayxon mahallasida mahsido'z oilasida tug'ildi.

1870—71-yillar. Madrasaga o'qishga kirdi. U Qo'qondagi «Madrasai oliy» va «Chalpak» madrasalarida ta'lim oldi.

1874-yil. Oila iqtisodiy qiyinchilikka tushib qolgani va chor qo'shinlari Qo'qonni zabt qilganlaridan keyin madrasalar yopilib qolganligi sababli shoir madrasadagi o'qishni tashlab, mahsido'zlik bilan shug'ullanadi. Keyingi yillarda u ko'plab shoirlar bilan tanishadi. Xususan, Muqimiy bilan tanishuv uning ijodiga katta ta'sir qiladi.

1877—1890-yillar. Qo‘qonlik savdogar Mo‘minjonboy xizmatiga kirdi. Boyning topshirig‘iga ko‘ra, u Xo‘jand, Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon, Andijon, O‘sh, Toshkent kabi shaharlarda bo‘ldi.

1890—1898-yillar. Yana mahsido‘zlik bilan shug‘ullandi. Uning do‘koni qo‘qonlik shoirlarning uchrashib turadigan joyiga aylandi.

1898-yil. Uning hayotida ketma-ket baxtsizliklar yuz beradi: avval otasi, keyin ikki ukasi vafot etadilar, xotini Tojibibining ikki ko‘zi ojiz bo‘lib qoladi. Ko‘ngliga taskin berish maqsadida Muqimiy bilan birga Farg‘ona vodiysi bo‘ylab sayohatga chiqadi. Muqimiy va Zavqiy Andijonga kelganlarida, Dukchi eshon qo‘zg‘oloni yuz beradi.

1900-yil. Zavqiy tog‘asi Muhammad Siddiq bilan birgalikda haj safariga jo‘naydi. Kavkaz, Kichik Osiyo, Misr, Arabistonda bo‘ladilar.

1903-yil. Haj safarlaridan Qo‘qonga qaytib keladilar. O‘z taassurotlari haqida «Sayohatnoma» yaratadi.

1905—1906-yillar. «Ahli rasta» hajvi yozildi. Bu she‘r uchun shoirmi ta‘qib qila boshlaydilar. Bunga javoban u «Talading baring» she‘rini yozadi.

1916-yil. «Al-isloh» jurnali Muqimiy, Furqat va boshqa ilg‘or shoirlarni axloqni buzishda ayblab maqola chiqaradi. Zavqiy ularga javob tariqasida «Afandilar» radifli she‘rini yozadi.

Shu yili shoirming «Qahatchilik», «Zamona» kabi publitsistik she‘rlari ham yozilgan.

1916-yil. «Rahzan Ergash» («Ergash yo‘lto‘sar») she‘ri bitildi.

1918-yil. «Ajab ermas» she‘ri yozildi.

1918—19-yillar. «Farg‘ona» she‘ri yozildi.

1919—20-yillar. Ocharchilikka qarshi kurash komissiyasida ishlaydi.

1920-yil. Qo‘qonga yaqin Karimbobo qishlog‘ida dehqonchilik bilan shug‘ullanadi.

1921-yilning yozi. Shoir vafot etadi.

Zavqiyning ijodiy merosi:

Garchi miqdor jihatdan oz bo‘lsa-da, lirik she‘rlar yozdi. Zavqiy ijodiy merosining asosiy qismini hajviy asarlar tashkil qiladi.

1958-yil. Bizning davrimizda birinchi marta Zavqiyning «Tanlangan asarlari» bosildi.

O'zbekistonning juda ko'p shaharlarida Zavqiy nomida o'quv yurtlari, ko'chalar, xo'jaliklar, kutubxonalar, xiyobonlar bor.

AVAZ O'TAR O'G'LI

(1884—1919)

1884-yil 15-avgust. Avaz O'tar o'g'li Xiva shahrida sartarosh Polvonniyoz O'tar Gadoyniyoz oilasida tug'ildi. Uning otasi o'z davrining o'qimishli kishilaridan bo'lib, Xorazmning ko'plab shoirlari bilan shaxsan tanish, ular bilan tez-tez ko'rishib turardi.

1892-yil. Avaz maktabga qatnay boshladi.

1895-yil. Xiva madrasalaridan biriga o'qishga kiradi. Bu yerda Hofiz, Navoiy, Bedil kabi Sharqning buyuk shoirlari asarlarini qunt bilan o'rganadi, ular ta'sirida o'zi ham she'rlar yoza boshlaydi.

1902-yil. Shoir sifatida Xorazmda shuhrat qozonadi. Shuning uchun uni Muhammad Rahimxon II o'z saroyiga taklif qiladi. Dastlabki paytlarda Avaz saroy shoirlari izidan borib, podshoga bag'ishlangan qasidalar, madhiyalar yozadi. Ammo keyinchalik podsho va uning atrofdagilarning adolatsizligi, zulmini fosh qiluvchi asarlar yarata boshlaydi. Shuning uchun keyinchalik xonning buyrug'i bilan 200 darra urib jazolanadi.

1909-yil. Shoir jinni deb e'lon qilinadi va oq machit qishlog'idagi «Boboeshon» qabristoniga «davolanish»ga yuboriladi. Bu yerda shu yilning oxirlarigacha qoladi. Keyin otasi kabi sartaroshlik bilan kun kechira boshlaydi, ayni zamonda tinmay ijodiy ish bilan shug'ullanadi.

1910—1919-yillar. Rus, ozarbayjon va tatar tillarida hamda Toshkentda chiqadigan gazetalar bilan, o'z davrining ilg'or ziyolilari bilan tanishadi va ularning ta'siri ostida «Maktab», «Til», «Topar ekan qachon?», «Fidoiy xalqim», «Ulamolarga», «Sipohiyilarga», «Shayx», «Pora istar» singari hajviy va publitsistik asarlarini yozadi. U Xivaning yangi xoni Asfandiyorxon buyrug'i bilan 50 darra kaltaklanadi.

1919-yil. Sil kasalligiga duchor bo'lgan shoir o'z ijodining gullagan vaqtida vafot etdi.

Avazning ijodiy merosi:

U o'zbek she'riyatida keng tarqalgan lirik janrlarining deyarli hammasida ijod qildi.

1920-yil. Xorazmda chiqa boshlagan «Inqilob quyoshi» va «Xorazm xabarlari» gazetalarida Avazning ayrim she'rlari e'lon qilindi.

Avazdan uning o'zi tuzgan «Saodat ul-iqbol» nomli she'rlar devoni qolgan bo'lib, 1956-yilda qisman, keyingi yillarla to'la bosilib chiqqan.

1984-yil. Shoirning yuz yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan uning devoni to'la bosmadan chiqdi.

Avaz nomida Respublikamizning hamma joylarida ko'chalar, xiyobonlar, maktablar, xo'jaliklar, kutubxonalar bor.

Shoir obrazi yozuvchi J. Shari povning «Xorazm» romanida yaratilgan. Yozuvchi Sa'dulla Siyoyev «Avaz» degan roman yozgan.

IBRAT

(1862—1937)

1862-yil. O'zbek shoiri, tilshunosi, ma'rifatparvar olimi Is'hoqxon Junaydulla Xo'ja Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida ziyoli oilasida tug'ildi. Ilk ta'limni onasi Huribibidan olgach, Qo'qondagi Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida o'qidi.

1882—1892-yillar. Ibrat Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, Kobul, Jidda shaharlariga safar qiladi.

1892—1895-yillar. Bombay, Kalkutta shaharlarida yashaydi. Ibrat ana shu yillari fors, ingliz, hind, urdu tillarini o'rganadi.

1895-yil. To'raqo'rg'onga qaytgan Ibrat o'z mahallasida yangicha usuldagi maktab ochadi. Unda zamonaviy fanlar, chet tillarini o'qitishni joriy qilgan.

1898-yil. «Matbai Is'hoqiya» bosmaxonasini tashkil qiladi.

1907-yil. «Lug'ati sitta as-sinna» («Olti tilli lug'at») ni yozadi.

1912. «Jome' ul-xutut» («Xatlar majmui») yoziladi.

1916-yil. «Tarixi Farg'ona» asarini yozadi.

1925-yil. «Tarixi madaniyat» kitobini yozib tugatgan.

1926-yil. «Mezon ul-zamon» («Zamona nizomi»)ni yozgan.

1937-yil. Ibrat To'raqo'rg'onda vafot etgan.

Ibrat o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan. «Sadoi Farg'ona», «Turkiston viloyati gazetisi» singari ro'znomalarda o'z maqolalari bilan qatnashib turgan.

MUHAMMAD SO'FIZODA

(1869 — 1938)

1869-yilda Chust shahrida Egamberdi So'fi pichoqchi oilasida tug'ildi. Onasi Zaynab xolaning sa'y-harakatlari bilan yon qo'shni Manzura otinda savod chiqaradi, so'ng eski maktabda ta'lim oladi.

Xushovoz bilan g'azal o'quvchi otin unda she'riyatga havas paydo qiladi, Firdavsiy, Hofiz, Navoiy asarlarini o'qiydi.

Singlisi Darvish kampingning hikoya qilishicha, eski maktabda o'qiganda riyokor shaxslarni qoralab hajviy she'rlar yozadi, kaltaklanib, maktabdan haydaladi.

1893—1898-yillar. Qo'qonda yashaydi. Muqimiy, Furqat, Zavqiyalar bilan do'stlashadi. Muqimiy unga «Vahshiy» deb taxallus qo'yadi. Ular ta'sirida «Aytin bu so'zimni», «Dakaning», «Bedanang», «Burgalar» kabi hajviy, «G'ubor dardu alam», «O'pay» kabi g'azallar yozadi. Hajviyotida tilga olingan qora guruh uni Qo'qondan quvadi.

1899-yil. Chustga keladi. 2 yil yashaydi. Amaldorlar «ul beadab va bad aslni» dahriylik harakatlari uchun qatl etishga qaror qiladilar.

1900—1904-yillar. Janjallardan qutilish uchun Chustdan chiqib ketadi. 14 yil boshqa mamlakatlarda yashaydi.

O'rta Osiyo shaharlarida, jumladan, Mari, Tiflis, Boku, Arabiston, Hindiston, Turkiyada bo'ladi, Istanbul universitetida tahsil oladi. Hindistonda o'qituvchilik qiladi.

1910—1913-yillar. Qoraqalpoq hududida bo'ladi. Qo'ng'irotda maktab ochadi. Ana shu yillarda «So'fizoda nazmini bossangiz Chust ulamolari mushtariy bo'lmaydi» degan do'qlarga qaramay, «Turkiston viloyatining gazetisi», «Sadoi Turkiston» gazetalarida shoir she'rlaridan namunalar e'lon qilinadi. «Vatan», «Muslimalar», «Xonimlar isminda», «O'zbek xonimiga» she'rlari shular jumlasidandir.

1914-yil. Chustga keladi. Yangi maktab ochib, tepasiga: «Men ul bo'yoqchimanki, maktab xumida rang berib, qora chappalarni 12 oyda oq qilaman», deb yozib qo'ydi. Kamarsadada yetim bolalar uchun «Dorulaytom» («Yetimlar uyi») va kattalar uchun kechki maktab ochadi. Maktabda dunyoviy fanlar o'qitiladi. Hajviyalar yozadi. Natijada Chust amaldorlari va ulamolari bilan ziddiyat

vujudga keladi. Chust Qozisi Abbosxon Hojimuhammad o'g'li bilan tortishadi, bir-birlariga qarshi hajviya yozishadi.

Shoir Shahand qishlog'iga ketib yashirinadi.

1914-yil yanvar. «Turkiston viloyatining gazetisi»da e'lon qilingan xabardan: «Chust shahrida bir mulla shoir usuli jadid maktab ochgan ekan. Chust axloqini buzayapti, deb maktabni tarqatib, o'zini Chustdan haydab yuborgan ekanlar».

1914-yil 1-yanvar. «Turkiston viloyatining gazetisi» da So'fizodaning «Chust boyonlarining bir gapxonada bir-birlariga maqtanishlari» she'ri bosiladi.

1914-yil. «Turkiston viloyatining gazetisi»ning 10-sonida «So'fizoda she'riga Chust qozisi Abbosxon Hojimuhammad o'g'lidan javob» she'ri bosiladi.

1915-yil. Chet elga ketadi. Hindistonda o'qituvchilik qiladi. Ta'qib ostiga olinadi. Qo'lyozma devoni kuydiriladi. Och va yalang'och qoladi. Afg'onistonga keladi. Kallapazga o't yoquvchilik qiladi. «Siroj ul-axbori afg'oni» gazetasida 3-4 ta forscha she'ri chiqadi. Uni afg'on xoni Habibulloxon (Omonulloxonning otasi) saroyga taklif qiladi, maktab ochishga ruxsat beradi. 1918-yil boshida maorif vazirining muovini, keyin Turkistonga ketayotganda afg'on konsulining tarjimoni qilib tayinlanadi.

1919-yil. Afg'on delegatsiyasi tarkibida Turkistonga keladi, afg'on vakillari hay'atiga minnatdorchilik bildirib, vatanida qoladi.

1919-yil. Chustga keladi. Batraklar ittifoqini tashkil etadi.

Ichki dushmanlar shoirni «o'zboshimchalikda» ayblab, qiynoqqa soladi, 6 oy uyida berkinib yashaydi. Do'sti Oxunboboyevga, «Farg'ona» gazetasining muharriri Lutfulla Olimiyga maktub yo'laydi.

1922-yil. Namangan shahrida, Telman ko'chasi, 38-uyda yashaydi.

1925-yil 13-avgust. «Farg'ona» gazetasida «Xushchaqchaq qalamlar» rukni ostida So'fizoda she'rlari beriladi.

1926-yil 27-fevral. O'zbekiston Ijtimoiy Sho'rolar Jumhuriyati birinchi bo'lib So'fizodaga «O'zbekiston xalq shoiri» faxriy unvonini beradi.

1926-yil. «Haqiqatdan ko'z yumganlar», «Qalaysizlar?» she'rlari yozildi.

- 1926-yil 6-aprel. Hamza Soʻfizodaga — ustoziga sheʼr bagʻishlaydi.
1928-yil. «Besh yoshlar tilidan» sheʼri yozildi.
1928-yil. Bronxa astmasi va qand kasalliklariga duchor boʻladi.
1935-yil 29-yanvar. Shoirning 65-yilligi nishonlanadi. 200 dan ortiq sheʼrini Nazir Safarov nashrga tayyorlaydi. Afsuski, ular hanuz topilmagan.
1937-yil 5-may. U kasalxonada hibsga olinadi.
1938-yil 5-may. Xalq dushmani sifatida otiladi.
Soʻfizoda uch tilda: oʻzbek, tojik va ozar tillarida ijod qildi.

MAHMUDXOʻJA BEHBUDIY

(1874—1919)

1874-yil 10-mart. Samarqand viloyati Siyob tumani Baxshitepa qishlogʻida ruhoniylar oilasida dunyoga keldi.

1881-yil. Togʻasi Muhammad Siddiq huzurida xat-savodini chiqardi. 3—4 yil ichida «Qurʻon»ni yod oladi.

Kichik togʻasi mulla Odil huzurida «Qifoya» (arab tili grammatikasi), Jomiyning «Shahri mullo» (mantiq asari); «Muxtasar al-viqoya» (huquq), «Hoshiya» kitoblarini oʻrganadi.

1893-yil. Otasi vafot etgach, oʻqishni tashlab, Chashmi ob boʻlisida togʻasi Muhammad Siddiq (qozi) yonida mirzolik qiladi. Togʻasi qozilikdan boʻshagach, Kobod volostidagi Mulla Zubayr qozixonasida mirzolik, soʻng muftilik qiladi.

1899—1900-yillar. Buxorolik doʻsti Hoji Bano bilan hajga boradi, Misr va Istambulda boʻladi, yangi usulda maktab, bilim yurti, madrasalar bilan tanishadi, boʻlgʻusi jadid maktabi uchun kitob, darsliklar olib keladi.

1903—1904-yillar. Sankt-Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburgda boʻladi.

Bogʻchasaroy (Qrim) da chiqib turgan Ismoilbek Gaspiralinig «Tarjimon» gazetasi bilan tanishadi.

Samarqandga qaytgach, bepul kutubxona, qiroatxona, oʻz hovlisida maktab ochadi. U usuli savtiya (jadid) maktabi boʻlib, oʻzi tarix, jugʻrofiya va boshqa fanlardan dars beradi. Unda Abduqodir Shakuriy ham dars beradi. Behbudiy oʻzbekcha va tojikcha darsliklar yozadi.

1903—1904-yillarda quyidagi darsliklarni yozadi:

«Kitobat ul-atfol» («Bolalar uchun kitob»), «Muxtasari jug'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha geografiyasi»), «Amalyoyati islomiya», «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madhali jug'rofiya umroniy» («Aholi geografiyasiga kirish»), «Samarqand nomli gazeta», so'ng «Oyna» jurnalini chiqaradi (jadid matbuoti).

1906-yil. «Xurshid» gazetasida bosilgan «Xayr ul-umuri avsatih» maqolasida Rusiyadagi partiyalarga baho beradi.

1909-yil 2-oktabr. «Turkiston viloyatining gazet»da «Ehtiyoji millat» maqolasi chiqdi.

1911-yil. «Padarkush» (Otasini o'ldiruvchi) pyesasini (birinchi o'zbek dramasi) yozadi. Uni 1912-yilda «Turon» (Buxoro) gazetasida e'lon qiladi. Pyesani sahnada qo'yishga chor senzurası ruxsat bermaydi. Turkiston general-gubernatori ham qarshilik ko'rsatadi. Muallif pyesa muqovasiga «Rossiyaning Fransuz istilosidan ozod bo'lishi va mashhur Borodino jangi xotiralari yubileyiga bag'ishlayman» deb yozib, matbuot ishlari bo'yicha Tiflis Komitetining senzurası tomonidan Kavkaz o'lkasi sahnalarida ko'rsatish uchun ruxsat oladi. Shundan so'ng pyesa 1913-yilda Samarqandda Gazarov va Siyanov matbaasida bosilib chiqadi. Shu yili Samarqand, Buxoro, Toshkent, Kattaqo'rg'on, Qo'qon, Andijon, Namangan shaharlarida sahnalashtirildi. Pyesa ta'sirida «To'y», «Juvonboz», «Baxtsiz kuyov» (Abdulla Qodiriy), «Juvonbozlik qurboni» (Hoji Mo'in), «Juvonmarg» (A. Badriy), «Qurboni jaholat», «Do'xtir Muhammadyor» (Cho'lpon), «Yangi saodat», «Zaharli hayot» (Hamza) asarlari paydo bo'ldi. Ularda jadidizm, ma'rifatparvarlik g'oyalari olg'a surildi.

1912-yil 12-iyul. «Vaqt» (Orenburg) gazetasida «Buxoro xonligiga sayohat» maqolasi bosildi.

1913-yil. «Samarqand» gazetasi, «Oyna» jurnalini chiqaradi.

1913-yil. «Ikki emas, to'rt til lozim» maqolasi e'lon qilindi.

1914-yil. «Oyna» jurnalining 5-sonida «Libos, qiyofat» maqolasi bosiladi, unda libos, qiyofaning musulmonchilikka aloqasi yo'qligi isbotlangan.

1914-yil. «Yoshlarga murojaat» maqolasi chiqadi.

1914-yil. 25-iyun. Istambulda Ismoilbek Gaspirali bilan uchrashadi, uyida suhbatlashadi.

1914-yil. «Oyna» jurnalining 49-sonida «Ismoilbek hazratlari bilan suhbat» maqolasi Ismoilbek Gaspirali vafoti munosabati bilan bosiladi.

1917-yil 12-iyun. «Ulugʻ Turkiston» (Samarqand) gazetasida «Bayoni haqiqat» maqolasi bosildi.

1917-yil. Fevral burjua inqilobini Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Mirmuhsin Shermuhamedov, Tavallo bilan tabriklaydi.

1917-yil 18-aprel. Umumturkiston musulmonlari qurultoyida soʻzga chiqib, Turkistonning Rossiya tarkibidan ajralib chiqishini, alohida (avtonom) davlat tuzilishini talab qiladi. Oktyabr voqealaridan keyin ham shu fikrda qoladi.

1917-yil 1-noyabr. Musulmonlarning Umumturkiston 4-favqulodda qurultoyida Qoʻqon muxtoriyatiga rahbariyat aʼzosi boʻladi.

1918-yil may. Samarqandda «ittifoq jamiyati» oʻrniga tuzilgan «Musulmon ishchi va dehqon shoʻrosi»da maorif xalq komissari boʻlib ishlaydi.

1918-yil iyul. Toshkentga keladi. Turkiston ASSR partiya va shoʻro rahbarlari bilan uchrashadi. Turkistonda davlat tili haqidagi dekret, milliy ishlar xalq komissarligining nizom loyihalarini tayyorlashda qatnashadi.

1919-yil 25-yanvar. Aktyor Mardonqul Shohmuhammad oʻgʻli, Muhammadqul Oʻrinboy oʻgʻli bilan Samarqanddan Bokuga ketayotib, Shahrisabzda Buxoro amiri Olimxon buyrugʻi bilan Qarshi begi Togʻaybek tomonidan «jadid, kofir, tilchi» sifatida qoʻlga olinadi. Qarshi shahrining «podsholik bogʻi»ning xilvat goʻshasidan Behbudiy, Mardonqul, Muhammadqul, Ahmad afandi jadidlarga sotilganlarga goʻr qazdiriladi, ular pinhoniylar qatl etilib, oʻsha yerga koʻmiladi, soʻqqabosh dehqonga shudgor qildiriladi va soʻng dehqon ham gumdon qilinadi.

Behbudiy oʻlimi oldidan «Vasiyatnoma» yozadi: «... Oʻrtoqlarim Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, Qori va Akobir Mahmud va Oʻgʻlonlarim Vadud Mahdum, Abduqodir Shakuriy!

Sizlarga vasiyat qilaman: maorif yoʻlida ishlayturgʻon muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz!

O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar. Bizdek maorif qurbonlarini yo'qlangizlar! Buxoro tuprog'iga tezlik ila yo'l boshlangizlar! Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Bizning qonimizni zolim beklardan talab qilingizlar! Maorif Buxoro tuprog'ida joriy qilingizlar!».

1920-yil. Behbudiyning o'limi munosabati bilan matbuot sahifalarida xotiralar bosildi, eslov kechalari o'tkazildi. S. Ayniy «Behbudiyning ruhini ittixof», Fitrat «Behbudiyning sag'anasini izladim», Cho'lpon «Mahmudxo'ja xotirasi», Nihoniy «Zavolli quyosh», Hojimurod «Maorif qurbonlari» (pyesa) asarlarini yozdi. Qarshi shahriga nomi qo'yildi (1937-yilgacha saqlandi).

1920-yil apreil. Samarqand motam tutdi.

1920-yil. Sadridin Ayniyning 1923-yilda Buxoroda chop etilgan «Inqilob uchqunlari» she'riy to'plamida 3 ta she'r bor (1920-yil aprelda yozilgan):

1. «Behbudiy uchun «Intiqom marshi».

2. «Behbudiy ruhiga athaf (bag'ishlov)», «Shabi hijron».

3. «Behbudiy afandini esga tushirib, qatl va qatlgohiga xitoban».

1922-yil Toshkentda chop etilgan «Yosh o'zbek shoirlari» to'plamida Fitratning «Behbudiyning sag'anasini izladim» she'ri.

Shu to'plamda Cho'lponning «Tortishuv tongi» (1920) she'ri.

1922-yil — «Inqilob» jurnalining 1-sonida Hoji Mo'inning «Mufti Mahmudxo'ja hazratlarining qanday shahid bo'lganligi va uning tomonidan yozilgan vasiyatnomasi» maqolasi bosildi.

1923-yil — A. Sa'diy «Behbudiy va uning tegrasiga yig'ilgan yozuvchilar» maqolasida «O'zbek muharrirlarining otasi, jadid rahbari», deydi.

1926-yil — «Maorif va o'qituvchi» jurnalining 2-sonida bosilgan Laziz Azizzodaning «Behbudiy» maqolasida Behbudiyning Russo, Chernishevskiy, Dobrolyubovlarga tenglashtiradi, Navoiy, Ulug'bek, Behbudiyga haykal o'rnatishni o'rtaga qo'yadi.

Fayzulla Xo'jayev «Buxoro tarixi» kitobida «Turkiston jadidlari ichida Behbudiy bilan tenglashtiraturgan bir kishi yo'q», deb yozdi.

Behbudiyning qizi Parvin, o'g'li Ma'sud. Ular gimnaziyada o'qishgan.

SADRIDDIN AYNIY

(1878—1954)

1878-yil 27-aprel. Buxoro amirligiga qarashli G'ijduvon tumanining Saktore qishlog'ida Saidmurodxo'ja oilasida tug'ildi.

1889-yil. Otasi va onasi vabodan o'ladi.

1890-yil. Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil oladi, tirikchilik o'tkazish uchun oshpazlik qiladi.

1892—96-yillar. Sharifjon Mahmud xonadonida xizmatkor, Olimjon va Badalbek madrasalarida qorovul-farrosch bo'lib ishlaydi.

1892—93-yillar. Sifliiy, Muhtojiy, Jununiy taxalluslari bilan tojikcha she'rlar yozadi.

1896-yil. Muhammadali Hoji madrasasida tahsil oluvchi shoir Muhammadsiddiq Hayrat bilan tanishadi.

1896-yil. «Ayniy» taxallusi bilan «Guli surx» («Qizil gul») nomli g'azalini yozadi.

1900-yil. Ahmad Donishning «Navodir ul-vaqoye» asarini o'qib chiqadi, undan yangi nusxa ko'chiradi.

1902-yil. Do'stlari Hayrat, Abdulvohid Munzim bilan «Habl ul-matin», «Chehranoma» (forscha), «Tarjimon» (Qrim-tatarcha) gazetalarini o'qiydi.

Buxoroda tatar muallimi ochgan maktabda tarjimonlik qiladi.

1909-yil. Mirza Abdulvohid bilan birgalikda yangi usuldagi maktab ochadi, muallimlik qiladi, o'quvchilar uchun «Tahzib us-sibyon» («Bolalar tarbiyasi») nomli o'qish kitobini tuzadi, so'ng amir amaldorlarining ta'qibiga uchrab, muallimlikni tashlaydi.

1915—16-yillar. Qiziltepadagi paxta zavodida yashirin ishlab yurishga majbur bo'ladi.

1917-yil. Amir farmoni bilan Xiyobon madrasasiga mudarris qilib tayinlanadi.

1917-yil 8-aprel. Amirning «islohati» haqidagi yuzaki farmoni bilan jadidlarning «Shukrona namoyish» o'tkazish haqidagi tadbiriga qarshi chiqadi. Jadidlar namoyish o'tkazadilar, namoyish qatnashchilari hibsga olinadi. O'z hujrasida yotgan Sadriddin Ayniy ham shubhali kishi sifatida hibsga olinadi, 75 darra urushga hukm qilinadi, zindonga tashlanadi.

1917—1918-yillar. Zindondan ozod etiladi.

Kogon kasalxonasida 52 kun davolangandan keyin Samarqandga keladi.

1918-yil. Buxoro amiri Ayniyning ukasi Sirojiddinni zindonga tashlatadi, o'ldirtiradi. Ayniy «Marsiya» yozadi.

1918-yil. «Surudi ozodi» («Hurriyat marshi») she'ri bilan hozirgi tojik adabiyotini boshlab beradi.

1918-yil. Toshkentda yashaydi.

1919-yil. «Birinchi May marshi», «Baynalminal marshi», «Kunchiqarliklarga xitob», «Maktab marshi», «Dorulmuallimin marshi» she'rlari yoziladi.

1919-yil. Samarqanddagi sho'ro maktablarida o'qituvchilik qiladi, maorif bo'limida yo'riqchi bo'lib, «Sho'lai inqilob» nomli tojik jurnalida, «Mehnatkashlar tovushi» nomli o'zbekcha gazeta-da ishlaydi.

1920-yil. «Maktab sharqiysi» she'ri yozildi.

1920-yil. Samarqandda uylanadi, qaynonasi hovlisida 2—3-yil yashaydi.

1920-yil. Birinchi yirik asari «Buxoro jallodlari» qissasini o'zbek tilida yozdi.

1922-yil. «Qiz bola yoxud Xolida» nomli didaktik asarini yozadi, uni 1924-yilda Berlinda o'zbek tilida nashr ettiradi.

1922-yil. «Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar» kitobi yoziladi.

1922-yil. «Mang'it amirlarining tarixi» ocherki bosiladi.

1923-yil. Registon yaqinidagi uy-joyini sotib oladi.

Umrining oxirgi yillarida Dushanbeda yashaydi.

1923-yil. Birinchi o'zbekcha she'riy to'plami «Inqilob uchqunlari» Buxoroda nashr ettiriladi.

1923 —25-yillar. Samarqanddagi Buxgostorgga mudir.

1924-yil. «Odina» nomli qissasi «Ovozi tojik» gazetasi sahifalarida e'lon qilinadi.

1924 —27-yillar. Samarqandda «Zarafshon» gazetasiga ilova tarzida nashr etilgan «Mashrab» hajviy jurnalida faol qatnashdi. Asarlari «Battol», «Yolg'onchi», «Ro'zador», «Bir kechalik futurist», «Azg'ich», «Sarson», «Tolesiz», «Zimg'oyib» kabi taxalluslar bilan chiqadi.

1925-yil. «Mashrab» jurnalida «Ramazon oyi» she'ri bosildi.

1926-yil. Samarqandda ta'sis bo'lgan Tojikiston Davlat nashriyotida adabiy xodim.

1926-yil. Moskvada «Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar» va «Namunai adabiyoti tojik» adabiy-tanqidiy antologiyasini nashr ettiradi.

1928-29-yillar. Birinchi yirik asari — «Doxunda» romanini tugatib, 1930-yilda Qozonda nashr ettiradi.

1927-yil. «Qulbobo yoki ikki ozod» qissasi o'zbek tilida yoziladi, «Zarurati diniya» kitobi Lohurda chop etiladi.

1930-yil. «Ahmad devband» hikoyasi bosiladi.

1932—35-yillar. «Qullar» romani o'zbek tilida yoziladi.

1934-yil. «Firdavsiy va uning «Shohnomasi» haqida» risola bitiladi.

1934-yil. Butunittifoq sho'ro yozuvchilari s'ezdiga «Qullar» romanini sovg'a qiladi, s'ezdda nutq so'zlaydi, M. Gorkiy bilan uchrashadi.

1935-yil. «Eski maktab» qissasi o'zbek tilida yoziladi.

1935—39-yillar. Vaxsh haqida 2000 misrali «Odamning suv bilan jangi» dostoni yaratiladi.

1935-yil. «Yodgorlik» she'rlar to'plami bosiladi.

1935-yil. Jamoatchilik adabiy faoliyatining 30-yilligini keng nishonladi. Yulius Fuchik bilan uchrashadi.

1936—38-yillar. 15000 so'zdan iborat tojik adabiy tili lug'atini tuzadi.

1937-yil. «Sudxo'ring o'limi» qissasi bosiladi.

1939-yil. «Shayxur rais Abu Ali Ibn Sino» maqolasini yozadi.

1940-yil. «Ustod Rudakiy qabri va Rudak qishlog'i» maqolasi yoziladi.

1940-yil. «Etim» qissasi bosiladi.

1940-yil. «Qisqacha tarjimai holim» yoziladi.

1942-yil. «Shayx Muslihiddin Sa'diy va Sheroziy» maqolasi yoziladi.

1944-yil. «Tojik xalqining qahramoni Temur Malik», «Muqanna isyoni» asarlari yaratildi.

1948-yil. Sankt-Peterburg universiteti Sharq fakulteti filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini berdi.

1949-yil. «Esdaliklar» asarining 1- va 2- qismlari nashr etiladi.

1950-yil. «Esdaliklar» (1-2-qismlari) memuar asari uchun Davlat mukofotining laureati bo'ldi.

1951-yil. Tojikiston Fanlar akademiyasi tashkil topadi. Akademiyaga Prezident qilib saylanadi.

1953-yil. 75-yilligi nishonlanadi. «Esdaliklar»ning 3-4-qismlari nashr etiladi.

1954-yil 15 iyulda Dushanbe shahrida vafot etadi, o'z nomi bilan atalgan bog'da dafn etiladi.

1958—1968-yillar. 15 jildli tanlangan asarlari tojik tilida, 8 jildli tanlangan asarlari o'zbek tilida nashr etiladi.

U Tojikiston FA Akademigi va birinchi prezidenti, O'zbekiston FA faxriy a'zosi bo'lgan, bir necha marta orden va medallar bilan mukofotlangan.

ABDULLA AVLONIY

(1878—1934)

1878-yil 12 iyulda Toshkent shahar Mergancha mahallasi to'quvchi Miravlon oilasida tug'ildi. So'ng oila Mirobod mahallasiga ko'chadi. Ota va onasi to'quvchi, savodxon bo'lishgan.

7 yoshda O'qchidagi eski maktabda Akramxonda o'qidi.

1890-yil. O'qchidagi madrasaga o'tdi, so'ng Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar oxunda tahsil ko'rdi.

1891-yil. Yozda mardikorlik qildi, qishda o'qidi.

1894-yil. Adabiy ijodi boshlandi. Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Sa'diy Sheroziy asarlari bilan tanishdi.

1900-yil. Salomatga uylanadi. Otasi vafot etadi. O'gay ona va uka uning qaramog'ida qoldi. Madrasani tashladi. Ijod bilan shug'ullandi. She'rlariga «Hijron», nasriy asarlariga Mulla Abdulla, Avloniy, Nobil, Indamas, Shuhrat, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegiboy deb taxallus qo'ydi.

1904-yil. Miroboddayangi tipdagi jadid maktabini ochadi. O'zi jadidlar harakatiga qo'shiladi.

1905-yildan boshlab yozilgan 4 qismdan iborat «Adabiyot yohud milliy she'rlar» kitobi 1912—1916-yillarda alohida-alohida nashr qilindi.

1907-yil. Matbuotga aralashdi. Birinchi jurnalist, birinchi muharrirlardan. 4 dekabr kuni «Shuhrat» gazetasining 1-sonini

chiqaradi. «Saodat» (Orenburg) gazetasini tarqatadi. 10-songacha chiqadi.

1908-yil 9 aprel. «Osiyo» gazetasida «Maqsad va maslak» nomli maqolasi chiqadi.

1909-yil. Shayxontohurdagi Degrez mahallasiga yangi maktab ochdi.

1909-yil. «Jamiyati xayriya»ni ochadi, rais bo'ldi.

1909-yil. «Turkiston ahlindan javob» she'ri yoziladi.

1911-yil. «Dunyo fojiasidan» she'ri yozildi.

1912-yil. «Ahvoli olamdan bir namuna», «Turkiston tufrog'iga xitob», «O'z millatimdan rizoyi o'jizonam», «Maktab» she'rlarini yozadi.

1912-yil. «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» darsliklari chop etiladi.

1913-yil. «Turon» jamiyatini tuzadi.

1913-yil. Teatr san'ati bilan shug'ullanadi. Birinchi o'zbek trupпасi — «Turkiston» (yoki «Turon»)ni tuzadi. Keyin unga Mannon Uyg'ur ham qo'shiladi.

1913-yil. Yuqori sinf o'quvchilari uchun «Turkiy guliston yoki axloq» darsligini nashr ettiradi.

1914-yil. «Nashriyot» shirkatini tuzib, kitob savdosiga ahamiyat beradi.

1914-yil. «Sadoi Turkiston» gazetasiga muharrir.

1914-yil. «Maishatimizdan bir manzara», «Istiqboldan orzularim», «Diqqatman», «Millatga xitob», «Maktabga targ'ib», «G'alat» kabi she'rlarini yozadi.

1915-yil. «Pinak» dramasini yaratadi.

1916-yil. «Advokatlik osonmi» dramasini yozadi. Shuningdek, «Ikki muhabbat», «Portugaliya inqilobi», «Biz va siz» (1923) kabi dramalarini yozadi.

1917-yil. «Turon» gazetasini ta'sis etdi. Uning 1-sonida «Yashasin xalq jumhuriyati» shiori bilan chiqdi.

1917-yil. «Gulistoni maktab», «Uchinchi muallim», «Maktab jug'rofiyasi», «Hisob masalalari» darsliklari nashr etildi.

1917-yil. «Qotili Karima», «Uy tarbiyasining bir shakli», «Xiyonatkor», «Jaholat» kabi dramalarni tatar, ozarbayjon tillaridan tarjima qiladi.

1918-yil. «Ishtirokiyun» gazetasining muharriri.

1918-yil. Toshkent. Eski shahar ijroiya komiteti raisi.

1919-yil. «Kasabachilik harakati» jurnalini chiqaradi.

1919-yil. Amudaryo va Qoratepa Birinchi piyoda askarlar otryadida Turkiston respublikasi komissariatida siyosiy xodim bo'lib xizmat qiladi.

1919—1920-yil. Afg'oniston elchixonasida siyosiy vakilining o'rinbosari, so'ng Hirotda RSFSR muxtor elchisi.

1919-yil. «Afg'oniston sayohati» memuar asarini yaratdi.

Tatar va ozarbayjon tillaridan «Man o'lmisham», «Joyi ijaraga olingan kishi», «Badbaxt kelin», «Layli va Majnun» dramalarini tarjima qiladi.

Yana keyingi-yillarda «Ishtirokiyun» gazetasining muharriri. Toshkent o'lka bilim yurti mudiri.

1923-yil. Toshkent xotin-qizlar bilim yurti mudiri.

1924 —1929-yillar. Toshkent harbiy maktabida o'qituvchi, shuningdek, shu-yillarda SAGU va SAKUda dars beradi.

1924-yil. «Turkiston» gazetasida «Burungi o'zbek vaqtlı matbuot tarixi» maqolasi bosiladi.

1927-yil. Avloniyga «Mehnat Qahramoni» unvoni beriladi.

1930-yil. «O'zbekiston xalq maorifi zarbdori» faxriy unvoni beriladi.

1931-yil. SAGU da til bo'limi kafedrasida professor. Ilmiy xodimlar seksiyasida, Respublika terminologiya komitetida, Davlat ilmiy kengashida xizmat qiladi.

1933-yil. VII sinf uchun «Adabiyot xrestomatiyasi»ni nashr ettiradi. «O'qituvchilar soyuzi» ni tuzadi.

1934-yil 25 avgustda, 56 yoshida vafot etadi.

Abdulla Avloniy — shoir, teatr arbobi, aktyor, rejissyor, dramaturg, o'zbek vaqtlı matbuoti asoschilaridan, jurnalist, muharrir, ma'rifatparvar, o'qituvchi, yozuvchi, tarjimon, elchi.

FITRAT

(Abdurauf Abduraimov)

(1886—1838)

1886-yil. Buxoroda mayda savdogar oilasida tug'ildi.

Eski maktabda xat-savodini chiqaradi.

Mir Arab madrasasida o'qiydi.

1903-yil. Otasi Abdurayim tijorat bilan Kashg'arga boradi, u erda 15-yil qolib ketadi. Oilani onasi Mustafo bibi va o'zi boshqaradi.

1908—1914-yillar. Jadidlar Buxoroda «Xayriya jamiyati» tuzadi. Jamiyat iqtidorli yoshlarni o'qitish uchun chet elga yuboradi. Fitrat ham Turkiyaga boradi, Istanbul universitetida 4-yil o'qiydi, ijod bilan shug'ullanadi.

1909-yil. «Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilgan munozarasi» (Munozara) nasriy asari yoziladi.

1910-yil. «Sayha» (Hayqiriq) she'rlar to'plami Buxoroda amir ruxsat etmay, Istanbulda nashr etiladi.

1913-yil. Istanbulda «Sayyohi hindi bayonoti» nasriy asari nashr etiladi.

1915-yil. «Islom tarixi» kitobi Istanbulda chop etiladi.

1917-yil. «Bekjon», «Qon» inqilobiy pyesalari yaratiladi.

1908—17-yillar. Fitrat madaniyat tarqatish orqali amirga qarshi kurashuvchi so'l jadidlarga boshchilik qiladi, so'l jadidlardan o'sib chiqqan «Yosh buxoroliklar» tashkilotida Markaziy Qo'mita sarkotibi, a'zosi bo'ladi, tashkilotning islohot loyhasini yaratdi («Munozara» asari asosida). Amirni sirdan o'limga hukm qiladi.

1908—18-yillar. «Rahbari najot», «Oila» nasriy asarlari yaratildi.

1918-yil aprel. Toshkentga keladi.

1918—19-yillar. «Chig'atoy gurungi»ni yo'lga qo'ydi.

1919-yil. «Hurriyat» gazetasining muharriri.

1919—20-yillar. Afg'onistonning Toshkentdagi elchixonasida tarjimon bo'lib ishlaydi.

1920—23-yillar. «Chin sevish», «Hind ixtilotchilari» kabi hind xalqining ingliz mustamlakachilariga qarshi milliy-ozodlik harakatlari haqidagi pyesalari va «O'g'izxon» dramasi Toshkentda yozadi.

«Temur sag'anasi», «Abomuslim» dramasi yaratildi.

1920-yil 10 avgust. Buxoro Sharq musiqa maktabining birinchi direktori, o'z hovlisini maktabga beradi, o'z yonidan haq to'lab, «Shashmaqom»ni Uspenskiyga notaga tushirtiradi.

1921—23-yillar. Maorif va xorijiy noziri, Buxoro Xalq Respublikasi markaziy Ijroiya raisining o'rinbosari.

1923—24-yillar. Moskva Sharq tillari institutida dars beradi.
1924-yil. Sankt-Peterburg universiteti ilmiy kengashi O'rtasiyoda birinchi bo'lib professorlik unvonini beradi.
1924-yil. Buxoro xonligi tarixidan «Abulfayzxon» dramasi yoziladi.
1924-yil. «Qiyomat» hikoyasi, «Shaytonning tangriga isyoni» dramatik dostoni yaratildi.
1925—30-yillar. Birinchi ona tili darsligi «O'zbek tili sarfi» (grammatikasi)ni yozadi, 5 marta chop ettiriladi.
1926-yil. Buxoro xonligi tarixidan «Arslon» dramasi yaratiladi.
1929—32-yillar. «Zaynabning imoni», «Oq mozor», «Qiyshiq eshon», «Me'roj», «Zayd va Zaynab» hikoyalari yaratildi.
1930-yil. «Ro'zalar» pyesasi yozildi.
1930-yil. «Amir Olimxonning hukmronlik davri» nasriy asari yaratildi.

Samarqand va Toshkent oliy o'quv yurtlarida o'zbek va tojik tillari, adabiyotidan dars beradi.

1937-yil. Birinchi o'zbek operasi «To'lqin»ning librettosi (M. Ashrafiy bilan hamkorlikda) yoziladi.

1937-yil 22 iyul. «Milliti ittihad» (birlashish) aksilinqilobiy tashkilotning a'zosi sifatida hibsga olinadi va 1938-yil 4 oktyabrda otiladi.

Adabiy-tanqidiy asarlari: «Bedil», «Qutadg'u bilig», «Adabiyot qoidalari», «Ahmad Yassaviy hikmatlari», «Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risidagi tekshirishlar», «XVI asrdan so'nggi o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash», «Muhammad Solih», «Aruz haqida», «Abdulqosim Firdavsiy», «Ertaklar va haqiqatlar», «O'zbek shoiri Turdi», «Tilimiz», «O'zbek tili saboqlari», «O'zbek muzikasi to'g'risida», «O'zbek klassik muzikasi va uning tarixi», «Sharqda shaxmat», «O'zbek adabiyotidan namunalari» va hokazo.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY

(1889—1929)

1889-yil 6 mart. Qo'qonda Xo'jand daha Solkashon mahallasida tabib Ibn Yamin Niyoz o'g'li (1836—1920) va Jahonbibi Rabbiboy qizi (1858—1910) oilasida tug'ildi. Aka va opalari: Isroil (1876—1926), Hojaroy (1881—1921), Achaxon (1884—1948).

1896—1899-yillar. Eski maktabda otin ayada o'qiydi.

1899—1906-yillar. Qo'qon madrasasida o'qiydi.

1905-yil. Nihon taxallusi bilan lirik she'rlar yoza boshlaydi.

1905—14-yillarda 214 she'r yozadi. Ulardan 4 tasi 1905-yilda yozilgan. «Devon»ga 177 tasi kiritilgan.

1907-yil 30 mart. Haydarbek mahallalik Obidjon Mahmud o'g'lida 6 oy mirzolik qiladi.

1907-yil. Otasining haj qilish uchun chet el safriga ketishi munosabati bilan uni Kashg'argacha kuzatib boradi.

1909-yil. Arab tilini o'rganish uchun Buxoroga Ikromcha domla (Iso Mahdum) huzuriga boradi. Lekin shialar bilan sunniylar o'rtasida boshlangan janjal tufayli rejalar barbod bo'ladi, u Kogonga qaytib, matbaada ishlaydi.

1910-yil. Toshkentga kelib, Koshg'ar darvoza mahallasida usuli savtiya (jadid) maktabini ochadi.

1911-yil. Qo'qon shahrida Hojibek guzarida yangicha usuldagi maktab ochib, bir-yil o'qituvchilik qiladi. Kambag'al oilalarning bolalarini pulsiz o'qitmoq uchun «Yordam jamiyati» tuzadi, katta yoshdagi kishilarni o'qitmoq uchun 2—4 oylik kechki maktab ochadi.

1912—1913-yillar. Hajga yo'l olib, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya va Arabistonda bo'ladi.

1913-yil. Istanbulda o'qish niyatida-yil boshida chet el safariga chiqadi, biroq otasining norozilik xatidan qo'rqib, Qo'qonga qaytadi.

1914-yil. Qo'qondagi yangi usuldagi maktabda o'qituvchilikni davom ettiradi.

1914-yil. 1-sinf uchun «Engil adabiyot», 2-sinf uchun «O'qish kitobi» darsligini yozadi.

Kambag'al oila bolalari uchun «Dor ul-aytom» («Etimlar uyi»)ni ochadi. Maktab podsho chinovniklari tomonidan xavfli sanalib yopiladi.

1914-yil. «Sadoi Farg'ona» gazetasining muharriri Oxundiyning yordami bilan Marg'ilonda maktab ochadi. Lekin 8 oydan so'ng maktab Skobelev (Farg'ona) maorifi rahbari tomonidan yopiladi.

1914-yil. «Faqirlik nimadan hosil o'lur» («Sadoi Turkiston» gazetasi, 1914-yil 10 avgust), maqolasi, «Ramazon» she'ri, «Bid'atmi, majusiyatmi?» («Sadoi Turkiston», 1914-yil 20 may)

maqolasi, darsliklarda «Ilm ista», «Olim», «Kitob», «O'qi», «Maktab», «Toshbaqa bilan Chayon», «Qimorning boshi», «Qalam», «Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi» kabi pedagogik asarlar chop etildi.

1915-yil. 2-sinf uchun «Qiroat kitobi» darsligini yozadi.

1915-yil avgust. Marg'ilondagi Ahmadali Qori Muhammadali o'g'li mudirlik qilgan «Maktabi Ahmadaliya»da dars bera boshladi.

Marg'ilonda yangi maktab ochadi, o'qituvchilik qiladi, muallimlar tayyorlaydigan kurs ham ochadi, Qo'qonda «G'ayrat» kitobxonasini tashkil etadi, «Yangi saodat» yoxud milliy roman» asari, «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»ning 1-bo'limi toshbosmadan chop etiladi.

1916-yil. Majmuaning (2 — «Oq gul», 3 — «Qizil gul», 4 — «Pushti gul», 5 — «Sariq gul», 6 — «Yashil gul», 7 — «Safsar gul», 8 — «Atir gul») nomli qismlari, «Zaharli hayot» pyesasi chop etiladi.

1917-yil yanvar. «Kengash» nomli jurnal nashr etadi. 2- sondagi maqolalar boy va ulamolarga ma'qul tushmagani uchun jurnaldan chetlashtiriladi.

1917-yil 28 fevral. Qo'qondagi 3-son rus-tuzem maktabiga o'qituvchi etib tayinlanadi.

1917-yil 28 mart. Qo'qonda «Avom tarafdori» jamiyatini ochadi.

1917-yil. «Hurriyat» jurnalini chiqaradi, 5-soni chiqqach, uni muharrirlikdan chetlashtiradilar.

1917-yil. «Hoy, ishchilar», «Biz ishchimiz» she'rlarini yozadi.

1918-yil aprel. Turkistondan Qo'qonga qaytib, muallimlikni davom ettiradi.

1918-yil. Farg'ona «Nahori maktabda» muallimlik qiladi.

Farg'ona madaniy-maorif tashkilotiga kirib, musiqachi truppasi qoshida teatr guruhini tuzadi. Shu kundan boshlab Sayyor truppa Qizil Arvot frontigacha borib, 1920-yilgacha harbiy tashviqot-targ'ibot bo'limlari qaramog'ida madaniy xizmat ko'rsatadi.

«Ishchilar hayotidan», «Boy ila xizmatchi», «Tuhmatchilar jazosi» pyesalari, qator she'rlarini yozadi.

1919-yil 1 yanvar. Toshkentda «Turon» sahnasida «Ochlik qurbonlari» pyesasi sahnaga qo'yiladi.

Hamza boshliq teatr truppasi Turkiston frontining siyosiy boshqarmasi ixtiyoriga o'tib, o'lka musulmon siyosiy truppasiga aylantiriladi.

1920-yil 29 fevral. «Turk kuchi» truppasi Toshkentda «Yomon odat yoxud yosh xotin kasofati» asarini sahnaga qoʻydi.

1920-yil 25 mart. «Turk kuchi» truppasi Toshkentda «Loshmon fojiasi»ning 3 boʻlimi yoxud «Istibdod qurbonlari» asarini sahnaga qoʻydi.

1920-yil iyul. Andijonda teatr truppasini tashkil etadi.

1920-yil 4 dekabr. «Dor-ush-shafaqa» maktabida mudir boʻlib ishlaydi.

1921-yil mart. Buxoroda maorif va harbiy targʻibot-tashviqot shoʻbalari qoshida teatr truppasini tashkil qilib, 1921-yil oxirigacha Buxoro viloyatida madaniy xizmat koʻrsatadi.

1921-yil noyabr. Xorazmga borib, kasaba uyushmaning madaniy-maʼrifiy shoʻbasida, 1922-yildan boshlab esa maorif, teatr va targʻibot-tashviqot muassasalarida ishlaydi.

1921-yil. «Xorazm inqilobi» pyesasini yozadi.

1923-yil 10 fevral. Xoʻjaylida qozoq maktab-internatiga mudir etib tayinlanadi.

1924-yil iyun. Fargʻona viloyatiga qaytadi.

1924-yil sentabr. Fargʻona maorif qoʻmitasi qaramogʻidagi ong-bilim shoʻbasiga mudir oʻrinbosari etib tayinlanadi va viloyat teatr truppasining badiiy rahbari boʻlib xizmat qiladi.

1925-yil 10 avgust. Avval qishlogʻida yashay boshlaydi.

«Burungi qozilar yoki maysaraning ishi», «Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi» pyesalarini yozadi.

1926-yil 27 fevral. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy Qoʻmitasi birinchi boʻlib «Oʻzbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvonini beradi.

1926-yil oktyabr, noyabr oylari. Samarqand markaziy saylov komissiyasi ixtiyorida xizmat qiladi.

«Saylov oldida», «Burungi saylovlar» pyesalari va «Qora soch» operasini yozadi.

1927-yil. Qoʻqon temir yoʻl deposi ishchilari orasida musiqa toʻgaragi tuzib, unga rahbarlik qiladi.

«Yangi Fargʻona» gazetasida faol qatnashadi.

«Oʻzbek xotin-qizlariga», «Mart qurboni — Oynisa», «Bu kun — 8 mart» asarlarini yozadi.

1928-yil iyul. Shohimardon qishlogʻiga boradi, madaniy oromgoh ochadi, ishlab chiqarish arteli tuzadi, maktab, kattalar uchun kurs ochiladi.

- «Hujum xoinlarga», «Tursunoy marsiyasi»ni yozadi.
 1929-yil 18 mart. Shohimardonda bir to‘da mutaassib kuchlar tomonidan toshbo‘ron qilib o‘ldirildi.
 1939-yil. Shohimardonga Hamzaobod nomi beriladi.
 1964-yil. Namangan Davlat universitetiga nomi berildi.
 1964-yil. Hamza nomida Davlat mukofoti ta‘sis etildi.

ABDULLA QODIRIY

(1894—1938)

- 1894-yil 10 aprelda Toshkent shahrida bog‘bon Qodirbobo (1822—1924) oilasida dunyoga keladi.
 1903-yil. Eski usuldagi maktabda o‘qiydi.
 1906 (12 yoshida) — bir boyda xizmat qiladi.
 1912-yil. Samarqand darvoza Akram savdogarning tashqi hovlisida 7-son rus-tuzem maktabini tugatadi.
 1912—1915-yillar. Rasulmohammad boynikida prikazchilik qiladi.
 1914-yil. Beshyog‘och dahada madrasada tahsil oladi, arab, fors tillarini o‘rganadi.
 1915-yil. «Oyna» jurnalida ma‘rifatparvarlik g‘oyasi bilan sug‘orilgan «Ahvolimiz», «To‘y», «Millatimga» she‘rlari bosildi.
 1915-yil. Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi ta‘sirida 4 pardali «Baxtsiz kuyov» fojiasini yaratadi.
 1915-yil. «Juvonboz» hikoyasini nashr ettirdi.
 1916-yil. «Uloqda» hikoyasi yaratildi, 1923-yilda «Bilim o‘chog‘i» jurnalida bosildi.
 1917—1918-yillar. Toshkentda Eski shahar ozuqa komiteti sarkotibi.
 1919-yil. «Oziq ishlari» gazetasining muharriri.
 1921-yil. «Jinlar bazmi» hikoyasi yozildi.
 20-yillarda quyidagi taxalluslar bilan asarlar yozadi: Julqunboy (kambag‘al), Dumbul, Domla Dumbul, Dumbulnisa, Sovrinboy, Ovsar, Kalvak Mahzumning jiyani, J-boy, Toshpo‘lat tajang, Boyqush, Indamas So‘fi, Yo‘lovchi, Chin do‘st, Kampir, Mushtum, Chirmanda botir, Shapan mahzum, Shoshiy, Shilg‘ay, Bog‘bon, Shakkok, Go‘sxo‘r, Mulla Mushfiqiy...
 1922-yil. «Otam va bolshevik» hikoyasi «Inqilob» jurnalining 7-8 sonida bosildi.

1922-yil. Birinchi turkiy roman — «O'tgan kunlar» dan parchalar «Inqilob» jurnalida e'lon qilindi. Romanning I bo'limi 1924-yilda, II bo'limi 1925-yilda, III bo'limi 1926-yilda alohida kitob holida nashr etildi.

1923-yil. Qozi Yunus bilan «Mushtum» jurnalini tashkil qildi. 1-sonida «Mushtum ta'rifida» maqolasi bosildi.

1923-yil. «Mushtum» ning 2-sonida «Salomnoma» she'ri bosildi.

1924-yil. «Kalvak Mahzumning xotira daftaridan» hokiyasi «Mushtum» ning 24-sonida bosildi.

1924-yil. «Toshpo'lat tajang nima deydi?» hikoyasi «Mushtum» ning 25-sonida bosildi.

1924-yil. «Mushtum» ning 27-sonida «Matbuot kuni» maqolasi bosildi.

1924—1925-yillar. Moskvada Valeriy Bryusov nomli adabiyot institutida o'qiydi.

1924-yil. «Mushtum» ning 17-sonida «Moskvadan Mushtum» ga maqolasi bosildi.

1926-yil. «Mushtum» ning 27-sonida Ovsar imzosi bilan «Yig'indi gaplar» maqolasi e'lon qilindi. Shundan so'ng O'zbekiston Jinoyat qonunlari majmuasining «Rahbar xodimlarni obro'sizlantirish» degan moddasi bilan qoralandi. 2-yil qamoq jazosi beriladi, qariyb 3 oylik so'roq-tergovdan so'ng sudda o'zining haqligini isbotlovchi yozma nutqini o'qib beradi. 1926-yil 8 martda hibsga olinib, 1926-yil 17 iyunda ozod etiladi.

1926-yil. «Kulgu haqida», «Yozishg'uvchilarimizga», «O'tgan kunlar» hamda «O'tgan kunlar» tanqidi ustida ba'zi mulohazalar», «Tarjimai hol» maqolalari, «Shirvon xola nima deydi?» hikoyasi bosildi.

1928-yilda «Mehrobdan chayon» romanini yozib tugatdi, 1929-yilda nashr etildi.

1928-yil. M. Sheverdin «Za partiyu» jurnalida (3-son) bosilgan «Birinchi o'zbek romani» maqolasida romanni «mayda burjuaziya manfaatlarini ifodalagan, feodal o'tmishni ideallashtirgan, bizning roman emas», deb qoralaydi.

1932-yil. Yozuvchilar soyuziga qabul qilindi.

1932-yil. «Obid ketmon» qissasi yaratildi.

1935-yil. «Shubha» hikoyasi yozildi.

1936-yil. Onasi Josiyat (1861-yilda tugʻilgan) vafot etadi.

1936-yil. «Oʻqish-oʻrganish» maqolasi yozildi.

1937-yil. «Gʻirvonlik Mallaboy» hikoyasi yaratildi.

1936 — Oybek «Abdulla Qodiriyning ijod yoʻli» kitobida yozuvchi badiiy mahorati, asar tiliga yuksak baho beradi.

1937-yil 31 dekabr. Tunda hibsga olinadi.

1938-yil 5 oktyabr. Oʻzbekiston Jinoyat Kodeksining 57,66 moddalariga binoan SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sud qilib, millatchi, aksilinqilobchi, aksil shoʻroviy tashkilotga aʼzo deb, eng oliy jazo — otib oʻldirishga hukm qilinadi. Hukm bir kun oldin — 4 oktyabr kuni ijro etiladi.

1959-yil 9 oktyabr. Oqlandi.

CHOʻLPON

(Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Yunusov)

(1897—1938)

1897-yilda Andijon shahridagi Qatortarak mahallasida mayda savdogar oilasida tugʻiladi.

Otasi Sulaymon Yunus oʻgʻli (1874—1929) «Rasvo» taxallusi bilan sheʼr yozgan, sheʼrlari devon holiga keltirilgan. Otasini «Mullo Sulaymonqul bazzoz» ham deyishgan.

1904—13-yillar. Abdulhamid eski maktabda oʻqiydi. Rus-tuzem maktabini tugatadi.

Toshkentda «Sadoi Turkiston» gazetasi tevaragigajiplashgan Hamza, Abdulla Avloniy, Mirmuhsin Shermuhamedov, Tavallo, Xislat kabi maʼrifatparvarlar bilan tanishadi, ijodiy hamkorlik qiladi.

Andijon, Toshkent madrasalarida, shuningdek, Toshkent maʼrifatparvarlarining «Jamiyati xayriya» tashabbusi bilan Ufadagi «Oliya» madrasasida tahsil koʻradi. Arab, fors, turk, rus tillarini va adabiyotini puxta oʻrganadi.

1913 —14-yillar. Adabiy faoliyati boshlanadi. «Choʻlpon», «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik», «Qul» taxalluslari bilan ijod qiladi.

1914-yil 29 aprel. «Sadoi Turkiston» gazetasida birinchi feletoni «Qurboni jaholat» chiqadi.

1914-yil. «Boy» dramasi yaratildi.

1914-yil. Ma'rifatparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgan «Doktor Muhammadyor» qissasi yoziladi.

1915-yil. «Muhtaram yozuvchilarimizga», «Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar», «Adabiyot nadur?» maqolalari, «Sho'ro» jurnalida «O'sh» ocherki bosildi.

1918-23-yillar. «Ishtirokiyun», «Turkiston» gazetalarida, «Inqilob», «Tong» jurnallarida xizmat qiladi.

1919-yil. «TurkROSTA oynasi» gazetasining mas'ul muharriri, Farg'ona frontidagi «Darxon» harbiy gazetasida ishlaydi.

1919-yil. «Go'zal» she'ri yoziladi.

1920-yil. Bokuga Sharq qurultoyiga boradi.

1921-yil. «Og'darish», «Xalq», «Buzilgan o'lkaga», «Kurash» she'rlarini, «Tilimizning ishlanishi» maqolasini yozadi.

1921-yil. «Yorqinoy» dramasi yozildi, 1926-yilda Moskvada nashr etildi, «Xalil farang» dramasi yozildi, matni topilmagan.

1921-yil 30-iyun — 1922-yil 15-yanvar. «Buxoro axbori» gazetasida adabiyot bo'limi mudiri, 1922-yil Buxoro Xalq Jumhuriyati maorif nozirligida ishlaydi.

1922-yil. «Uyg'onish» she'rlar to'plami, «Ko'ngil» she'ri bosildi.

1922-yil. «Yo'l esdaligi» safamomasi «Bilim o'chog'i» jurnalida bosildi.

1923-yil. «Qor qo'ynida lola» hikoyasi «Inqilob» jurnalining 9—10-sonida bosildi. Shuningdek, «Oydin kechalar», «Nonushta», «Gavharoy» hikoyalari yaratildi.

1923-yil. «Turon» teatri, O'zbek davlat teatri truppasi direktori.

1924-yil. «Ko'klam keladur» she'ri, «500 yil» (Navoiy haqida) maqolasi bosiladi.

1926-yil. «Tong sirlari» she'rlar to'plami, «Cho'rining isyoni» dramasi (matni topilmagan), «Eski tanbur notasi» maqolasi yoziladi.

1927-yil. «Malikai Turondot» dramasi (matni topilmagan). «Novvoy qiz» hikoyasi bosildi.

1926-yil — 27-yillar. Moskvada 1924-yilda o'zbek artistlarining mahoratini oshirish uchun tashkil etilgan dramatik studiya rahbari, adabiy emakdoshi, Mayakovskiy, Yesenin bilan uchrashadi.

1927—30-yillar. Samarqandda drama teatrida adabiy emakdosh.

1934-yil. «Kecha va kunduz» romani yozildi. 1935-yil «Sovet adabiyoti» jurnalining 1-sonida I bobi bosildi. 1936-yil alohida kitob boʻlib chiqdi.

1934-yil. «Kuz», «Sharq nuri» sheʼrlari chiqdi.

1934-yil. «Yana oldim sozimni» sheʼri yoziladi.

1935-yil. Oʻzbekiston 10 yilligi toʻyiga «Soz» sheʼrlar toʻplamini bagʻishlaydi.

1937-yil 14-iyul «Millati ittihad» aʼzosi sifatida hibsga olindi.

1938-yil 5-oktyabr kuni otishga hukm qilindi. 4-oktyabr kuni Toshkentda otildi.

1957-yil 1-avgustda oʻqlandi, hukm bekor qilindi.

1958-yil 31-yanvar. Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasida shoir adabiy merosini oʻrganuvchi komissiya tuzildi.

1988-yil. Shoir asarlari, komissiya tuzilgandan soʻng, 30-yildan keyin xalqqa qaytarildi, bolalarga oid «Bahorni sogʻindim» sheʼrlar kitobi nashr etildi.

1991-yil. «Yana oldim sozimni» tanlangan asarlari chop etildi.

Choʻlpon oʻzbek tiliga quyidagi asarlarni tarjima qilgan: Shekspirning «Gamlet», Karlo Gossining «Malikai Turondot», Molerning «Xasis», E. Potening «Baynalminal», Pushkinning «Boris Godunov», «Dubrovskiy», Krilovning «Boʻri bilan qoʻzichoq», shuningdek, Xitoy shoirlari, Hayne, Sayot Nova, Shevchenko, A. Blok, E. Verxari, Lohutiy sheʼrlari, Gogol, Turgenev, Gorkiy, Chexov, Tagor va boshqalarning asarlari.

GʻAFUR GʻULOM

(1903—1966)

1903-yil 10-may. Toshkent shahrida Qoʻrgʻontegi mahallasida mehnatkash oilasida dunyoga keladi.

1916-yil. Samsonov nomli 8-rus-tuzem bilim yurtiga oʻqishga kiradi.

1918-yil. Bosmaxonaga harf teruvchi boʻlib ishga kiradi.

1919-yil 3-mart. Bodak mahallasidagi «Choʻlpon» maktabiga muallim etib tayinlanadi.

1923-yil. «Feliks bolalari» nomli birinchi sheʼrini yozadi.

1923-yil. Oʻrdada «Urfon» maktabini tashkil qiladi.

1924-yil. «Hayot» maktabiga muallim qilib tayinlanadi.

1926-yil. Uchinchi boquvchisiz bolalar uyiga mudir bo'lib ishlaydi.

1926—28-yillar. Yetti yillik «Urfon» maktabining mudiri, «Kambag'al dehqon» gazetasida mas'ul kotib bo'lib ishlaydi.

1929-yil 23-mart. O'rdadagi boshlang'ich maktabga o'qituvchi etib tayinlanadi.

1929-yil. «Muxbir sudi» pyesasi kitob bo'lib chiqadi.

1929-yil may—1930-yil 15-may. «Sharq haqiqati» gazetasida mas'ul kotib vazifasida ishladi.

1929-yil. V.V. Mayakovskiyning «Hayqiriq» poemasini o'zbek tiliga tarjima qiladi.

1931-yil 12-aprel. O'zAPP ning birinchi jumhuriyat kengashida qatnashdi va uning tarkibiga saylandi.

1931-yil. «Dinamo» she'rlar to'plami bosilib chiqdi.

1931-yil. «Yer yuzi» jurnalida Hodi Toqtoshning «Muhabbat tavbasi» dostoni tarjimasini chiqardi.

1931-yil. «Jo'rabo'za», «Yigit» to'plami», «Xitoydan lavhalar» dostoni, «Egalari egallaganda» she'rlar to'plami bosildi.

1932-yil. «Kulgi hikoyalari» to'plami, «Netay» qissasi nashr etildi.

1932-yil. «Tirik qo'shiqlar» she'rlar to'plami bosilib chiqdi.

1934-yil 11-mart. O'zbekiston yozuvchilarining Birinchi qurultoyida qatnashdi.

1934-yil. Yozuvchilarning I Butunittifoq syezdida qatnashdi.

1934-yil. «Ko'kan» dostoni alohida kitob holida chiqdi.

1935-yil. «Sizga» she'rlar to'plami, «Tirilgan murda» qissasi kitob bo'lib chiqdi.

1937-yil 1-mart. «Qizil O'zbekiston» gazetasida G'. G'ulom, Oybek, A. Majidiylarning «O'zbeknoma» dostonining qisqartirilgan varianti e'lon qilindi.

1938-yil. Shekspirning «Otello» tragediyasini o'zbekchaga o'girdi.

1938-yil sentabr. Navoiy adabiy merosini o'rganish komitetiga a'zo etib saylandi.

1938-yil. «Yodgor», «Shum bola» qissalari alohida kitob bo'lib chiqdi.

1939-yil. «Chashma» she'rlar to'plami chop etildi.

1940-yil. «Mukofot», «Yangi she'rlar» to'plamlari chop etildi.
1941-yil. «O'lim yovga» she'rlar to'plami va «Sen yetim emassan» she'ri chop etildi.

1942-yil 1-mart. O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida G'arbiy frontda bo'ldi.

1942-yil 22-fevral. Muqimiy teatrida ozarbayjon dramaturgi M.R. O'rdubodining «Besh so'mlik kelin» pyesasi G'. G'ulom tarjimasida qo'yildi.

1943-yil noyabr. O'zFA haqiqiy a'zosi qilib saylandi.

1943-yil dekabr. Moskvada o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi qatnashdi.

1944-yil 8-mart. Hozirgi Milliy teatrdan Lope de Veganing «Qo'zibuloq» pyesasi G'. G'ulom tarjimasida qo'yildi.

1946-yil. «Sharqdan kelayotirman» she'riy to'plami uchun II darajali Davlat mukofoti berildi.

1947-yil. «Tanlangan she'rlar» kitobi chiqdi.

1948-yil. Mirzo Tursunzodaning «Hindiston qissasi» kitobi G'. G'ulom tarjimasida nashr qilindi.

1948-yil. «O'zbekiston chirog'lari» to'plami nashr etildi.

1949-yil. «O'zbek elining g'ururi» to'plami nashr etildi.

1950-yil. «Sharaf qo'lyozmasi» to'plami bosmadan chiqdi.

1951-yil 17-noyabr. Moskvada o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi qatnashdi.

1953-yil. «Tanlangan asarlar» kitobi chiqdi.

1954-yil 18—26-dekabr. SSSR Yozuvchilar II syezdida qatnashdi.

1955-yil. Nozim Hikmatning «Bir sevgi afsonasi» pyesasi G'. G'ulom tarjimasida nashr etildi.

1956—1959-yillar. 4 jildlik «Tanlangan asarlari» nashr etildi.

1963-yil 9-may. «O'zbekiston xalq shoiri» faxriy unvoni berildi.

1964—1967-yillar. Besh jildlik «Asarlar»i chop etildi.

1964-yil 19-mart. V. Shekspirning «Qirol Lir» tragediyasi G'ofur G'ulom tarjimasida sahnaga qo'yildi.

1966-yil 10-iyul. Shoirning yuragi urishdan to'xtadi.

1966-yil 17-dekabr. Sirdaryo Davlat pedagogika instituti, Toshkentdagi 169-maktab, Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi «O'zbekiston jamoa xo'jaligi», Qo'qon shahridagi adabiyot muzeyi, Davlat badiiy adabiyot nashriyotiga G'.G'ulom nomi berildi.

OYBEK

(1905—1968)

1905-yil 10-yanvar. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek Toshkentning Eski shaharida o'rtahol hunarmand — to'quvchi oilasida dunyoga keldi.

1911—1917-yillar. Eski usuldagi maktabda tahsil oladi.

1918—1921-yillar. Namuna nomli boshlang'ich maktabda ta'lim oladi.

1921—1925-yillar. Navoiy nomidagi Toshkent pedagogika texnikum-internatida o'qishni davom ettiradi.

1922-yil. «Armug'on» jurnalida (1-son) «Cholg'u tovushi» e'lon qilinadi.

1925-yil 25-sentabr. O'rta Osiyo Davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakultetining iqtisod bo'limiga o'qishga kiradi.

1926-yil. «Tuyg'ular» nomli birinchi she'rlar kitobi bosmadan chiqadi.

1927-yil. Sankt-Peterburgdagi Plexanov nomli Xalq xo'jaligi institutida o'qishni davom ettiradi.

1929-yil. «Ko'ngil naylari» to'plami nashr etildi.

1929—1930-yillar. Oliy tahsilni yana Toshkentda davom ettirib, O'rta Osiyo Davlat universitetining iqtisodiyot fakultetini tugatadi.

1932-yil. «Dilbar — davr qizi» dostonini yozadi, 1933-yilda alohida kitob bo'lib chiqadi.

1932-yil. «Mash'ala» she'rlar kitobi nashr etiladi.

1933-yil. «Sovet adabiyoti» jurnalida «O'ch» dostoni bosildi.

1933-yil. Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutida ilmiy xodim bo'lib ishlaydi.

1934—1937-yillar. O'zFAning Til va adabiyot ilmiy tekshirish institutida ilmiy xodim bo'lib ishlaydi.

1934-yil. «Temirchi Jo'ra» dostoni bosildi.

1934-yil. «Mash'ala» jurnalining 4-sonida «Globus» sarlavhali birinchi hikoyasi e'lon qilinadi.

1934-yil. «Baxtigul va Sog'indiq» dostoni va she'rlar kitobi bosmadan chiqdi.

1936-yil. A.S. Pushkinning «Yevgeniy Onegin» she'riy romanini o'zbek tiliga tarjima qiladi, roman 1937-yilda alohida kitob bo'lib chiqadi.

1936-yil. «Guliston» jurnalining 10-sonida Ispaniya voqealariga bag'ishlangan «Qahramon qiz» dostoni bosiladi.

1938—1941-yillar. O'zbekiston o'quv-pedagogik nashriyatida muharrir va tarjimon bo'lib ishlaydi.

1938-yil. «Qutlug' qon» romanini yozib tugatadi (roman 1940-yilda o'zbek tilida, 1943-yilda rus tilida, 1949-yilda uyg'ur va chex, 1950-yilda slovak, 1959-yilda qirg'iz va ozarbayjon tillarida alohida kitob bo'lib chiqadi).

1939-yil. «Antik adabiyot» xrestomatiyasining 2 jildli (Rim adabiyoti) va «Sosunli Dovud» eposi Oybek tarjimasida alohida kitob shaklida nashr etiladi.

1941-yil. Haynrix Haynening «Lirik she'rlar»i Oybek va Mirtemir tarjimasida nashr etiladi.

1942-yil. «Navoiy» romanini yozib tugalladi (roman 1944-yilda o'zbek tilida, 1945-yilda rus tilida, 1947-yilda latish, 1948-yilda litva, eston, chex, fransuz, 1949-yilda qozoq, 1950-yilda ukrain, 1952-yilda uyg'ur, 1955-yilda turkman tillarida kitob bo'lib chiqdi).

1943-yil 4-oktabr. O'zFANing ijtimoiy fanlar bo'yicha akademigi qilib saylandi.

1943—1951-yillar. O'zFA ijtimoiy bo'limining raisi lavozimida xizmat qiladi.

1944-yil. «Mahmud Tarobiy» operasining librettosi yaratiladi.

1945-yil. M.Yu. Lermontovning «Maskarad» pyesasini tarjima qiladi.

1945—1949-yillar. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining raisi, «Sharq yulduzi» jurnalining bosh muharriri.

1946-yil 27-iyun. «Navoiy» romaniga Davlat mukofoti berildi.

1947-yil. «Qizlar» dostonini nashr etadi.

1948-yil. «Hamza» dostonini yozib tugatdi.

1949-yil. «Oltin vodiyan shabadalar» romanini yozib tugatdi.

1949-yil. «Dostonlar» kitobi nashr etildi.

1950-yil. «Zafar va Zahro» dostonini yozib tugatdi.

1951-yil. O'zbekiston Oliy Sovetiga deputat qilib saylandi.

1954-1959-yillar. O'zbek tilida 4 jildlik «Tanlangan asarlar»i bosib chiqarildi.

1955-yil. «Quyosh qo'shig'i» she'rlar va dostonlar kitobi nashr etiladi.

- 1957-yil. «Nur qidirib» qissasini yozib tugatdi.
1957—1968-yillar. «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnalining bosh muharriri.
1959-yil. «Quyosh qoraymas» romani nashr etiladi.
1963-yil. «Bolalik» qissasi nashr etiladi. Qissaga 1964-yil 14-noyabrda Davlat mukofoti beriladi.
1965-yil 23-sentabr. O‘zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berildi.
1965-yil. «Ulug‘ yo‘l» romanini yozib tugatadi.
1967-yil. «Navoiy gulshani» maqolalar to‘plami nashr etildi.
1968-yil 4-iyunda vafot etdi.
1968-yil. «Guli va Navoiy» dostoni bosildi.
1968—1975-yillar. 10 jildlik «Asarlar»i bosilib chiqdi.
1974-yil. «Alisherning bolaligi» qissasi e‘lon qilindi.

UYG‘UN

(1905—1990)

1905-yil 14-may. Rahmatulla Otaqo‘ziyev — Uyg‘un Janubiy Qozog‘iston viloyatining Marki qishlog‘ida xizmatchi oilasida tug‘ildi. Otasi Otaqo‘zi Qosimjonov avval Farg‘onada yashagan, tirikchilik o‘tkazish qayg‘usida Markiga borgan. Onasi Karomat opa erta vafot etib, Rahmatullani ikkinchi ona — To‘fa opa tarbiyalagan. Buvisi Oyimqiz cho‘pchaklari, Tursun xola ertaklari, tog‘asi xonadonidagi qissaxonliklar ta‘sirida voyaga etgan.

1913—17-yillar. Markida eski usuldagi maktabda o‘qiydi.

1923—25-yillar. Toshkent pedagogika texnikumida o‘qiydi.

1925-yil. «Yer yuzi» jurnalida birinchi «K.o‘nglim» she‘ri bosiladi.

1925—27-yillar. Toshkent qishloq xo‘jalik texnikumida til va adabiyotdan dars beradi.

1927—30-yillar. Samarqand Pedagogika akademiyasi til va adabiyot fakultetida o‘qiydi.

1929-yil. Birinchi she‘rlar to‘plami «Bahor sevinchlari» bosiladi. «Mart kunlarida» poemasi chiqadi.

1930-yildan O‘zbekiston Davlat nashriyotida badiiy bo‘lim boshlig‘i, «Qurilish» jurnalida mas‘ul kotib, Oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchi, ilmiy-tekshirish institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlaydi.

1930-yil. «Kolxozchi qiz» poemasini yozdi.

1931-yil. «Jontemir» poemasini yaratdi. «Hikoyalar» kitobi chiqdi.

1933-yil. «Ikkinchi kitob» she'rlar to'plamini nashr ettirdi.

1934-yil. «Gulasan» poemasini yaratdi.

1935-yil. «Ukraina yellari» poemasini yaratdi.

1936-yil. «Uyg'un she'rlari», «Quyosh o'lkasiga» kitoblari chiqdi.

1938-yil. «Gulandom» baletining librettosini yozdi.

1939-yil. «She'rlar», «Muhabbat she'rlari» kitoblarini chop ettirdi.

1942-yil. «Ona» pyesasi, «Zafar taronalari» she'riy to'plami chiqdi.

1942-yil. «Alisher Navoiy» kinofilmi ssenariysini yozishda ishtirok etdi.

1942-yil. Kinofilm ssenariysini yozishda ishtirok etdi.

1943—48-yillar. «Oltinko'l» muzikali dramasi, «Girdob» dramasi, «Alisher Navoiy» (Izzat Sulton bilan hamkorlikda) dramasi, «O'zbekiston qilichi» (N. Pogodin, Hamid Olimjon, Sobir Abdulla bilan hamkorlikda) «G'azab va muhabbat» she'riy to'plami chiqdi.

1944-yil. «Qaltis hazil» komediyasi, «She'rlar» kitobi chiqdi.

1945-yil. «Yolg'onchining jazosi» she'riy ertagi bosildi.

1946-yil. «Qorbobo» she'riy to'plami chiqdi.

1947-yil. «Hayot qo'shig'i» dramasi, «O'zbekiston» she'riy to'plami chiqdi.

1948-yil. «Asrlar» pyesasi, «Hadya», «Hayot ishq» she'riy to'plami chiqdi.

1949-yil. «Navbahor» pyesasi yozildi.

1950-yil. «She'rlar to'plami» chop etildi.

1951—54-yillar. O'zbekiston yozuvchilari uyushmasining raisi.

1955-yil. «So'nggi pushaymon» dramasi yaratildi.

1956-yil. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni berildi.

1958-yil. «Hurriyat» dramasi yaratildi. «Yo'l tuhfalari» she'riy kitobi chop etildi.

1960-yil. «Tinchlik kuylari» she'rlar to'plami chiqdi.

1961-yil. «Hayot chaqiradi» she'riy to'plami bosildi.

1963-yil. «She'rlar» kitobi chiqdi, «Parvoz» dramasi sahnalashtirdi.

1964-yil. «Shubha» pyesasi sahnalashtirildi.

1965-yil. «Qotil» («Muqaddas burch») pyesasi yaratildi, «Tanlangan asarlar»i chiqdi.

1965-yil. O'zbekiston xalq shoiri unvoni berildi.

1966-yil. «Parvona» dramasi, «Bahor va men» she'rlar to'plami nashr etildi.

1967-yil. O'zbekiston Davlat mukofoti laureati bo'ldi.

1970-yil. «Tong qo'shig'i» she'riy to'plami chop etildi.

1971-yil. «Laqma» pyesasi yaratildi.

1974-yil. O'zbekiston Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi. Tarjima va ilmiy-tanqidiy asarlari ham bor.

1978-yil. «Abu Rayhon Beruniy» dramasi sahnalashtirildi.

1974-yil. «Mening ikki onam bor» she'riy to'plami nashr qilindi.

1975-yil. «Qopqon» pyesasi sahnalashtirildi.

1974-yil. «Asarlar» (6 jildlik) nashr qilindi.

1979-yil. «Abu Ali Ibn Sino» dramasi yaratildi.

1980-yil. «Davrim tarovati», «Quvnoq xandalar» she'riy to'plamlari e'lon qilindi.

1982-yil. «Zebunniso» dramasi sahnalashtirildi.

1985-yil. Mehnat Qahramoni unvoni berildi.

ABDULLA QAHHOR

(1907–1968)

1907-yil 17-sentabr. Qo'qon shaharidagi Ko'mir bozori mahallasida tug'ildi.

Otasi temirchi bo'lib, qishloqma-qishloq ko'chib yurgan. Shuning uchun Abdullaning yoshligi Yaypan, Nursux, Quddash, Buvayda, Tolloq, Olg'or, Yulg'unzor, Oqqo'rg'on qishloqlarida kechgan.

Buvaydada otin ayada, Valixon so'fi maktabida o'qiydi. Otasiga bosqon bosib, qarashadi. Otasi unga «Dala va Muxtor», «Bahori donish», «Boboravshan» kitoblarini o'qib beradi.

Oqqo'rg'on Muhammadjon qorining jadid maktabida ta'lim oladi.

«Gulshani Dilafgor», «Bolalar bogʻchasi», «Ajoyib ul-maxluqot» kitoblarini oʻqiydi. Abdulla Avloniy, Tavallo asarlarini oʻrganadi.

1919—1922-yillar. Maktablarda oʻqiydi («Urfon» nomli maktabda, maktab «Istiqbol» maktabiga koʻchadi, u maktab-internatga aylanadi, internat «Kamuna» maktabiga aylanadi).

1922—1924-yillar. Pedagogika bilim yurtida (Dorilmuallimin) oʻqiydi. Qori-Niyoziy 20 nafar talabani tanlab oladi. Ular orasida Abdulla Qahhor ham bor edi.

1924-yil. «Oy kuyganda» nomli birinchi sheʼriy hajviyasi «Mushtum» jurnalida bosiladi.

1925-yil. Toshkentga ishga ketadi. Shundan yozuvchilik, jurnalistik faoliyati boshlanadi. «Norin Shilpiq», «Nish», «Gul yor», «Mavlton kufur», «Yalangoyoq» taxalluslarini qoʻllaydi.

1926—29-yillar. SAGU ninig ishchilar fakultetida oʻqiydi.

1929-yil. Qoʻqonda malaka oshirish kursida muallim, «Yangi Fargʻona» gazetasida masʼul kotib, «Chigʻiriq» boʻlimining boshligʻi.

1930-yil. Toshkent shahriga koʻchadi.

1930—1933-yillar SAGU ning pedagogika fakultetida oʻqiydi.

1932-yil. «Qishloq hukm ostida» nomli birinchi kitobi nashr etiladi. Soʻng «Olam yasharadi», «Tangrining kulgisi» kitoblari chiqadi.

1933-yil. «Qotilning tugʻilishi» qissasi yozildi.

1933—35-yillar. Til va adabiyot institutida aspirant.

1938-yil. Oʻzbekiston Davlat nashriyoti badiiy adabiyot boʻlimida muharrir.

1939—46-yillar. «Qoʻshchinor» romani «Sharq yulduzi» jurnalida eʼlon qilinadi.

1943-yil. «Sovet adabiyoti» jurnalida masʼul kotib.

1944-yil. Urush qahramoni Ahmadjon Shukurov haqida «Oltin yulduz» qissasini yozadi. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushi yillarida qahramon Qoʻchqor Turdiyev haqida «Dardaqdan chiqqan qahramon» qissasini yozadi.

1947-yil. «Qoʻshchinor» romani alohida kitob boʻlib chiqadi.

1949-yil. «Yangi yer» («Shohi soʻzana») komediyasini yozadi.

1950-yil. «Qoʻshchinor» romani «Qoʻshchinor chiroqlari» nomi bilan qayta nashr etiladi.

1951-yil. «Shohi soʻzana» («Yangi yer») komediyasi Davlat mukofotiga sazovor boʻladi.

1953-yil. «Ogʻriq tishlar» komediyasi yoziladi.

1954—56-yillar. Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi.

1957-yil. «Sarob» romani qayta nashr etildi.

1958-yil. «Sinchalak» qissasi yozildi.

1959-yil. «Zilzila» qissasi yaratildi.

1962-yil. «Tobutdan tovush» qissasi yozildi.

1965-yil. «Oʻtmishdan ertaklar» qissasi respublika mukofotiga sazovor boʻldi.

1966-yil. «Ayajonlarim» komediyasi yozildi.

1967-yil. Oʻzbekiston Xalq yozuvchisi unvoni berildi.

1968-yil. «Muhabbat» qissasi chop etildi.

1968-yil 25-mayda vafot etdi.

1968-yil. «Tobutdan tovush» komediyasi yangidan Satira teatrida qoʻyildi.

MAQSUD SHAYXZODA

(1908—1967)

1908-yil 7-noyabrda Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqdosh shahrida Maʼsumbek oilasida tugʻildi.

1920-yil. Boshlangʻich maktabni tamomladi.

1921—25-yillar. Bokudagi dorilmuallimin (oʻqituvchilar bilim yurti) da oʻqidi.

1921-yil. Birinchi sheʼri «Qizil askar qoʻshigʻi» bosiladi.

1925—27-yillar. Dogʻistondagi Darband, keyincha Boʻynoq shaharlarida oʻqituvchilik qiladi, ayni paytda Boku oliy pedagogika institutida sirdan taʼlim oladi.

1927-yil. «Narimon haqida xalq masali» kichik qissasi «Maorif va madaniyat» (Boku) jurnalida bosiladi.

1923—28-yillar. «28 aprel inqilobi» pyesasi sahnaga qoʻyiladi.

1927-yil. Dogʻistonning RSFSR tarkibiga kirishi xususidagi munozarada qatnashib, millatchilikda ayblanadi, hibsga olinadi, 3 yilga surgun qilinadi.

1928-yil. May oyida surgun muddatini oʻtash uchun Toshkentga keladi. Toshkentda ozarbayjonliklar uchun ochilgan Narimonov nomli maktabda oʻqituvchilik qiladi. Toshkent pedinstitutida sirdan

o'qiydi. «Sharq haqiqati», «Qizil O'zbekiston» gazeta redaksiyalarida ishlaydi.

1929-yil. «Sharq haqiqati» gazetasida o'zbek tilida yozilgan «Traktor» she'ri bosiladi.

1932-yil. «Loyiq soqchi».

1933-yil. «O'n she'r», «Undoshlarim» kitoblari.

1934-yil. «Uchinchi kitob».

1936-yil. Aspiranturani tugatadi.

1936-yil. «O'rtoq», «Tuproq va haq», «Meros», «Chirog'», poemalari.

1937-yil. «O'n ikki» kitobi.

1938-yil. «Saylov qo'shig'lari» kitobi.

1939-yil. «Yangi devon» kitobi.

1940-yil. «Ovchi qissasi», «Iskandar Zulqarnayn» poemalari yozildi.

1942-yil. «Kurash nechun?» to'plami chop etildi.

1943-yil. «O'n birlar», «Jenya», «Oqsoqol», «Ahmadjonning himmati» dostonlarini yozdi.

1944-yil. «Ko'ngul deydiki» she'riy to'plami, «Uchinchi o'g'il» dostoni bosildi.

1945-yil. «Jaloliddin Manguberdi» dramasi yaratildi.

1946-yil. «Zamon torlari» she'rlar to'plami chiqdi.

1947-yil. «O'n besh yilning daftari» she'rlar to'plami bosildi.

1948-yil. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi, so'ng dotsent bo'ldi. Umrining oxirigacha Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutida dars berdi.

1949-yil. «Olqishlarim» she'rlar to'plami nashr qilindi.

1950-yil. «Shu'la» to'plami nashr etildi.

1958-yil. «Chorak asr» devoni kitobi, «Toshkentnoma» dostoni chop etildi.

1960-yil. «Mirzo Ulug'bek» tragediyasini yozdi.

1961-yil. «Yillar va yo'llar» to'plamini nashr ettirdi.

1966-yil. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni berildi.

1967-yil. «Xiyobon» she'rlar to'plami bosildi.

1967-yil 19-fevralda vafot etdi.

1969—74-yillar. Olti jildlik «Asarlari» chop etildi.

1988-yil. «Dunyo boqiy» she'rlar to'plami chiqdi.

HAMID OLIMJON

(1909—1944)

1909-yil 12-dekabr. Jizzaxda mehnatkash oilasida tavallud topadi.
1918-yil. Jizzax shahridagi Narimonov nomli to'liqsiz o'rta maktabda o'qiydi.

1923-yil. Samarqanddagi O'zbek bilim yurtiga o'qishga kiradi.

1925-yil. Bilim yurtining «Yosh kuch» devoriy gazetasi va «Uchqun» qo'lyozma jurnalida dastlabki she'r va maqolalari bosiladi.

1926-yil. «Kimdir» nomli birinchi she'ri e'lon qilinadi.

1926—1927-yillar. «Zarafshon» gazetasi umumiy shu'ba bo'limi mudirining muovini.

1928-yil. O'zbekiston Oliy pedagogika instituti (1930-yildan boshlab — O'zbekiston Davlat pedagogika akademiyasi)ning iqtisod fakultetiga o'qishga kiradi.

1929-yil. Birinchi she'rlar to'plami «Ko'klam» bosilib chiqadi.

1929-yil. Qrimda V.V. Mayakovskiy bilan uchrashadi.

1930-yil. «Tong shabadasi» hikoyalar to'plami nashr etiladi.

1932-yil 1-iyun. Pedakademiyaning ijtimoiy-iqtisodiy fakultetini tugatadi.

1931-yil 10-may. «Qurilish» jurnalining mas'ul kotibi.

1931-yil 7-avgust. Toshkentga ko'chib kelib, yoshlar gazetasida bir necha oy mas'ul kotib lavozimida xizmat qiladi.

1931-yil. «Olov sochar» she'rlar to'plami e'lon qilinadi.

1932-yil 8-fevral. Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutining katta ilmiy xodimi.

1932-yil. «Baxtlar vodiysi» she'ri e'lon qilinadi.

1932-yil 1-iyun — 1933-yil 1-aprel. Ayni paytda «O'zbekiston sho'ro adabiyoti» jurnalida mas'ul kotib vazifasini bajaradi.

1932-yil 25-aprel. O'zbek adabiyoti bo'yicha dotsent unvoni beriladi.

1932-yil. «Poyga», «O'lim yovga» she'rlar to'plamlari bosmadan chiqadi.

1936-yil iyun-iyul. A.S. Pushkinning «Kavkaz asiri», «Suv parisi» asarlarini tarjima qiladi.

1936-yil. «Daryo kechasi» she'rlar to'plami nashr etiladi.

1936—1937-yillar. N. Ostrovskiyning «Po'lat qanday toblandi» romanini tarjima qiladi.

1937-yil 30-mart. «O‘rik gullaganda» she‘ri yaratildi.

1937-yil. «She‘rlar» to‘plami bosilib chiqadi.

1938-yil yanvar. O‘zbekiston O‘quv-pedagogika Davlat nashriyoti til va adabiyot bo‘limining mudiri.

1938-yil. «Zaynab va Omon» dostoni yaratildi.

1939-yil 27-aprel. O‘zbekiston Yozuvchilarining II syezdida Respublika Yozuvchilar uyushmasi hay‘ati raisi qilib saylanadi.

1939-yil 23-dekabr. Katta Farg‘ona kanali qurilishidagi samarali madaniy xizmatlari uchun orden bilan mukofotlanadi.

1939-yil. «O‘lka» va «Oygu‘l va Baxtiyor» she‘riy kitoblari nashr etiladi.

1940-yil. «Baxt» she‘rlar to‘plami bosmadan chiqadi.

1942-yil 29-aprel. O‘zbek Davlat opera va balet teatrida Hamid Olimjon, N.Pogodin, Uyg‘un va Sobir Abdulla librettosi asosida sahnalashtirilgan «O‘zbekiston qilichi» musiqali dramasi premerasi bo‘lib o‘tadi.

1942-yil. «Qo‘lingga qurol ol» hamda «Ona va o‘g‘il» she‘riy to‘plamlari bosilib chiqadi.

1943-yil 17-fevral. Delegatsiya tarkibida Markaziy frontga boradi.

1943-yil 21-avgust. O‘zbek Davlat drama teatrida «Muqanna» spektaklining premerasi bo‘lib o‘tadi.

1943-yil 4-noyabr. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi qilib tasdiqlandi.

1943-yil. «Ishonch» she‘rlar to‘plami nashr etiladi.

1944-yil. So‘nggi asari «Jinoyat» yozildi.

1944-yil 3-iyulda fojiali vafot etadi.

1944-yil 21-avgust. Toshkent shahridagi Baliqchi ko‘chasiga, Samarqand viloyat musiqali drama va komediya teatriga, Jizzaxdagi pedagogika o‘quv yurtiga, Jizzax mahallasiga Hamid Olimjon nomi berilgan.

KOMIL YASHIN

(1909—1997)

1909-yil 25-dekabr. Andijon shahar, Qoramulla mahallasida mayda savdogar oilasida tug‘ildi.

1915-yil. Komiljon 6 yoshdan akasi Abdulhakim bilan Duoxonaziz masjidi huzuridagi eski maktabda, domla Fahriddin qo‘lida o‘qiydi.

1918-yil. «Vatan» nomli, soʻng Oʻgʻuzxon nomli yangi maktabda oʻqiydi.

1921—22-yillar. Rus maktabida oʻqiydi.

1922-yil. Hamza bilan uchrashadi.

1924-yil. Hamza bilan ikkinchi bor uchrashadi.

1925-yil. «Yangi Fargʻona» (Qoʻqon) gazetasida ilk sheʼri bosiladi.

1925—28-yillar. Sankt-Peterburgdagi Oʻrmon xoʻjaligi institutida oʻqiydi, sogʻligi yomonlashib, Andijonga qaytadi.

1928—30-yillar. Andijon shahrida oʻrta maktabda oʻzbek tili va adabiyoti hamda fizikadan dars beradi, shu bilan birga, teatrdan adabiy emakdoshlik qiladi.

1926-yil. «Karquloq» dramasi yozildi.

1927-yil. «Teng tengi bilan», «Lolaxon» pyesalarini yaratildi.

1928-yil. «Ikki kommunist» dramasi yozildi.

1929-yil. «Quyosh» pyesasi yozildi.

1930—36-yillar. Andijon, Samarqand, Toshkent teatrlarida adabiy emakdosh boʻlib ishladi. «Quyosh» sheʼriy toʻplami bosildi. «Oʻrtoqlar» musiqali pyesasini yozdi.

1931-yil. «Kurash» sheʼriy toʻplami chiqdi.

1931-yil. «Yondiramiz» pyesasi yozildi.

1934-yil. «Ikki kommunist» dramasini qayta ishladi va «Tormor» deb nomladi.

1935-yil. «Gulsara», «Nomus va muhabbat» pyesalarini yozdi.

1937-yil. Birinchi oʻzbek operasi «Boʻron»ning librettosini yozdi.

1939-yil. «Nurxon» musiqali dramasini yaratdi. Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi unvoni berildi.

1940-yil. Amin Umariy bilan hamkorlikda «Hamza» dramasini, «Ulugʻ kanal» (Mahmud Rahmon bilan) operasini yaratdi.

1942-yil. Sobir Abdulla, Uygʻun, Chustiy bilan «Davron ota» dramasini yozdi. «Oʻlim bosqinchilarga» dramasini yaratdi.

1944-yil. «Oftobxon», Alisher Navoiy dostoni asosida «Farhod va Shirin» musiqali pyesasini yozdi.

1946—49-yillar. Oʻzbekiston sanʼat ishlari boshqarmasi boshligʻi.

1949-yil. «General Rahimov» dramasi respublikada oʻtkazilgan konkursda mukofot oldi.

1950-yil. «Gulsara» operasi uchun Davlat mukofoti laureati bo'ldi.

1956-yil. Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Ravshanxon» dostoni asosida «Ravshan va Zulxumor» musiqali dramasi yaratdi.

1957-yil. «Yo'lchi yulduz» dramasi yozdi.

1961-yil. Kompozitor Sobir Boboyev bilan «Hamza» operasi yaratdi.

1960-yil. O'zFA muxbir a'zosi. Sobir Muhammedov bilan «Hamza» kinofilmi ssenariysini yozdi.

1967-yil. «Nurxon» va «Yo'lchi yulduz» pyesalari uchun respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

1969-yil. O'zbekiston FA haqiqiy a'zosi, O'zbekiston xalq yozuvchisi, Afrika va Osiyo mamlakatlari yozuvchilari bilan aloqa qiluvchi qo'mita raisi. «General Rahimov» kinossenariysini yaratdi.

1974-yil. Mehnat Qahramoni bo'ldi. «Inqilob tongi» dramasi yozdi.

1978—80-yillar. 6 jildlik asarlari nashr etildi.

1978-yil. Xalqaro «Nilufar» mukofoti laureati bo'ldi.

1980-yil. «Hamza» romanini yozdi.

1985-yil. Ko'p qismli «Olovli yo'llar» telepopeyasini yaratishda ishtirok etdi.

1989-yil. «Yodnoma» avtobiografik asarini yaratdi.

1992-yilda vafot etdi.

MIRTEMIR

(1910—1978)

1910-yil. Janubiy Qozog'iston viloyatining Turkiston tumanidagi Eski Iqon qishlog'ida chorvador-dehqon oilasida tug'ildi.

1917-yil. Ona tomonidan bobosi bo'lmish Isomiddin domla qo'lida o'qidi.

1919-yil. Qishloqda ochilgan No'g'ay domla (Asfandiyor) maktabiga o'tdi.

1926-yil. «So'nggi xat» sochmasini yozdi.

1928-yil. Birinchi kitobi «Sho'lalar qo'ynida» (sochmalar) bosilib chiqdi.

1929-yil. Toshkentdagi bilim yurtini tugatib, Samarqand Pedakademiyasiga o'qishga kirdi. O'sha paytdagi respublika rahbarining shaxsiy kotibi bo'lib ishladi. «Zafar» she'riy kitobi chiqdi.

1931-yil. «Qaynashlar» she'rlar kitobi chiqdi.

1932-yil 15-aprel. Oxunboboyev nomida Davlat agro-kolxoz institutining paxtachilik bo'limining eksternat tarzida tugatdi, «Kommuna», «Bong» she'riy kitoblari bosildi.

1934-yil. «Nomus» dostonini yozdi.

1936-yil. «Ayriliq» she'rini yozdi. «Poytaxt», «Ochlar o'lkasida» she'riy to'plamlari chiqdi.

1937-yil. «Dilkusho» dostoni, «Suv qizi» ertagini yozdi.

1938-yil. «Yangi hayot» gazetasida adabiy xodim bo'lib ishladi. 25-apreldan O'zbekiston Davlat filarmoniyasida adabiy xodimlik va tarjimonlik faoliyati boshlandi. «Oysanamning to'yida» dostonini yozdi.

1939-yil. «Farg'ona», «Baxshining aytganlari» dostonlarini yaratdi. Taras Shevchenkoning 125 yilligida Shevchenko yubileyi medali bilan mukofotlandi.

1941-yil. 18-apreldan bolalarni badiiy tarbiyalash lavozimiga o'tdi. «Davr qo'shiqlari» kitobi nashr qilindi. 5-iyuldan O'zbek opera va balet teatrida adabiy xodim bo'lib ishlay boshladi.

1944-yil. «O'ch», «Vatan uchun» ashulalar to'plami bosilib chiqdi.

1946-yil. «Qoraqalpoq daftari» turkum she'rlarini yozishga kirishdi. 1957-yilda tugatgan.

1947-yil. «Tanlangan she'rlar» kitobi chiqdi.

1948-yil. «Daryo bo'yida» dostoni yozildi.

1951-yil. Berdaqning «Tanlangan asarlar»ini o'zbek tilida chiqardi.

1952-yil. Gogol tavalludining 100 yilligiga «Kolyaska» qissasini tarjima qildi.

1953-yil. Nekrasovning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi?» asarini tarjima qildi.

1954-yil. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy maslahatchisi lavozimiga o'tdi.

1956-yil. Davlat nashriyotiga muharrir bo'lib ishga o'tdi. «Qirg'iz» qirg'iz eposini Uyg'un bilan hamkorlikda tarjima qildi.

- 1957-yil. «Surat» dostonini yozdi.
- 1958-yil. «Tanlangan asarlar»i chiqdi.
- 1959-yil. Orden bilan mukofotlandi.
- 1961-yil. «She'rlar», «Jilg'a bo'yida» kitoblari chiqdi.
- 1962-yil. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi.
- 1964-yil. «She'rlar» kitobi chiqdi. «Manas» tarjimasida kitob bo'lib chiqdi.
- 1965-yil. O'zbekiston Davlat nashriyotida katta muharrir.
- 1966-yil. Shota Rustavelining «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» asarini Shayxzoda bilan hamkorlikda tarjima qildi.
- 1967-yil. «Yangi she'rlar» kitobi chiqdi. «Birinchi Prezident» dramatik qissasi «Sharq yulduzi» jurnalida e'lon qilindi; «She'riy guldasta» kitobi chiqdi. Qozoq tilida «Sahro guli» kitobi chiqdi.
- 1970-yil. Medal bilan taqdirlandi. Uch jildlik «Asarlar»ining 1-jildli chiqdi.
- 1971-yil 17-iyun. O'zbekiston xalq shoiri unvoni berildi.
- 1972-yil. «Ki priklarim» kitobi chiqdi. Korney Chukovskiyning «Moydodir» kitobini tarjima qildi.
- 1973-yil. Rus tilida «She'rlar», qirg'iz tilida «Gultoji» kitoblari chiqdi.
- 1974-yil. «Tingla hayot» kitobi nashr etildi.
- 1975-yil. «Izlaganim» kitobi, Pushkinning «Lirika» kitobi shoir tarjimasida chiqdi.
- 1977-yil. «Tog'day tayanchim» kitobi chiqdi.
- 1978-yilda vafot etdi. «Yodgorlik» kitobi chiqdi.
- 1979-yil. Berdaq nomidagi mukofot bilan taqdirlandi.
- 1979-yil. «Tog'day tayanchim», «Yodgorlik» kitoblari uchun respublika mukofoti berildi. Ozarbayjon tilida «Ulfat» kitobi chiqdi.
- 1980—83-yillar. To'rt jildlik «Saylanma» asarlari chop etildi.

USMON NOSIR

(1912—1944)

- 1912-yil. Namangan shahar Chuqur ko'cha dahasida tug'ildi.
- 1921—24-yillar. Qo'qonda boshlang'ich maktabni tamomladi.
- 1924—29-yillar. Qo'qondagi 3-son internatda («dorilshafaqa»), yetimlar maktabida ta'lim-tarbiya oladi. 6-sinfdan she'r yoza

boshladi. «Bizning koʻzgu» (keyin jurnalga aylangan) devoriy gazetasida sheʼrlari chiqadi. Hamza bilan uchrashadi.

1929—30-yillar. Qoʻqonda pedagogika kursida ilmiy mudir, oʻqituvchi boʻlib ishladi. Adabiyot, muxbirlar toʻgaraklariga rahbarlik qiladi.

1930-yil. Moskvaga, kinematografiya institutining ssenariy fakultetiga oʻqishga boradi, kasallik tufayli Qoʻqonga qaytadi.

1931—32-yillar. Maktabda oʻqituvchilik qiladi.

1932—35-yillar. Samarqand pedakademiyasiga imtihonsiz oʻqishga qabul qilinadi.

1932-yil. «Quyosh bilan suhbat», «Safarbar satrlar» sheʼriy toʻplamlari nashr etiladi.

1933-yil. «Shoir» dostoni yoziladi.

1932—33-yillar. «Norboʻta» dostoni yaratiladi.

1934-yil. «Naxshon» dostoni yoziladi.

1935-yil. «Yurak» sheʼriy toʻplami bosiladi.

1935-yil. Toshkentga keladi. Yoshlar gazetasida ishlaydi.

1936-yil. «Mehrim» kitobi bosiladi.

1936-yil. Oilasini Qoʻqondan Toshkentga koʻchirib keladi.

1937-yil. «Xalq dushmani» sifatida hibsga olinadi.

1939-yil. Sibirga joʻnatiladi.

1939-yil. Magadan oʻlkasiga joʻnatildi. Kalima vodiysining ekspeditsiya koniga tashlanadi.

1941-yil. Havosi yumshoq Marinsk shahriga joʻnatiladi.

1944-yil. Kemerovo viloyati Suslov qishlogʻida vafot etadi.

1957-yil 30-martda oqlanadi.

1990-yil 4-iyun. Kemerovo viloyati Kuzbass shahrida xotira kechasi oʻtkaziladi.

1958-yil «Tanlangan asarlar»i nashr etildi.

1969—70-yillar. «Tanlangan asarlar» (ikki jildlik) nashr etildi.

1984-yil. «Yurak» kitobi bosildi.

ZULFIYA

(1915—1996)

1915-yil 1-mart. Toshkentning Oʻqchi mahallasida hunarmand oilasida tugʻiladi.

1931—34-yillar. Xotin-qizlar bilim yurtida oʻqiydi. Adabiy toʻgaraklarda qatnashadi va sheʼrlar mashq qiladi.

1931-yil 17-iyul. Birinchi she'ri «Men ishchi qiz» «Ishchi» gazetasida bosiladi.

1932-yil. Hamid Olimjon bilan uchrashadi.

1932-yil. «Hayot varaqalari» nomli birinchi she'rlar to'plami nashr etiladi. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida o'qiydi.

1933—35-yillar. O'zbekiston Davlat nashriyotida ishlaydi.

1935—38-yillar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi til-adabiyot instituti aspiranturasida o'qiydi.

1938-yil. Bolalar nashriyotida muharrir.

1939-yil. «Qizlar qo'shig'i» she'riy kitobi chiqadi.

1941-yil. O'zbekiston Davlat nashriyotida adabiyot bo'limi boshlig'i.

1943-yil. «Hulkar» kitobi, «Uni Farhod der edilar» poemasi nashr etildi.

1944-yil. «Hijron kunlarida» kitobi chiqadi.

1944-yil. Hamid Olimjon vafotiga atab «Kechir, qoldim g'aflatda», «Yulduz», «Ne balolarga etding muftalo», «Sen qaydasan, yuragim», «Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh», «Bahor keldi seni so'roqlab» she'rlarini yozadi.

1950—53-yillar. «O'zbekiston xotin-qizlari» jurnali bo'limi boshlig'i.

1950-yil. «Men tongni kuylayman» she'riy kitobi chiqadi.

1953-yil. «Dugonalar bilan suhbat» kitobi nashr etiladi. «Oydin» ocherki bosildi.

1954-yil. «Saodat» jurnalining bosh muharriri.

1958-yil. «Yuragimga yaqin kishilar» kitobi chiqadi. «Mushoira» she'ri, «Zaynab va Omon» operasi librettosi yozildi.

1965-yil. O'zbekiston xalq shoiri unvoni beriladi. «Kuylarim sizga» she'rlar to'plami, «O'ylar» adabiy maqolalari kitobi chop etiladi.

1967-yil. Neru xalqaro mukofoti laureati bo'ldi. «Quyoshli qalam» poemasini yozdi.

1970-yil. Nilufar nomli xalqaro mukofot laureati bo'ldi.

1972-yil. «Visol» she'rlar to'plami nashr etildi.

1972-yil. Bolgariya Xalq Respublikasining I-darajali Kirill va Mefodiy ordenini oldi.

«Inson» «sin» «dodai» «11»

1974-yil. 2 jildlik «Asarlar» to'plami chiqdi.

1975-yil. «Yillar, yillar» she'rlar kitobi chop etildi.

1976-yil. «Kamalak» she'rlar kitobi uchun Davlat mukofoti berildi. «Shalola» she'rlar kitobi chiqdi.

1984-yil. Mehnat Qahramoni unvoni berildi. Respublika Davlat mukofoti laureati bo'ldi. Hamid Olimjonning «Semurg'» dostoni asosida pyesa-ertak yozdi.

Orden va medallar bilan mukofotlangan.

1996-yilda vafot etdi.

SHAROF RASHIDOV

(1917—1983)

1917-yil. Jizzax shahrida dehqon oilasida tug'ildi.

1931-yil. To'liqsiz o'rta maktabni bitirib, Jizzax shahridagi Pedagogika texnikumiga o'qishga kirdi.

1934-yil. Texnikumni imtiyozli tugallab, Narimonov nomidagi to'liqsiz o'rta maktabda o'qituvchilik qildi.

1937—41-yillar. Samarqand Davlat universitetining filologiya fakultetida o'qiydi, she'rlar yoza boshlaydi.

1938—39-yillar. Samarqand viloyat gazetasida muharrir o'rinbosari.

1938-yil. «San'ating kulsin», «Quvonchli dillar», «Erkim» kabi dastlabki she'rlari yozildi.

1939—41-yil. Viloyat gazetasining mas'ul kotibi.

1941—42-yillar. Armiya safida xizmat qildi.

1943—44-yillar. Viloyat gazetasining muharriri.

1944—47-yillar. Samarqand viloyati partiya komitetining kotibi bo'lib ishlaydi.

1947—49-yillar. «Qizil O'zbekiston» gazetasining muharriri.

1949-50-yillar. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi.

1949-yil. «O'zbek sovet adabiyoti 25 yil ichida» kitobi chiqdi.

1950—59-yillar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti Prezidiumi Raisi.

1950-yil. «Tarix hukmi» kitobi bosildi.

1951-yil. «G'oliblar» qissasini yozdi.

1953—58-yillar. «Bo'rondan kuchli» romani ustida ishlaydi, 1958-yili bosiladi.

- 1954-yil. «Qahrim» sheʼrlar toʻplami bosiladi.
- 1956-yil. Hindiston safari taassurotlari asosida «Kashmir qoʻshigʻi» qissasini yozadi.
- 1958-yil. Toshkentda oʻtkazilgan Osiyo va Afrika yozuvchilari II konferensiyasi tashkiliy komitetining raisi.
- 1959-yil. «Ikki dil dostoni» (Viktor Vitkovich bilan hamkorlikda) nomli kinossenariysi bosilib chiqadi.
- 1959—83-yillar. Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Birinchi kotibi.
- 1960-yil. «Kamolot» nomli kino qissasi (Yuriy Karasev va Boris Privalov bilan hamkorlikda) eʼlon qilinadi.
- 1964-yil. «Qudratli toʻlqin» romanini eʼlon qiladi.
- 1965—69-yil. «Gʻoliblar» romanni yozdi.
- 1967-yil. «Doʻstlik bayrogʻi» kitobi bosildi.
- 1974-yil. Mehnat Qahramoni boʻldi.
- 1977-yil. Ikkinchi marta Mehnat Qahramoni unvonini oldi.
- 1977-yil. «Doʻstlik va birodarlik tili» kitobi eʼlon qilindi.
- 1981—83-yillar. Besh jildlik «Asarlar»i nashr etildi.
- 1983-yil. «Dil amri» qissasi bosildi.
- 1983-yil 31-oktabrda vafot etdi.

SAID AHMAD

(1920)

- 1920-yil. Toshkentda xizmatchi oilasida tugʻildi.
- 1927—29-yillar. Oʻrta maktabda, soʻng tasviriy sanʼat bilim yurtida oʻqidi.
- 1938-yil. «Mushtum» jurnalida xodim.
- 1938—41-yillar. Yoshlar gazetasining adabiy kotibi.
- 1940-yil. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetida oʻqiydi.
- 1940-yil. Birinchi hikoyalar toʻplami — «Tortiq» nashr etiladi.
- 1941—42-yillar. Oxunboboyev nomli yosh tomoshobinlar teatrida adabiy emakdosh.
- 1942—43-yillar. Radiokomitetda muharrir.
- 1942-yil. Mirmuhsin bilan hamkorlikda «Er yurak» kitobini chiqaradi.
- 1943—47-yillar. «Qizil Oʻzbekiston» gazetasida feletonchi.

1945-yil. Yosh tomoshobinlar teatrida «Sherzod va Gulshod» dramasi qoʻyiladi.

1948—50-yillar. «Sharq yulduzi» jurnalida nashr boʻlimi boshligʻi.

1948-yil. «Fargʻona hikoyalari» kitobi chop etildi.

1949-yil. «Qadrdon dalalar», «Muhabbat» kitoblari bosiladi.

1955—62-yillar. «Mushtum» va «Sharq yulduzi» jurnallarida ishlaydi.

1956-yil. «Alla» hikoyalar toʻplami nashr etildi.

1958-yil. «Povest va hikoyalar» kitobi bosildi.

1958-yil. «Hukm» qissasi yaratildi.

1961-yil. «Choʻl shamollari» kitobi bosildi.

1962-yil. «Oydin kechalar» kitobi chiqdi.

1964-yil. «Ufq» trilogiyasi yaratildi. Birinchi kitob — «45 kun» 1974-yilda, ikkinchi kitob — «Hijron kunlari» 1964-yilda, uchinchi kitobi «Ufq boʻsagʻasida» 1969-yilda yozildi.

1976-yil. «Kelinlar qoʻzgʻoloni» komediyasi yaratildi.

1977-yil. «Ufq» romani uchun Respublika Davlat mukofoti berildi.

1982-yil. Uch jildlik asarlari bosildi.

1985-yil. «Kelinlar qoʻzgʻoloni» komediyasi asosida kinofilm yaratildi.

1986-yil. «Kuyov» komediyasini yaratdi.

1988-yil. «Jimjitlik» romanini yozib tugatdi.

1989-yil. «Gʻildirak» hajviy qissasi yaratildi.

«Choʻl burguti» hikoyalari toʻplami, «Sud» qissasi, «Farmonbibi arazlaydi» komediyasi yaratildi.

1999-yil. Oʻzbekiston Qahramoni unvoni berildi. «Bir oʻpichning bahosi» kitobi nashr etildi. «Yoʻqotganlarim va topganlarim» kitobi bosildi.

2000-yil. Uch jildlik «Tanlangan asarlar» chop etildi.

2001-yil. «Qorakoʻz Majnun» kitobi bosilib chiqdi.

QUDDUS MUHAMMADIY

(1907—1997)

1907-yil. Toshkent shahrida dehqon oilasida dunyoga keldi.

Oʻrta Osiyo Davlat universitetining biologiya fakultetini tugatdi.

Dastlabki she'rlari «Sharq haqiqati» gazetasi hamda «Yer yuzi» jurnallarida chop etildi.

1936—37-yillar. «Sandal va pechka», «O'z-o'zini tanqid» dostonlari yozildi.

1941—44-yillar. Mashhur baxshi Islom shoirga kotiblik qildi.

1947-yil. «Sinov» to'plami nashr etildi.

1948—51-yillar. «Orzu keldi», «Bahor keldi», «Dunyoda eng kuchli nima?», «Qirq o'g'il va qiz» kitoblari chop etildi.

1952—1956-yillar. «Bizning do'stlarimiz», «Yangi uy», «Sen tug'ilgan kun», «Mehribon do'stlar», «Qo'ng'izboy bilan sichqonboy», «Tugmacha» to'plamlari nashr qilindi.

1957—1970-yillar. To'rt kitobdan iborat tanlangan asarlari, «Tabiat alifbosi», «Ochil dasturxon» asarlari nashr qilindi.

1970-yil. Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

1977-yil. O'zbekiston xalq shoiri unvoni berildi.

1997-yilda vafot etdi.

ASQAD MUXTOR

(1920—1997)

1920-yil 23-dekabr. Farg'ona shahrida temir yo'l ishchisi oilasida tug'ildi.

1931-yil. Bolalar uyida tarbiyalandi, Farg'ona shahridagi 1-maktabda o'qidi.

1936—37-yillar. Toshkentga keldi, jurnalistika texnikumida o'qidi.

1938—42-yillar. Avval Samarqand pedakademiyasida, so'ng SAGUda o'qidi.

1939-yil. «Sovet adabiyoti» jurnalida Buxoro hayoti haqida «Bizning avlodlar» nomli birinchi poemasi bosildi.

1941-yil. «Demon» poemasini tarjima qiladi.

1943-yil. «Dilkusho» poemasini yozadi.

1943—45-yillar. Andijon pedinstitutida adabiyot o'qituvchisi, kafedra mudiri.

1944-yil. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'ladi.

1945—48-yillar. Toshkentga keladi, Yoshlar gazetasida ishladi.

1944-yil. «Po'lat quyuvchi» poemasi chiqadi.

1948-yil. «Yaxshilikka yaxshilik» dramasi, «Katta yo'lda» poemasi, «Hamshaharlarim» she'rlar kitobi nashr etiladi.

- 1949-yil. Rus yozuvchisi A. Fadeev bilan uchrashadi.
- 1948—49-yillar. «Qizil O‘zbekiston» gazetasida bo‘lim boshlig‘i.
- 1949—53-yillar. «Sharq yulduzi» jurnalida adabiy xodim.
- 1950-yil. «Daryo tutashgan joyda» qissasi bosildi.
- 1952-yil. «Kolonna yo‘lga chiqdi» (e‘lon qilinmagan) qissasini yozdi.
- 1954-yil. «Rahmat, mehribonim» she‘rlar to‘plami chiqdi.
- 1955-yil. «Opa-singillar» romanini yaratdi.
- 1956-yil. «Chin yurakdan» she‘rlar kitobi bosildi.
- 1957-yil. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi kotibi.
- 1958-yil. «Tanlangan asarlar», «Qoraqalpoq qissasi» nashr etildi.
- 1956-yil. «Hayotga chaqiriq» she‘rlar kitobi chiqadi.
- 1960—65-yillar. «Sharq yulduzi» jurnalining bosh muharriri.
- 1961-yil. «Tug‘ilish» romanini yozdi.
- 1962-yil. «99 miniatyura» she‘rlar kitobi, «Sut achib qoldi», «Dunyo bolalari» hikoyalar to‘plamlari bosildi.
- 1964-yil. «Davr — mening taqdirimda» romanini yozdi.
- 1965—68-yillar. «Sharq yulduzi» jurnalining bosh muharriri o‘rinbosari.
- 1966-yil. «She‘rlar» kitobi chiqdi.
- 1969-yil. «Guliston» jurnalining bosh muharriri. «Mangulikka daxldor» poemasi, «Chinor» romanini yaratdi.
- 1970-yil. «Quyosh belanchagi», «Charxpalak» she‘riy kitoblarini nashr ettirdi.
- 1971-yil. «Yosh do‘stlarimga» kitobi chiqdi.
- 1974-yil. «Xonimning tug‘ilgan kunlari» hikoyasini, «Bo‘ronlarda bordek halovat» qissasini yaratdi.
- 1973—80-yillar. To‘rt tomlik asarlari nashr etildi.
- 1980-yil. «Yosh do‘stlarimga» (ikkinchi) kitobi, «Buxoroning jin ko‘chalari» qissasi chiqdi.
- 1982-yil. «Jar yoqasidagi chaqmoq» qissasi bosildi.
- 1987-yil. «Kumush tola» qissasi yaratildi.
- 1984-yil. «Amu» (Chorraha) romanini yaratdi.
- 1990-yil. «Dunyo bolalari» hikoyalari, «Yillarim» she‘rlar to‘plami, «Dol qoya» dostoni yaratildi. «Samandar» dramasi, «Yosh dovyuraklar» dramasi, «Mening o‘g‘lim» dramasi yaratildi.
- O‘zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berildi.

«Chinor» romani uchun Respublika Davlat mukofotini olgan.
Orden va medallar bilan mukofotlangan.

ODIL YOQUBOV

(1927)

1927-yil. Chimkent viloyati, Turkiston tuman, Otoboy (ilgari Qarnoq) qishlog'ida tug'ilgan.

1944-yil. O'rta maktabni tamomladi.

1945—50-yillar. Uzoq Sharqda harbiy xizmatni o'taydi.

1951—56-yillar. SAGUning rus filologiyasi fakultetida o'qiydi.

1951-yil. Birinchi asari «Tengdoshlar» qissasini yozadi.

1953-yil. «Dastlabki qadam» hikoyalar to'plamini nashr ettiradi.

1955—59-yillar. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi.

1955-yil. «Ikki muhabbat», «Chin muhabbat» hikoyalar to'plami, «Tozaxon» komediyasini yaratadi.

1957-yil. «Yurak yonmog'i kerak» pyesasini yozadi.

1958-yil. «Aytсам tilim kuyadi — aytmасam dilim» pyesasi va «Pyesalar» kitobini chop ettiradi.

1959—63-yillar. «Literaturnaya gazeta»da maxsus muxbir.

1960-yil. «Muqaddas» qissasini yozadi.

1961-yil. «Tilla uzuk» qissasi chiqadi. «Olma gullaganda» pyesasi yaratildi.

1962-yil. «Larza» qissasini yozadi.

1966—67-yillar. «O'zbekfilm»da bosh muharrir.

1963-yil. «Bir feleton qissasi», «Ayamajuz» qissalarini yozadi.

1966-yil. «Er boshiga ish tushsa» romani yaratilgan.

1967—70-yillar. «Literaturnaya gazeta»da maxsus muxbir.

1968-yil. «Qanot bo'ladi» qissasi yozildi.

1970—82-yillar. Ju. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinbosari. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi bosh muharriri.

1970—71-yillar. «Matluba» va «Izlayman» qissalari yozildi.

1973-yil. «Ulug'bek xazinasi» romani yozildi, unga Respublika Davlat mukofoti berildi.

1975-yil. «Billur qandillar» qissasi yaratildi.

- 1977-yil. «Diyonat» romani yozildi.
 1982-yil. «Koʻhna dunyo» romani yozildi.
 1987-yil. «Oq qushlar, oppoq qushlar» romani yaratildi.
 1988—92-yillar. Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi.
 1992-yil. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qoʻmitasi raisi.
 1996-yil. «Adolat manzili» romani yozildi. «Dilbarim» va «Bahor yomgʻirlari» kinossenariylarining muallifi.

PIRIMQUL QODIROV

(1928)

1928-yil. Tojikiston respublikasi Shahrison tumani Kengqoʻl qishlogʻida tugʻildi.

Urush yillari maktabda oʻqiydi, jamoa xoʻjaligi, yoʻl qurilishi, Bekobod metallurgiya zavodida ishlaydi.

1950-yil. «Studentlar» kitobi chiqadi.

1951-yil. ToshDUning sharqshunoslik fakultetini tugatadi.

1951—53-yillar. Moskvada M. Gorkiy nomidagi jahon adabiyoti institutida aspiranturada oʻqiydi. «Abdulla Qahhorning urushdan keyingi ijodi» mavzusi boʻyicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

1955—58-yillar. «Uch ildiz» romanini yozadi.

1959—61-yillar. «Qadrim» qissasini yaratadi.

1963-yil. Oʻzbekiston FA Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim.

1963—65-yillar. «Qora koʻzlar» romanini yozdi.

1968—73-yillar. «Jon shirin» hikoyasini yozdi.

1969-yil. «Erk» qissasi, «Insof» dramasi yozdi.

1971-yil. «Oʻylar» kitobi chop etildi.

1973-yil. «Xalq tili va realistik proza» kitobi bosildi.

1974-yil. «Akramning sarguzashtlari» qissasi, «Til va dil» kitobi, «Meros» qissasi yaratildi.

1975-yil. «Yayra institutga kirmoqchi» qissasi yozildi.

1977-yil. «Olmos kamar» romani yaratildi.

1978-yil. Respublikada xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi.

1980-yil. «Najot» (avval «Botir va bahillar») deb nomlangan kitobi yozildi.

1982-yil. «Yulduzli tunlar» romani yozildi va unga Respublika Davlat mukofoti berildi.

1981—87-yillar. «Avlodlar dovoni» romanini yozdi.

1997-yil. «Ona lochin nidosi» romanini yaratdi.

JUMANIYOZ JABBOROV

(1930)

1930-yil. Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Po‘loti qishlog‘ida dunyoga keldi.

1952-yil. Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatdi.

1952—53-yillar. Moskvadagi Oliy adabiyot kursida o‘qidi.

1953-yil. «Vatanimni kuylayman» to‘plami e‘lon qilindi.

1956-yil. «Bahor nafasi» kitobi chop etildi.

1957-yil. «Gulshan»;

1958-yil. «Maqsad yo‘lida»;

1961-yil. «Tog‘lar sadosi»;

1962-yil. «Ona yer qo‘shig‘i»;

1964-yil. «Subhidam xayollari»;

1966-yil. «She‘rlar»;

1967-yil. «Sahro sanami»;

1968-yil. «Yo‘ldagi o‘ylar»;

1970-yil. «Qishloqdagi haykal», «Lirika»;

1971-yil. «Ilhom daqiqalari»;

1974-yil. «Dostonlar»;

1978-yil. «E‘tiqod»;

1980-yil. «Muhabbat», «Saylanma» (ikki jildlik).

1983-yil. «Quyosh yurti».

1985-yil. «Xayolimda o‘zing».

1991-yil. «Ko‘nglim go‘zali» kitoblari chop etilgan.

Bundan tashqari, Jumaniyoz Jabborov «O‘jarlar» (1971), «Yillar o‘tib» (1975), «To‘ydan oldin tomosha» (1979) singari dramalar muallifi. M. Lermontov, Bayron, Firdavsiy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

1953—64-yillar. «Gulxan» jurnalining bosh muharriri.

1964—76-yillar. «Sovet O‘zbekiston» («O‘zbekiston ovozi») gazetasida bo‘lim mudiri, bosh muharrir o‘rinbosari.

1976—81-yillar. Respublika partiya markaziy qo‘mitasida bo‘lim mudiri.

1980-yil. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi.

1981—85-yillar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti direktori.

1985—90-yillar. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi.

1997-yil. O‘zbekiston xalq shoiri.

1990-yildan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Adabiyot, san‘at va me‘morchilik sohasida O‘zbekiston Davlat mukofotlari qo‘mitasida mas‘ul kotib, rais muovini.

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV

(1932)

1932-yil. Farg‘ona viloyatining Katta tagob qishlog‘ida tug‘ildi.

1949-yil. Qo‘qon pedagogika bilim yurtini tugatdi.

1955-yil. Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatdi.

1955—58-yillar. Farg‘ona viloyatining Bog‘dod, O‘zbekiston tumanlaridagi maktablarda o‘qituvchi, ilmiy bo‘lim mudiri, direktor vazifalarida ishladi.

1958-yil. «Toshkent haqiqati», «Sovet O‘zbekistoni» gazetalarida adabiy xodim, bo‘lim mudiri vazifalarida ishlagan. Keyinchalik «Yosh gvardiya» nashriyoti, «Gulxan», «Yosh kuch» jurnallarida rahbar lavozimlarda ishladi.

1961-yil. «Shoshqaloq» to‘plami nashr etildi.

1966-yil. «So‘qmoqlar» qissasi bosilib chiqdi.

1967-yil. «Muhabbat» qo‘shig‘i e‘lon qilindi.

1968-yil. «Sarig‘ devni minib» romani e‘lon qilindi.

1969-yil. «Jonginam, shartingni ayt» kitobi bosildi.

1973-yil. «Sarig‘ devning o‘limi» qissasi yozildi.

1974-yil. «Omonboy bilan Davronboy sarguzashti» qissasi e‘lon qilindi.

1976-yil. «Besh bolali yigitcha» kitobi yozildi.

1981-yil. «Qasoskorning oltin boshi» romani bosildi.

1982-yil. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi unvoni berildi.

- 1983-yil. «Yillar va yo'llar» romani e'lon qilindi.
 1986-yil. «Shirin qovunlar mamlakati» asari yozildi.
 1988-yil. «Mungli ko'zlar» romani e'lon qilindi.
 1989-yil. O'zbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.
 1991-yil. O'zbekiston Xalq yozuvchisi unvoni berildi.
 1996-yil. «Jannati odamlar» romani yozildi.

O'LMAS UMARBEKOV

(1934—1994)

- 1934-yil. Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug'ildi.
 1956-yil. Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatdi.
 1955—1971-yillar. Respublika radiosida muharrir, bosh muharrir bo'lib ishlaydi.
 1971—1974-yillar. Respublika partiya markaziy qo'mitasida maslahatchi, bo'lim mudiri bo'lib ishladi.
 1975—81-yillar. «O'zbekfilm»ga boshchilik qildi.
 1982-yil. O'zbekiston Madaniyat vaziri muovini, vazir.
 1985-yil. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi.
 1989—1991-yillar. Respublika vazirlar mahkamasi raisining o'rinbosari.
 1994-yil 10-noyabrda og'ir xastalikdan so'ng vafot etdi.
 1969-yil. «Odam bo'lish qiyin» qissasi bosildi.
 1970-yil. «Shoshma quyosh».
 1974-yil. «Komissiya».
 1975-yil. «Oqar suv», «Sud».
 1976-yil. «Qiyomat qarz».
 1982-yil. «Arizasiga ko'ra».
 1983-yil. «Kuzning birinchi kuni».
 1986-yil. «Kurort».
 1993-yil. «Yer yonganda» dramatik asarlarini yozdi.
 1977-yil. «O'zgalar deb», «Qalin qorlar bag'ridagi uchrashuv», «Ikki soldat haqida qissa» (1983) kabi kinossenariyalar yozdi.
 1995-yil. «Fotima va Zuhra» romani e'lon qilindi.
 1977-yil. Respublika Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.
 1984-yil. «Damir Usmonovning ikki bahori» qissasi uchun N. Ostrovskiy nomidagi adabiy mukofotni oldi.
 1992-yil. O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berildi.

ERKIN VOHIDOV

(1936)

1936-yil. Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tug'ildi. Tog'asi yurist Karim Sahiboyev qo'lida tarbiyalanadi.

1945—55-yillar. O'rta maktabda o'qidi, Ostrovskiy nomli kashshoflar uyida shoir G'ayratiy rahbarlik qilgan to'garakka qatnaydi.

Birinchi she'ri 7-sinfda o'qiyotgan paytida «Mushtum» jurnalida chiqadi.

1955—60-yillar. ToshDUning filologiya fakultetini tamomlaydi.

1960—63-yillar. «Yosh gvardiya» nashriyotida muharrir. «Buyuk hayot tongi» dostonini yozdi.

1961-yil. Birinchi she'rlar to'plami — «Tong nafasi» nashr etildi.

1962-yil. «Qo'shig'imiz sizga» she'riy kitobi bosildi.

1963-70-yillar. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir, bo'lim mudiri, bosh muharrir.

1963-yil. «Yurak va aql» she'riy to'plamini nashr ettiradi.

1964-yil. «Mening yulduzim» she'riy kitobi, «Orzu chashmasi», «Nido» dostonlarini yozadi.

1964-yil. S. Yeseninning «Fors taronalari»ni tarjima qildi.

1965-yil. «Nido» dostoni yaratiladi.

1966-yil. «Palatkada yozilgan doston» asarini yozadi.

1969-yil. «Yoshlik devoni» kitobi bosildi, «Oltin devor» komediyasi sahnalashtirildi.

1970-yil. «Charog'bon» she'riy kitobi (undan «Charog'bon» dostoni o'rin olgan) chop etildi.

1970-75-yillar. Nemis shoiri Iogan Volfgang Gyotening «Faust» tragediyasini tarjima qildi.

1972-yil. «Quyosh maskani» dostoni yozildi.

1975-yil. «Hozirgi yoshlar» she'riy to'plami, «Baxmal» asari yaratildi.

1975—82-yillar. «Yosh gvardiya» nashriyotida muharrir.

1976-yil. «Muhabbat» she'riy to'plami bosildi.

1978-yil. «Tirik sayyoralar» she'riy to'plami chiqdi.

1980-yil. «Ruhlar isyoni» dostonini yozdi.

1981-yil. «Sharqiy qirg'oq» she'riy to'plami yaratildi.

- 1982-yil. «Ko‘hi nur» dostoni yozildi.
- 1982-yil. «Yoshlik» jurnali bosh muharriri.
- 1983-yil. «Kelajakka maktub» she‘riy kitobi yaratildi.
- 1983-yil. «Sharqiy qirg‘oq», «Ruhlar isyoni» dostoni uchun respublika Davlat mukofoti berildi.
- 1986-yil. «Bedorlik» she‘riy kitobi chop etildi.
- 1986-yil. Ikki jildlik «Saylanma» («Muhabbatnoma» va «Sadoqatnoma») she‘riy to‘plami bosildi.
- 1986-yil. «Istambul fojiasi» dramasi yaratildi.
- 1986-yil. O‘zbekiston xalq shoiri unvoni berildi.
- 1987-yil. «Shoiru she‘ru shuur» kitobi bosildi.
- 1991-yil. «O‘rtada begona yo‘q!», «Kuy avjida uzilmasin tor» she‘riy kitoblari bosildi.
- 1992-yil. Turkiya yozarlar birligining Yunus Emro nomli mukofoti sohibi.
- 1999-yil. O‘zbekiston Qahramoni unvoni berildi.

ABDULLA ORIPOV

(1941)

- 1941-yil. Qashqadaryo viloyati Koson tuman Neko‘z qishlog‘ida dehqon oilasida dunyoga keladi.
- 1958-yil. O‘rta maktabni oltin medal bilan tugatdi.
- 1958—63-yillar. ToshDUning jurnalistika fakultetida o‘qiydi.
- 1965-yil. Birinchi she‘riy to‘plami «Mitti yulduz» bosildi.
- 1966—69-yillar. «Yosh gvardiya» nashriyotida muharrir bo‘lib ishladi.
- 1967-yil. «Ko‘zlarim yo‘lingda» she‘riy kitobi chiqdi.
- 1969-74-yillar. G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida muharrir.
- 1969-yil. Italian shoiri Dantening «Ilohiy komediya» asarining I kitobini tarjima qiladi.
- 1969-yil. «Onajon» nomli kitobi nashr etildi.
- 1971-yil. «Ruhim» she‘riy kitobi bosildi.
- 1972-yil. «O‘zbekiston», «Chashma» kitoblari bosildi.
- 1974-76-yillar. «Sharq yulduzi» jurnalida bo‘lim mudiri.
- 1974-yil. «Yurtim shamoli» she‘riy to‘plami nashr etildi.

1976—82-yillar. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Toshkent bo‘limi kotibi.

1974-yil. «Hayrat» she‘riy to‘plami bosildi.

1978-yil. «Jannatga yo‘l» dramatik dostoni yaratildi.

1979-yil. «Yuzma-yuz» she‘riy to‘plami chiqdi.

1980-yil. «Hakim va ajal» dostoni yozildi.

1980-yil. «Surat va siyrat», «Hakim va ajal», «Jannatga yo‘l» kitoblari bosildi.

1981-yil. «Najot qal‘asi» kitobi uchun respublika Davlat mukofoti berildi.

1982-yil. «Gulxan» jurnalining bosh muharriri.

1984-yil. «Yillar armoni» kitobi nashr etildi.

1988-yil. «Ranjkom» dramatik dostoni, «Ehtiyoj farzandi» adabiy o‘ylar kitobi yaratildi.

1989-yil. O‘zbekiston xalq shoiri unvoni berildi.

1989-yil. «Ishonch ko‘priklari» kitobi bosildi.

1991-yil. «Qush tili», «Sen bahorni sog‘inmadingmi?» kitoblari nashr etildi.

1992-yil. 40 ta hadis asosida «Hikmat sadolari»ni yozdi.

1995-yil. «Dunyo» kitobi bosildi.

1997-yil. «Sohibqiron» dramatik dostonini yozdi.

1996-yil. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi.

1998-yil. O‘zbekiston Qahramoni unvoni berildi.

2000—2001-yillar. To‘rt jildlik «Tanlangan asarlar»i chop etildi.

SHUKUR XOLMIRZAYEV

(1940)

1940-yil. Surxandaryo viloyatining Boysun tumanida tavallud topdi.

1963-yil. Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatdi.

Shukur Xolmirzayev turli yillarda nashriyotlarda muharrir, «Guliston», «Sharq yulduzi» jurnallarida bo‘lim mudiri, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida adabiy emakdosh vazifalarida ishladi.

1968—71-yillar. «Bodom qishda gulladi», «Olis yulduzlar ostida», «Hayot abadiy» kitoblari bosildi.

- 1976-yil. «Soʻnggi bekat» romani yozildi.
 1980-yil. «Ogʻir tosh koʻchsa» kitobi yaratildi.
 1984-yil. «Qil koʻprik» romani bitildi.
 1985-yil. «Soʻnmas olov» yozildi.
 1987-yil. «Togʻlarga qor tushdi», «Yoʻlovchi» kitoblari bosildi.
 1991-yil. «Qora kamar» dramasi, «Olaboʻji» romani yozildi.
 1991-yil. Respublika Davlat mukofotiga sazovor boʻldi.
 Oʻzbekiston xalq yozuvchisi unvoni berildi.
 1996-yil. «Yoshlik «jurnahida «Dinozavr» romanidan parcha eʼlon qilindi.

OʻTKIR HOSHIMOV

(1941)

1941-yil. Toshkent viloyatining Zangiota tumani Doʻmbirobod mavzeida tugʻildi.

1964-yil. Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tugatdi.

1960-yil. «Qizil Oʻzbekiston» gazetasida kurer.

1960—62-yillar. «Transportniy rabochiy» gazetasida tarjimon.

1963-yil. «Qizil Oʻzbekiston» gazetasida adabiy xodim.

1963—66-yillar. «Toshkent haqiqati» gazetasida adabiy xodim.

1966—82-yillar. «Toshkent oqshomi» gazetasida boʻlim mudiri.

1982—85-yillar. Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyotining bosh muharriri oʻrinbosari.

1985—95-yillar. «Sharq yulduzi» jurnalining bosh muharriri.

1995-yil. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Matbuot va axborot qoʻmitasining raisi.

1962-yil. «Poʻlat chavandoz» nomli birinchi kitobi bosildi.

1965-yil. «Gunafsha» toʻplami nashr etildi.

1970-yil. «Bahor qaytmaydi», «Bir tomchi shudring» kitoblar chop etildi.

1973-yil. «Qalbingga quloq sol» toʻplami nashrdan chiqdi.

1975-yil. «Nimadir boʻldi» toʻplami nashr qilindi.

1977-yil. «Nur borki, soya bor» romani yozildi.

1980-yil. «Quyosh tarozusi» toʻplami yaratildi.

1982-yil. «Dunyoning ishlari» kitobi yuzaga keldi.

1984-yil. «Oq kamalak» toʻplami bosildi.

1985-yil. «Sirli yulduz» to‘plami e’lon qilindi, «Kvazarlar» qissasi yozildi.

1986-yil. «Ikki eshik orasi» romani yozildi.

1987-yil. «Ikki karra ikki — besh» qissasi yaratildi.

1990-yil. «Notanish orol» to‘plami nashr etildi.

1993-yil. «Shumlik», «Umr savdosi» kitoblari bosildi.

1994-yil. «To‘ylar muborak» kitobi chop etildi, «Tushda kechgan umrlar» romani yozildi.

1998-yil. «Osmondan tushgan pul» hajviy hikoyalar to‘plami e’lon qilindi.

Ikki jildlik saylanma asarlari nashr etildi. Bundan tashqari, adibning bir qancha publitsistik asarlari bor. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida adabiyotshunos olim A. Rasulovning «Ardoqli adib» (2001) risolasi chop etilgan.

MUHAMMAD ALI

(1942)

1942-yil. Andijon viloyati Bo‘z tumanida tug‘ildi.

1960—65-yillar. Gorkiy nomidagi Adabiyot institutida o‘qidi.

1967—85-yillar. G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida muharrir, bosh muharrir.

1985—1988-yillar. O‘zteleradiokompaniyasida bosh muharrir.

1989—93-yillar. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi badiiy tarjima va adabiy aloqalar markazining raisi.

1993—96-yillar. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining professori, kafedra mudiri.

1997—99-yillar. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida bo‘lim mudiri.

1998-yil. «Oltin meros» Xayriya jamg‘armasining raisi.

1967-yil. «Fazodagi hislar» kitobi e’lon qilindi.

1968-yil. «Shafaq» kitobi bosildi.

1970-yil. «Otalar yurti».

1973-yil. «Alvon chechaklar».

1974-yil. «Dostonlar».

1976-yil. «Ninachi haqida ertak».

1977-yil. «Oq nur».

1980-yil. «Ilhom parisi».

1981-yil. «Boqiy dunyo» she'riy romani.

1983-yil. «Sevsam, sevilsam».

1989-yil. «Sen bir gulsan».

1990-yil. «Sarbadorlar» romani bosmadan chiqdi.

1994-yil. «Ona duosi» kitoblari chop etildi.

Shoir jahon adabiyoti durdonalari bo'lmish «Ramayana» (1978), «Shaxriyor» (1977), «Masposhsho» (1985) dostonlarini hamda Shiller, Bayron, Pushkin, Lermontov, Mahtumquli, Tagor, Abay kabi shoirlarning she'rlarini o'zbek tiliga mahorat bilan o'girdi.

1984-yil. Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

1992-yil. O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni berildi.

1997-yil. Bir jildlik saylanma nashr etildi.

2000-yil. «Men ko'rgan Amerika» kitobi bosildi.

2001-yil. «Ulug' saltanat» romani e'lon qilindi.

OYDIN HOJIYEVA

(1942)

1942-yil. Buxoro viloyatining Qiziltepa tumanidagi Bo'ston qishlog'ida tug'ildi.

1966-yil. Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatdi.

1967—76-yillar. «Sharq yulduzi» jurnalida adabiy xodim, bo'lim mudiri.

1976—85-yillar. «Saodat» jurnalida bo'lim mudiri.

1985—95-yillar. «Gulxan» jurnalining bosh muharriri.

1995-yil. «Saodat» jurnalining bosh muharriri.

1970-yil. «Shabnam» nomli to'plami chop etildi.

1972-yil. «Men sevgan qo'shiq», «Zarkokil qiz va quyosh» to'plami chop etildi.

1975-yil. «Manzillar» kitobi e'lon qilindi.

1977—78-yillar. «Navo», «Tarovat» kitoblari e'lon qilindi.

1979—80-yillar. «Buvisining o'z qizi», «Dostonlar», «Tamal toshi» kitoblari bosildi.

1989-yil. «Saylanma»si chop etildi.

1991-yil. «Najot», «Olisdan kelgan ovoz» kitoblari e'lon qilindi.

1992-yil. O'zbekiston xalq shoiri unvoni berildi.

1996-yil. «Ko'zimning oqu qorasi» kitobi bosildi.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA

(1948)

1948-yil. Sirdaryo viloyati Boyovut tumanida tug'ildi.

1962-yil. She'r yoza boshladi.

1967—72-yillar. Toshkent Davlat universitetida o'qiydi.

1968-yil. Birinchi she'rlar to'plami — «Ilk muhabbat» nashr etildi.

1972-yil. «Saodat» jurnalida bo'lim boshlig'i.

1973-yil. «Oq olamlar» she'riy to'plami chop qilindi.

1975—77-yillar. Moskva oliy adabiyot institutida o'qidi.

1975-yil. Rus tilida «Gordost» (R. Kazakova tarjimasida) she'rlar to'plami bosildi.

1976-yil. «Suyanch tog'larim» she'riy kitobi nashr etildi.

1976-yil. «BAM xotiralari» she'riy turkumi bosildi.

1977-yil. «Bobo quyosh» she'riy to'plami chiqdi.

1978—82-yillar. «Yosh gvardiya» nashriyotida ishladi.

1979-yil. «Issiq qor» she'riy kitobi bosildi.

1983-yil. «Saodat» jurnalining bosh muharriri o'rinbosari, so'ng bosh muharriri. Hozir «Sanam» jurnalining bosh muharriri o'rinbosari.

1987-yil. «Muqaddas ayol» she'riy to'plami chiqdi.

1990-yil. «Unutganning kuysin ikki dunyosi» she'riy turkumi bosildi.

1991-yil. «Yuragimning og'riq nuqtalari» publitsistik kitobi bosildi.

1991-yil. «Himoya so'zi» she'riy turkumi bosildi.

1992-yil. «Yuragimda arslon qishlaydi», «Turkistonning onalari» she'riy turkumi bosildi.

1992-yil. «Xudoyim, elimga podshohlik ber» she'riy turkumi e'lon qilindi.

2000-yil. «Saylanma» asarlari chop etildi.

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXIDA ENG KO'P TARQALGAN SHE'RIY JANRLAR HAQIDA QISQACHA MA'LUMOTLAR

G'AZAL

Ko'pincha muhabbat mavzusiga bag'ishlangan lirik she'rlar. Biroq boshqa mavzularda ham g'azal yozilavergan. Eng qisqa g'azal 3 baytdan, eng uzun g'azal 19 baytdan iborat bo'ladi. 7 va 9 baytli g'azallar ko'p tarqalgan. G'azalning birinchi baytidagi misralar o'zaro qofiyalanadi. Keyingi baytlardagi ikkinchi misralar birinchi bayt bilan qofiyadosh bo'lib keladi. Aksar hollarda g'azalning oxirgi bayti — maqtaida shoir taxallusi keladi.

QASIDA

G'azal singari baytlardan iborat, ammo baytlarning miqdori cheklanmaydi. Qofiyalash shakli ham g'azal kabidir. Qasidalar dastlabki paytlarda va keyinchalik ham ko'pincha shohlar, xonlar, amirlar va zamonaning mashhur kishilari maqtovi va madhiga bag'ishlangan. Ammo keyinchalik falsafiy, diniy qasidalar ham yozilgan. Qasidalarning oxirgi baytida shoir taxallusi keladi. Ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, manzara, axloq-odob mavzularida ham qasidalar yozilgan. Anvari, Xoqoniy, Muizziy. Farruxiyning qasidalari bunga misol bo'la oladi.

O'tmishda o'zbek tilida Sakkokiy, Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, Navoiy, Munis, Ogahiy, Maxmur, Fazliy, Gulxaniy va boshqalar ko'plab qasidalar yozganlar.

RUBOIY

Faqat to'rt misradan iborat bo'lgan, falsafiy, axloqiy va ta'limiy mavzularga bag'ishlangan mustaqil lirik she'r. Odatda ruboiylarning 1, 2, 3-misralari qofiyalanadi. Ammo ba'zan hamma misralar o'zaro qofiyadosh bo'ladi. Bundaylarni ruboiya yoki taronai ruboiy deyiladi.

TUYUQ

Bu ham ruboiy kabi to'rt misradan iborat mustaqil she'r. Ammo farqi shuki, bundagi qofiyadosh so'zlar omonim (ko'rinishi bir xil, biroq ma'nosi turlicha) so'zlardan iborat bo'ladi. U bevosita

xalq og'zaki she'riyati ta'sirida paydo bo'lgan. Tuyuqlar turli mavzularda yozilishi mumkin.

DOSTON (YANA MASNAVIY DEB HAM YURITILADI)

Hajm jihatidan katta, tugallangan syujetga ega bo'lgan epik asardir. Bu ham baytlardan iborat, ammo ularning hajmi, miqdori cheklangan emas. Baytlardagi misralar o'zaro qofiyalanadi. Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z», Navoiyning «Xamsa» asariga kirgan dostonlari masnaviy janrining eng yaxshi namunalaridir.

NOMA

Masnaviyning bir turi. Farqi shuki, bundagi she'rlar go'yo bir kishidan ikkinchi kishiga yuborilgan maktubga o'xshatib yozilgan bo'ladi. Noma tarkibida boshqa janrdagi she'rlar ham bo'lishi mumkin. Eng yaxshi noma namunasi Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asaridir.

MUSAMMATLAR

Har bandi uch va undan ortiq (to o'ntagacha) misralardan iborat lirik she'rlar bo'lib, g'azal singari turli mavzularda yozilishi mumkin. Mumtoz adabiyotimizda murabba (har bandi to'rt misra), muxammas (har bandi besh misra), musaddas (har bandi olti misra), musabba (har bandi etti misra) shakllari keng tarqalgan. Navoiy, Mashrab, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat va boshqalar bunday lirik she'rlarni ko'p yozishgan.

MASAL

Kichik syujetli, obrazlari aksar hollarda hayvonot olami vakillari — majoziy bo'lgan, oxirida qissadan hissa chiqariladigan epik she'riyat turidir. Qofiyalanishi masnaviy shaklida. Navoiy «Sher va Durroj», Gulxaniy «Maymun bilan Najjor», «Toshbaqa bilan chayon», «Tuya bilan Bo'taloq» kabi masallarni yozishgan. Boshqa ayrim shoirlar ijodida ham masallar bor.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
I bob. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar. Eramizgacha VII asrning oxiri va VI asr boshlari	4
II bob. VIII — XII asrlar adabiyoti	5
Mahmud Koshgʻariy	6
Yusuf Xos Hojib	6
Ahmad Yugnakiy	7
Ahmad Yassaviy	7
III bob. XIII — XIV asrlar adabiyoti	8
Nosiriddin Burhoniddin oʻgʻli Rabgʻuziy	8
Pahlavon Mahmud	8
Badriddin Chochiy	9
Xorazmiy	9
Qutb	10
Sayfi Saroyi	10
IV bob. XV asrning birinchi yarmidagi adabiyot	11
Durbek	11
Haydar Xorazmiy	11
Atoiy	12
Sakkokiy	12
Hofiz Xorazmiy	13
Lutfiy	13
V bob. XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr adabiyoti	14
Husayniy	14
Alisher Navoiy	14
Zahiriddin Muhammad Bobur	17
Muhammad Solih	19
Majlisiy	20
Xoja	20
VI bob. XVII—XVIII asrlar adabiyoti	21
Abulgʻoziy Bahodirxon	21
Boborahim Mashrab	21
Turdi (Farogʻiy)	23
Soʻfi Oллоhyor	23
Fazliy Namangoniyy	24
Nodir — Uzlal	25
Maxmur	25
Gulxaniy	26
Uvaysiy	27

Amir Umarxon (Amiriy)	28
Nodira	29
Munis Xorazmiy	30
Ogahiy	31
Muhammad Rahimxon II (Feruz)	33
VII bob. XIX asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyoti	34
Komil Xorazmiy	34
Muhammad Aminxo'ja Muqimiy	35
Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat	36
Zavqiy	38
Avaz O'tar o'g'li	40
Ibrat	41
Muhammad So'fizoda	42
Mahmudxo'ja Behbudiy	44
Sadriddin Ayniy	48
Abdulla Avloniy	51
Fitrat (Abdurauf Abduraimov).....^	53 ✓
Hamza Hakimzoda Nijoziy	55
Abdulla Qodiriy	59 ✓
Cho'lpon (Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov)	61
G'ofur G'ulom	63
Oybek	66 ✓
Uyg'un	68
Abdulla Qahhor	70
Maqsud Shayxzoda	72
Hamid Olimjon	74
Komil Yashin	75
Mirtemir	77
Usmon Nosir	79
Zulfiya	80
Sharof Rashidov	82
Said Ahmad	83
Quddus Muhammadiy	84
Asqad Muxtor	85
Odil Yoqubov	87
Pirimqul Qodirov	88
Jumaniyoz Jabborov	89
Xudoyberdi To'xtaboyev	90
O'lmas Umarbekov	91
Erkin Vohidov	92
Abdulla Oripov	93
Shukur Xolmirzayev	94
O'tkir Hoshimov	95 ✓
Muhammad Ali	96
Oydin Hojiyeva	97
Halima Xudoyberdiyeva	98
O'zbek adabiyoti tarixida eng ko'p tarqalgan she'riy janrlar haqida qisqacha ma'lumotlar	99

HAMIDJON HOMIDIY, ODILJON NOSIROV,
MAHMUDJON MA'MUROV

O'ZBEK ADABIYOTI
(ma'lumotnoma)

o'zbek tilida

185 - buyurtma 1000 nusxa. Hajmi 6.5 b.t
2004 yil 5 yanvarda bosishga ruxsat etildi.
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida
nashr qilindi.

Bosmaxona manzili. Bratislava 3.

643e

010483/94